

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG’LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**



TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

FARMAKOLOGIYA VA KLINIK FARMATSIYA KAFEDRASI

“FARMASEVTIK YORDAM FANIDAN”

O‘QUV – USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: 500000- Sog’liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot

Ta’lim sohasi: 510000- Sog’liqni saqlash

**Ta’lim yo’nalishi: 510500-farmatsiya (farmatsiya ishi)
510500-farmatsiya (klinik farmatsiya)**



TOSHKENT – 2020

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG’LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

FARMAKOLOGIYA VA KLINIK FARMATSIYA KAFEDRASI

“FARMASEVTIK YORDAM FANIDAN”

O’QUV – USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	500000- Sog’liqni saqlash va ijtimoyi ta’minot
Ta’lim sohasi:	510000- Sog’liqni saqlash
Ta’lim yo’nalishi:	510500-farmatsiya (farmatsiya ishi)
	510500-farmatsiya (klinik farmatsiya)

TOSHKENT – 2020

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2019 yil "12" sentyabrdagi 231- sonli buyrug'i bilan (buyrug'ining 1- ilovasi) tasdiqlangan "Farmatsevtik yordam" fani dasturi asosida tayyorlangan.

Tuzuvchilar:

Fayziyeva Z. T.	Farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrasining mudiri, dots., t.f.d.
Tulyaganov R.T.	Farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrasining dots., b.f.d.
Shiltsova N.V.	Farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrasining dotsenti, b.f.n.
Sultanova R.X.	Farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrasining, kat.o'q, PhD
Saydaliyeva F.A.	Farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrasining kat. o'q.

Taqrizchilar:

Allaeva M.J.	TTA, Farmakologiya kafedrasini mudiri, t.f.d., dots.
Rasulova V.B	Toshfarmi, Tibbiy fanlar kafedrasini t.f.n., dots

Fanning o'quv uslubiy majmuasi tibbiy va biologik soha uslubiy kengashining 2020 yil " 10 " iyundagi 10- sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Soha uslubiy kengashi raisi  Fayzieva Z.T.

Toshkent farmatsevtika instituti MUK 2020 yil "7" iyuldagi 12- sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Markaziy uslubiy kengash raisi  Z.A. Yuldashev



Fanning o'quv uslubiy majmuasi Toshkent farmatsevtika instituti institute Kengashining 2020 yil "30" iyundagi 11- sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Kengash kotibi  Haydarov V.R.

MUNDARIJA

	Kirish.....	4
I.	Nazariy materiallar.....	8
1.	Farmatsevtik yordam fanining vazifalari va ahamiyati. Retseptsiz dori moddalari bilan davolanadigan asosiy kasallik va patologik holatlarda qayd etiladigan simptom va sindromlar haqida tushuncha.	22
2	Allergiya simptomlarini davolashda retseptsiz beriladigan dori vositalarini tanlash.	25
3	Yod tanqislik holatida va tireotoksikozda F.Yo tamoyillari. Temir tanqisligi bilan bog‘liq kamqonlik va ularni davolashda farm yordam berish tamoyillari.	25
4	Yuqori nafas yo‘llari yallig‘lanish kasalliklarida F.Yo tamoillari (rinit va bronxitlar) Yuqori nafas yo‘llari yallig‘lanish kasalliklarida F.Yo tamoillari (yotal va isitma)	33
5	Tomoq og‘riqlarida farm yordam Yalliglanishga qarshi dori vositalarining farmatsevtik yordamdagi o‘rni	43
6	Nerv tizimi faoliyati buzilishida farmatsevtik yordam tamoyillari (Uyqusizlik holat-lari, nevrozlar, stress holatlari, depressiyalar). Tayanch- xarakat apparati patologiyasida (bo‘g‘im va mushak og‘riqlari, osteoartroz, oteopoz) F.yo tamoyillari.	55
7	Oshqozon ichak trakti(OIT) faoliyati buzilishlarida simptomatik davolash va F.yo tamoillari (qabziyat) Oshqozon ichak trakti(OIT) faoliyati buzilishlarida simptomatik davolash va F.yo tamoillari (disbakterioz, diareyalar, meteorizm).	72
8	Jigar va o‘t yo‘llari kasalliklarida farm yordam Terining zamburug‘li kasalliklari, seboreya, xusnbuzar, uchuqlarni davolashda F.yo tamoyillari.	103
9	Poligipovitaminoz, mikroelementlar xolatida F.yo tamoyillari Dezinfektsialovchi dori vositalar hamda retseptsiz beriladigan dori vositalar ro‘yhati va ularni qo‘llashda farmasevtik yordamning ahamiyati.	111
II	Amaliy mashg‘ulotlari materiallari.....	
III	Mustaqil ta‘lim mavzulari.....	200
IV	Glossariy.....	203
V	Testlar.....	206
VI.	Namunaviy dastur	217
VII.	Ishchi dastur.....	226
VIII.	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	247

Hozirgi zamon Fan va texnikasining rivojlanishi bemorlar qabul qiladigan turli xil dori moddalarining o'ziga xos, original dori shakllarini yuzaga keltirmoqda. Dorixonadagi dori moddalarining 75 % dan ortig'ini tayyor dori turlari tashkil etadi. Bemorlarning ko'pchiligi shifokorlarga emas, balki to'g'ridan-to'g'ri farmatsevtlarga murojaat qiladilar. Shuning uchun ham farmatsevtlarni turli xil kasalliklarning asosiy simptom va sindromlari bilan tanishtirish, dori vositalaridan samarali foydalanish, zarurat tug'ilganda ma'lum bir preparat o'rnini bosuvchi boshqa preparatni tavsiya etish, dorilarni kombinirlangan holda ishlatilganda yuzaga keluvchi holatlar haqida ma'lumotlar bilan tanishtirish lozim.

Yosh mutaxassislariga har bir sohada chuqur va keng qamrovli ma'lumot berish, ularga berilgan bilim ishlab chiqarishda va jamiyatda o'z aksini va dolzarbligini yo'qotmaydigan bo'lishiga va ularning bilim darajalari dunyo ta'lim standartlari qo'ygan talabga javob berishiga asosiy ahamiyat qaratilmoqda. Zamonaviy hayotdagi ishlab chiqarish samaradorligini etuk kadrlarsiz tasavvur etish mumkin emas. Har sohada inson omili, uning qadr-qimmatini birinchi o'ringa qo'yilib ish tashkil etilgan joyda yutuqlar barqaror bo'lishi shubhasiz. Inson tug'ilishi bilan yashash, erkinlik va baxtga intilish huquqiga ega bo'ladi. Inson o'zining yashash, dam olish, sog'ligi haqida qayg'urish, qulay atrof-muhit, xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan mehnat sharoitida ishlashga bo'lgan xuquqlarini hayot faoliyati jarayonida amalga oshiradi. Uning bu huquqlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlangan. farmatsevtlar asosiy fanlar bo'yicha etarli ma'lumotga ega bo'lishlari, bilimlarini oshirib borishlari va undan foydalangan holda dorilarni samarali ishlatishlari lozim bo'ladi.

Rivojlanib kelayotgan davlatlarda dori moddalarining samarasiga oid barcha javobgarlik farmatsevtlarga yuklanadi. Dorixona amaliyotining asosiy vazifasi aholini samarali DMLari bilan, tibbiy asbob-uskunalar bilan ta'minlash va ularni qo'llashda yordam berishdir. Bemorlarga optimal terapevtik yordam berish va ularni turli xil nojo'ya ta'sirlardan himoya qilishda berilayotgan DMLarning sifati katta rol o'ynaydi.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni oqilona va ratsional darajada yuzaga chiqarish uchun farmatsevtlar klinik farmatsiya va farmakokinetika fanlar asoslarini yaxshi o'zlashtirishlari lozim. Xozirgi kun farmatsevtlarni shunday tarbiyalash kerakki, ular asosiy kasalliklarning ma'lum simptomlari yuzaga chiqqanda ularga retseptsiz dorilar bilan davolash uchun kerakli va ratsional maslaxatlarni bera oladigan, va shunga o'xshash boshqa simptomlari bor bemorlarni vrachga murojaat qilishlari kerakligini o'qtirib utadigan darajada bo'lishlari kerak. SHu nuqtai-nazardan «Farmatsevtik yordam» fanini uquv rejasiga kiritilishi va uni asosiy vazifalarini chuqur o'rganish o'ta muxim vazifadir.

Ushbu majmua chet el adabiyotlaridan foydalanilgan holda tuzib chiqildi.

I. O'QUV MATERIALLARI

1-MA'RUZA

MAVZU: FARMATSEVTIK YORDAM FANINING VAZIFALARI VA AHAMIYATI. RETSEPTSIZ DORI MODDALARI BILAN DAVOLANADIGAN ASOSIY KASALLIK VA PATOLOGIK HOLATLARDA QAYD ETILADIGAN SIMPTOM VA SINDROMLAR HAQIDA TUSHUNCHA.

Reja:

1. Farmatsevtik yordam fanining vazifalari, mazmuni, uning farmatsevtlar tayyorlashdagi ahamiyati.
2. Asosiy kasalliklarning simptom va sindromlari haqida tushuncha
3. simptom va sindromlar haqida tushuncha.

Tayanch iboralar: JSS, farm.yordam, simptom, sindromlari.

1. Farmatsevtik yordam fanining vazifalari, mazmuni, uning farmatsevtlar tayyorlashdagi ahamiyati.

Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) o'zining dorilar siyosati doirasida strategik qarashini qayta ko'rib chiqishni JSS Assambleyasi oldiga qo'ydi. JSS Assambleyasi ushbu taklifni qo'llab-quvvatladi va dorilar muomalasida farmatsevtlarning rolini yanada oshirish maqsadida 1988 yil Dexlida va 1993 y Tokioda maxsus 2 ta kengash o'tkazdi. Bu kengashlarda Jahon farmatsevtlar federatsiyasi (MFF) dorilar siyosatiga va strategik yo'nalishga oid standartlarni qabul qildi. Bu standartlar bo'yicha 1994 yilning may oyida JSS Assambleyasi alohida rezolyusiya qabul qildi. SHu rezolyusiyaga muvofiq JSST dorixonalarda «YAxshi dorixona amaliyoti» (GAP) nomli dorixona xizmatchilarining munosib ishlashlari bo'yicha standart ishlab chiqadi. Ishlab chiqilgan standartda dorixona xizmatchilarining aholiga ko'rsatadigan xizmatlarini sifat jixatidan yangi pag'onaga ko'tarish masalalari qayd etilgan.

Qabul qilingan standartning asosini jahon farmatsevtlarining professional xizmatini qaerda va kim bilan ishlashidan qat'i nazar oliy darajaga ko'tarish tashkil etadi. SHu standart asosida MFF dunyo bo'yicha barcha milliy farmatsevtik tashkilotlarga JSST qabul qilgan qo'llanmaga binoan, o'zlarining taktika va strategiyasini qayta ko'rib chiqishni va shunga yarasha yangi yo'nalishlarni qabul qilishni o'rtaga tashlaydi.

YUqoridagilardan kelib chiqib farmatsevtlar asosiy fanlar bo'yicha etarli ma'lumotga ega bo'lishlari, bilimlarini oshirib borishlari va undan foydalangan holda dorilarni samarali ishlatishlari lozim bo'ladi.

Rivojlanib kelayotgan davlatlarda dori moddalarining samarasiga oid barcha javobgarlik farmatsevtlarga yuklanadi. Dorixona amaliyotining asosiy vazifasi aholini samarali DMLari bilan, tibbiy asbob-uskunalar bilan ta'minlash va ularni qo'llashda yordam berishdir. Bemorlarga optimal terapevtik yordam berish va ularni turli xil nojo'ya ta'sirlardan himoya qilishda berilayotgan DMLarning sifati katta rol o'ynaydi.

Keyingi yillarda bemorlarni farmatsevtlarga birlamchi murojaat qilishini ko'payishi munosabati bilan «farmatsevtik yordam berish» ideologiyasi ishlab chiqildi. Bunda ijtimoiy tomondan kam ta'minlangan, DMni qabul qilish uchun etarli mablag'i yo'q aholining bir qismini yoshi katta bemorlar, onalar va bolalar, sununkali kasalliklarga chalinganlar tashkil etishini inobatga olgan xolda farmatsevtik yordam berish NAP ning asosini tashkil etadi.

YUqoridagilardan kelib chiqqan holda, NAP ning oldiga qo'yilgan asosiy talablar quyidagilarni tashkil etadi:

- farmatsevtlar oldidagi birinchi masala bemorlarga kim va qaerda yashashidan qat'i nazar yaxshi sharoitni tashkil qilish,

- Dorixona amaliyotining asosini bemorlarni DMLari, tibbiyot amaliyotida ishlatiladigan asbob-anjomlar bilan ta'minlash hamda ularga kerakli ma'lumotlar, maslaxatlar berish bilan bemorlar qabul qilayotgan preparatlarning samarasini oshirish,

- DMLarining to'g'ri va tejamli qo'llashni tashkil etish,

- Dorixona xizmatchilarining har bir xatti-xarakati aniq bemor uchun qaratilgan va aniqlangan bo'lib, uni samarasi o'sha bemor shaxsiga va xolatiga bog'liq bo'lishi kerak.

SHu talablarni oqilona amalga oshirish uchun farmatsevtlar quyidagi masalalarni hal qilishi kerak:

- farmatsevtlar mehnat ideologiyasining asosini iqtisodiy omillar bilan birga professional omillar tashkil etadi.

- bemorlarning DMLarini ratsional qabul qilishida farmatsevtlar ma'lum xissa qo'shadi.

- farmatsevtlarning boshqa SSVgi mutaxassisleri bilan o'zaro munosabati, farmakoterapevtik davoni amalga oshirishda o'zaro bir-biriga ishonchli, ochiq, oqilona va beg'araz bo'ladi.

- farmatsevtlarni boshqa xamkasblari bilan munosabati bir-birini ko'ra olmaslik asosida emas, balki xamjixatlikka va dorixona xizmatini yaxshilashga qaratiladi.

- tibbiyot maskanlaridagi raxbar farmatsevtlar amaliyotda ishlatiladigan DMning sifati va bahosini aniqlashda bemorlarga hamdard bo'lgan holda ishtirok etadilar.

- farmatsevtlar har bir bemor ustidagi tibbiy va farmatsevtik ma'lumotlardan baxobar bo'lishi va bemorlarni bir dorixonadan foydalanishini yuzaga chiqaradi.

- farmatsevtlar davolash uchun qo'llanilayotgan dorilar ustida to'la va ob'ektiv ma'lumotga ega bo'ladi.

- farmatsevt butun umri davomida, o'zini professional xizmatini amalga oshirishda o'zini kompetentligini baholash va saqlash uchun shaxsan javobgarlikni xis etadi.

- qabul qilingan milliy davlat standartlariga NAP xizmatlarida amal qiladilar.

Mana shu nufuzli MFF, JSST va JSS Assambleyasi muxokama qilgan, lozim topgan va uni qabul qilgan rezolyusiyalari asosida Toshfarmi yildan-yilga o'zini o'quv plan va programmalarini qayta ko'rib chiqmoqda va rivojlantirmoqda. Xususan, 1966-1967 o'quv yillarida Evropadagi rivojlangan davlatlarga (Daniya, Angliya), JSST tashkil etgan o'quv kurslariga Institutimiz xodimlari jalb etilmoqda (Moskva, Barselona va b). Natijada farmatsiya fakultetining o'quv rejalarga bir necha yangi fanlar va yo'nalishlar kiritildi. Masalan, farmakokinetika, klinik farmatsiya, biokimyoviy farmakologiya, yig'ma preparatlar texnologiyasi va b.

2005 yil JSST 7- regional kengashida institutimiz o'quv rejasiga farmatsevtik yordam kiritish taklif etildi.

Axolini sog'ligi va uni kundalik hayoti bilan bog'liq xolatlarda ularni xayotiy zarur dori-darmonlar bilan ta'minlash farmatsevtlarning asosiy va professional burchidir. SHunday ekan, farmatsevtlar asosiy kasalliklarning simptom va sindromlari haqida tushunchaga ega bo'lishlari kerak. SHuning uchun xam xozirgi kunda farmatsevtlar o'zlarining bilim salohiyatlarini yanada chuqurlashtirib bormoqdalar. Olib borilgan adabiyotlarning analizlari keyingi 15-20 yil ichida farmatsevtlarning ish soxasi va ularning axoliga ko'rsatadigan yordamlarini qanchalik o'zgarib ketganligini ko'rsatmoqda.

2. Asosiy kasalliklarning simptom va sindromlari haqida tushuncha

Xo'sh, simptom deb nimaga aytiladi-yu, sindrom nima?

Simptom-kasallik yoki patologik xolatning belgisi bo'lib, u sub'ektiv va ob'ektiv bo'lishi mumkin. Sub'ektivni bemordan so'rab olinadi, ob'ektivda bemorni turli yo'llar bilan tekshirib olinadi.

Sindrom-yagona patogenez bilan bog'liq kasallik belgilarining birgalikda yuzaga chiqishi. U biror kasallik (Mener sindromi) yoki kasallikning bosqichi (nefrotik sindromidagi uremiya xolati) deb qaraladi.

Men'er sindromi-ichki quloq kasalliklaridan biri. Bunda endolimfa suyuqligi ko'payib, ichki quloq bosimi oshadi; natijada ko'z soqqalari bejo harakat qiladi va kungil aynishi, bosh aylanishi, qayt qilish, muvozanat yo'qolishi, quloq shang'illashi, eshitish faoliyati buzilib, asta-sekin karlikka olib kelishi kuzatiladi.

Nefrotik sindrom (uremiya) surunkali glomerulonefritning bosqichi bo'lib, azot shlaklarining tanada yig'ilib qolishi va uning zaharlanishi bilan namoyon bo'ladi.

Xozirgi kunda farmatsevtlar oddiygina dorilarni tayyorlash yoki sotishdan tashqari bemorlarni davolashda ishtirok etuvchi oila a'zosiga aylanadilar va SSV-ligiga qarashli barcha nufuzli tashkilot va korxonalar bilan bog'liq bir butun komandani tashkil etadi.

Farmatsevtik yordam konsepsiyasi o'zini-o'zi davolash va o'z-o'ziga yordam berish, xolatlarini zo'rayib borishi va dorixonalariga birlamchi murojaat xolatlarining ko'payib borishi munosabati bilan yaqqolroq yuzaga chiqmoqda. Nima uchun degan savol tug'iladi? CHunki bu jarayon turli xil omillar bilan bog'liqdir. Masalan:

- insonning hayot tarziga (ichish, chekish, parhez va b).
- ijtimoiy-iqtisodiy omillarga,
- dori vositalari bilan ta'minlanganlik darajasiga,
- epidemiologik va demografik omillarga va b.faktorlarga bog'liq

Tibbiy yordam ko'rsatish jarayonining qimmatlashishi, demografik o'zgarishlar va kasalliklarning xarakteri bemorlarga xizmat qilish tizimida o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bunday xolatlarda zamon provizorlardan dori vositalaridan aniq, ob'ektiv va samarali foydalanishni talab qilmoqda. Buning uchun ular asosiy kasalliklarning retseptsiz davolanadigan simptom va sindromlarini yaxshi bilishlari zarur. CHunki noto'g'ri beriladigan preparatlar yoki davoga mos tushmaydigan davo muolajalari uchun pul to'lash bemorlar uchun, qolaversa jamiyat uchun zarardir.

Bu borada tibbiyot amaliyotiga kirib kelayotgan yangi soxalar, xususan farmakoepidemiologiya yoki farmakoekonomikaning yuzaga kelishi dorilarning ongli va ratsional qo'llashda o'z ta'sirlarini ko'rsatadi. Bu yangi yo'nalishlar davo uchun noto'g'ri va foydasiz mablag' sarflashni va shu tufayli nojo'ya ta'sirlarni yuzaga chiqishini oldindan aniqlab berishi mumkin...!

Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan bemorlarni dori-darmonlarga erishish masalasi kundan-kunga murakkablashib bormoqda. Bu masalada Respublikada ishlab chiqilgan «qzbekiston Respublikasida ishlatiladigan hayotiy dori vositalari qo'llanmasi ma'lum darajada yangilik kiritishi mumkin. CHunki qo'llanmaga kiritilgan yuqori aktivlikka va sifatga ega dorilardan foydalanish bemorlarning byudjetini - mablag'ni tejimli sarflashga yo'l ochib beradi.

Savdodagi dorilar sifatini oshirish bilan birga farmatsevtlarning soxa spetsialisti sifatida maxoratlarini yanada oshirish zarur bo'ladi. SHundagina farmatsevtlarning amaliyotidagi xizmatlarida dorilar ustidan sifatli nazoratni yuzaga chiqarishi va asosiy kasallik va patologik xolatlarda qayd etiladigan simptom va sindromlarini davolashni yuqori darajaga kutarish va shu yo'l bilan bemorlarni ijtimoiy axvolini yaxshilash mumkin.

Xozirgi zamon SSV tizimining bir bo'lagi o'z-o'zini davolash jarayonidan iborat bo'lib qolmoqda. Bunda bemorlar o'z sog'ligi uchun to'la javobgarlikni xis etishlari kerak.

Uz-o'zini davolash bilan bog'liq turli xil nojo'ya ta'sirlardan o'zini ximoya qilish borasida bemorlarni farmatsevtlarga shifokorlarga qaraganda ko'proq murojaat qilishi, dorilar assortimentining kundan-kunga ortib borishi, retseptsiz beriladigan dorilar soni ko'payishi farmatsevtlarning ijtimoiy axvoliga ta'sir etadi va ularni jamiyatdagi rolini oshiradi. CHunki xozirgi kunda dorilarning 95 % dan ortig'i tayyor dori turlaridan iborat bo'lib, bemorlar farmatsevtlarga murojaat qilganda ushbu dorilar bemalol berib yuboriladi. SHu yo'l bilan bemorlar o'z-o'ziga yordam berish tizimi tashkil qilinadi. Berilgan dorilarning ratsional ishlatishni taklif etish uchun farmatsevtlar o'z ongini, bilimini va ish faoliyatini xozirgi zamon talablari asosida qayta ko'rib chiqishlari lozim va shu yo'l bilan bemorlarni o'zini-o'zi davolashida ularga munosib yordam berishlari kerak.

Uz-o'zini davolash jarayonida quyidagi kamchiliklar qayd etilishi mumkin:

-o'z vaqtida shifokorga murojaat etmaslik, nojo'ya ta'sirlarni yuzaga chiqish shansini oshirishga olib keladi va nojo'ya xolatlar ko'payadi va b.

uz-o'ziga yordam berish jarayonlari ko'pincha surunkali kasallarga chalingan bemorlarda, kasallikni qayta xuruji yuzaga chiqqanda o'zini og'ir xolatdan olib chiqish uchun foydalaniladi.

Ukrainalik olimlar 40 dan ortiq xorijiy izlanishlarni analiz qilib, retseptsiz o'zini-o'zi davolayotgan xolatlarda eng ko'p tarqalgan simptomlarga quyidagilarni kiritishgan:

- bosh og'rig'i,
- yo'tal,
- shamollash,
- tomoq og'riqlari,
- me'dadagi buzilishlar,
- qabziyat va diareya,
- xusnbuzarlar,
- mushaklardagi og'riqlar,
- kesilish va qirqilish xolatlari,
- shilingan va ezilgan xolatlar.

Mana shunga o'xshash patologik xolatlarni qayd etiluvchi asosiy simptomlarni davolashda farmatsevtik yordam katta rol o'ynaydi. Bemorni davolashda provizorlar zimmasida bemorlarni nafaqat sifatli dorilar va tibbiyot aslaxalari bilan ta'minlash, balki shifokorlar bilan birgalikda dorilarni ratsional qo'llashda faol ishtirok etish mas'uliyati ham bor. Bu masalalarni oqilona amalga oshirish uchun va ularga samarali farmatsevtik yordam berish uchun ular o'z tajribalarini, farmatsevtik etika masalalarini, professional salohiyatlarini bemorlarga nisbatan munosabatini va bemorlar oldidagi burchini yuqori pog'onaga kutarish zarur. SHundagina provizorlar bemorlarga BTYO ko'rsatish borasidagi o'z mavqeini, shuningdek, retseptsiz beriladigan preparatlar bilan o'z-o'zini davolashni yuzaga chiqishida va o'z-o'ziga yordam berishda zamon talablari darajasiga ko'tarilishi mumkin.

SHu ko'rsatib o'tilgan simptomlarni aniqlash uchun farmatsevtlar nimalarga ahamiyat berishlari kerak:

1. Farmatsevtlar bemorlar bilan muloqotda bo'lib, bemor xolatiga bog'liq ma'lumotlarni olishlari kerak,
2. Aniqlanayotgan simptomlarga oid eng kerakli savollarni berish, nojo'ya ta'sirlarga oid ma'lumotlarni berish.
3. Yuqoridagi simptomlarni aniqlash uchun farmatsevtlar etarli darajada bilimga ega bo'lishlari zarur va shu bilim darajasida vrachlar ko'rgunicha to'g'ri yordam berishlari zarur.
4. Ob'ektiv yordam ko'rsatish uchun farmatsevtlar dori moddalariga oid zarur ma'lumotlarni bilishlari kerak.
5. Bemor talabini to'la qondirish uchun farmatsevtlar qo'shimcha adabiyotlardan ma'lumotlar olishlari va ularni to'g'ri qo'llashlari zarur
6. Farmatsevtlar bemorlarga adekvat yordam berib, o'z-o'zini davolashdagi javobgarlikni xis etishlari zarur.
7. Farmatsevtlar bemorlar ustidagi bor ma'lumotlarni konfidentialligini ta'minlashlari zarur.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni oqilona va ratsional darajada yuzaga chiqarish uchun farmatsevtlar klinik farmatsiya va farmakokinetika fanlar asoslarini yaxshi o'zlashtirishlari lozim. Xozirgi kun farmatsevtlarni shunday tarbiyalash kerakki, ular asosiy kasalliklarning ma'lum simptomlari yuzaga chiqqanda ularga retseptsiz dorilar bilan davolash uchun kerakli va ratsional maslaxatlarni bera oladigan, va shunga o'xshash boshqa simptomlari bor bemorlarni vrachga murojaat qilishlari kerakligini o'qitirib utadigan darajada bo'lishlari kerak. SHu nuqtai-nazardan «Farmatsevtik yordam» fanini uquv rejasiga kiritilishi va uni asosiy vazifalarini chuqur o'rganish o'ta muxim vazifadir.

Dori moddalarining klinik samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri oziq-ovqatlar bilan o'zaro munosabatidir. Inson organizmida dori moddalari bilan oziq-moddalarining o'zaro ta'sirlari o'ta murakkab jarayon bo'lib, xozirgacha bu muammoning barcha aspektlari to'laligicha o'rganilmagan. Provizorlar dorixonada bemorlarga dori moddalarini tafsiiya etish uchun ovqatdan oldin yoki keyin berilishi bo'yicha tafsiiyalarni bilishlari muximdir. CHunki ovqatlar davolashga va davolash jarayoniga ta'sir ko'rsatadi.

Dori vositalarining oziq-ovqatlar bilan munosabati.

Dori moddalarining o'zaro munosabatida klinik farmatsevtik aspektlar.

Farmatsiyaning klinik yo'nalishida dori moddalarining samaradorligini oshirish va ularning nojo'ya ta'sirlarini kamaytirish asosiy maqsad xisoblanadi. Organizmga dori moddalarini yuborishning keng tarqalgan turi og'iz orqali berish usulidir. Birinchidan bemor uchun qabul qilinishi qulay, 2 chidan tabiiy va nisbatan zararsiz (jigarning tabiiy bar'eri xisobiga), 3 chidan OIT da og'iz orqali yuborilgan moddalar bir necha soatdan bir necha kungacha saqlanib, fermentlar va ozuqa moddalari bilan o'zaro ta'sirlashadi. Ammo dori moddalarini uzoq vaqt qabul qilish OIT faoliyati buzilishini kuchaytirishi mumkin.

Dori moddalarining ovqat bilan o'zaro munosabatida klinik farmatsevtik aspektlarining asosiylari quyidagilardir:

- ovqat tarkibiy qismlarining DM terapevtik effektiga ta'siri: so'rilishi, tetratsiklin va boshqalar
- ovqat tarkibiy qismlarining DM zaxarliligiga ta'siri: so'rilishi, metabolitlar va boshqalar
- DM ning OIT fiziologik jarayoniga ta'siri: qon bilan ta'minlanishi, motorikasi
- DM ning xazm qilish tizimi patalogiyasining kelib chiqishiga ta'siri: me'da shiralari, gastritlar
- biologik faol qo'shimchalarni qo'llashning klinik – farmatsevtik aspektlari:
- ovqat tarkibida etishmaydigan zarur moddalarning DM xisobiga kompensatsiyalash (vitaminlar, oqsillar, mikroelementlar va b.)
- oziq moddalarini iste'mol qilish natijasida kelib chiqqan kassaliklarni medikamentlar bilan davolash: me'da yaralari misolida.

DM ning ovqatlar bilan o'zaro munosabatida ahamiyatga molik asosiy omillar.

- Dori moddalarining fizik-kimyoviy xususiyatlari
 - DM larining farmakokinetik xususiyatlari (so'rilishiga me'da shirasining ta'siri)
 - Ovqat tarkibi va miqdori
 - Ovqat xazm qilish tizimi organlarining fiziologik xotatlari
- YUqorida keltirilgan omillar DM farmakokinetik va farmakodinamik ko'rsatkichlarining o'zgarishlariga olib keladi.

DM farmakologik xususiyatlariga ovqatning ta'sir qilish yo'llari

- xazm qilish tizimidan DM larning so'rilishiga ta'siri
- DM biomasligiga ta'siri (ichak devorlarida presistem metabolizm)
- DM larining antogonizmi va senergizmiga ta'siri
- preparatning organizmdan chiqib ketishi tezligiga ta'siri

Ovqat tarkibidagi moddalar va DM o'rtasida (sut maxsulotlari, tanin va boshqalar)

- DM ning ovqat tarkibi bilan kimyoviy va fizikaviy o'zaro ta'sirlashuvi
(DMning ovqat qoldiqlarida adsorbsiyalanishi, DM sining ovqat qoldiqlari ichiga kirib qolishi, DM ning shilliqalar bilan qoplanishi va b.)

- oshqozon rN muxitining o'zgarishi (penitsillin va adrenalin misolida)

- ichak mikroflorasi ta'sirida DM metabolizmining o'zgarishlari kabilar va bulardan tashqari oshqozonning to'yinish darajasi, DM sininig fizik-kimyoviy xususiyatlari, sekretinlar tarkibi va qovushqoqligi, DM larning kompleks, xelat birikmalar, ionlar xosil qilish qobiliyatlari, DM va ovqat maxsulotlarining shilliq qavatlarga shikastlovchi ta'sirlari ham muxim ahamiyatga ega. DM va ovqatning o'zaro ta'sirlashuvida dori shakli xam ahamiyatga ega. Dorilar bilan davolashda preparatning davolovchi ta'siridan maksimal foydalana bilish, nojo'ya ta'sirlarini imkon qadar kamaytirish, DM ta'sirini uzaytirish, ta'sir qiluvchi ingredientning so'rilishini kuchaytirish yoki kamaytirish, allergik xotatlarni kamaytirish, ingredientning yoqimsiz fizik-kimyoviy ta'sirlarini (xid, rang, ta'm) yo'qotishga e'tibor berish kerak.

Suyuk dori shakllari ovqatlar bilan kamrok o'zaro munosabatda bo'ladi, ya'ni ular bemalol oshqozondan ichakka o'tadi. Qattiq dori shakllari ovqat bilan birgalikda qabul qilinganda oshqozon bo'shlig'ida ancha vaqt saqlanib qolishi va natijada ta'sirlovchi moddaning so'rilishi buziladi. Mikrogranullalar asosida ajratib olingan va qobiq bilan o'ralgan dori shakllariga xam ovqatning unchalik ta'siri yo'k. Ichakda eruvchan qobiq bilan o'ralgan tabletkalarni ovqat bilan birga berib

bo'lmaydi. Chunki ovqat ularning oshqozonda uzoq qolib ketishiga olib keladi, so'rilishiga qarshilik ko'rsatadi. Bundan tashqari bu dori shakllarini ishqorli ovqatlar (suyukliklar) bilan qabul qilish natijasida qobiqlarning erib ketishi va oshqozonda ta'sir etuvchi moddaning parchalanishi kuzatiladi.

2.DM va suyuqliklar

Farmatsevtlardan bemorlar dori moddasini nima bilan ichishni tavsiya etish mumkinligini so'rashadi. DM ni qabul qilishda suyuqlik miqdori preparatning maksimal effektining yuzaga chiqishi katta ahamiyatga ega bo'lib, suyuqlik miqdori preparatning so'rilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, konsentrlangan eritmalarining so'rilishi asuyultirilgan eritmalariga nisbatan ancha qiyin. Nordon yoki ishqoriy eritmalar og'iz orqali berilsa ularning biomosl原因 konsentrlangan eritmalarinikiga nisbatan yuqori (aspirin, fenobarbital va b.) Suvda yomon eruvchi dorilarda xam (eritromitsin) shunday.

Antibiotiklarning, masalan, tetratsiklinning so'rilishida eritma konsentratsiyasining ahamiyati yo'k. Suvda yaxshi eruvchan preparatlarning (aspirin, amoksitsillin) so'rilishi suyuqlikning miqdoriga bog'liq bo'lib, ko'p miqdordagi suyuqlik bu dorilarning biomosl原因ini oshirishi mumkin. Bugungi kunda DM va suyuqliklarni birga qullash uchun quyidagi umumiy takliflarni kiritish mumkin:

- 1) rezorbtiv ta'sirga ega dori moddalarini 30-40 min. ovqatdan oldin, 50-100 ml. dist. suv yoki qaynatilgan suv bilan ichish mumkin
- 2) ko'p miqdorda suyuqlik bilan suvda yomon eriydigan dorilar qabul qilinsa, ularning biomosl原因i oshib ketadi.
- 3) Suvda yaxshi eriydigan dorilarning biomosl原因i suyuqlik miqdoriga bog'liq emas.

Yuqoridagilardan tashqari DM suyuq oziq moddalar bilan quyidagicha o'zaro ta'sirlashadi:

DM va sut maxsulotlari Ushbu ta'sirga antibiotiklar guruxiga mansub tetratsiklinning sut bilan o'zaro ta'siri yaqqol misol bo'la oladi. Sut tarkibidagi kazeinogen oshqozon shirasi ta'sirida kazeinat-kalsiyga aylanadi va tetratsiklin va boshqa antibiotiklar bilan (metatsiklin, doksitsiklin kabilar) so'rilmaydigan kompleks xosil qiladi. Natijada sut va sut maxsulotlari 20-80 % ga ularning so'rilishini xamda terapevtik effektlarini kamaytiradi.

SHuningdek, sut og'iz orqali beriladigan penitsilin va sefalosporinlar guruxi antibiotiklarining so'rilish tezligini xam kamaytirishi aniqlangan. Ammo sut nosteroid yallig'lanishga qarshi (butadion, indometatsin, voltaren), rezerpin, buyrak usti bezi gormonal preparatlarining (prednizolon, deksametazon) so'rilish tezligini oshiradi. SHu sababli bu preparatlarni 30-40 min. ovqatdan oldin sut bilan ichish tavsiya etiladi. Bolalarga dorilarni sut bilan aralashtirib sut idishida berish tavsiya etilmaydi. Sababi dorilarning qanchadir miqdori idish devorlarida, bolalar surgichlarida qolib ketishi natijasida dorining etarlicha dozasi organizmga tushmaydi

Ishqoriy mineral suvlar bilan kislotaga chidamli qobiq bilan o'ralgan dorilar tavsiya qilinmaydi, chunki qobiqning parchalanishi oqibatida dorining ta'sir qiluvchi moddasi xam parchalanib ketishi mumkin. Ammo sulfanilamid preparatlarini ishqoriy mineral suvlar bilan ichish maqsadga muvofikdir. Sababi ular mineral suv ta'sirida organizmda atsetillanadi va buyrakda kristallar xosil bo'lishini oldi olinadi.

Toniziruyushiy ichimliklar «Fanta», «Pepsi-kola» o'z tarkibida temir va kalsiy ionlarini saqlaganligi sababli tetratsiklin guruxi va makrolidlar bilan qiyin eruvchi kompleks xosil qiladi va ularning antibakterial effektlarini kamayishiga olib keladi. **Greypfrut** ichimligi tarkibida ko'plab biologik aktiv moddalar bo'lib, kalsiy antagonistlarining jigarda metabolizmini susaytiradi, natijada ularning zaxarililigi oshadi. Bunda bosh og'rig'ini, yurak ritmining o'zgarishini, depressiya xolati kabilarni keltirib chiqaradi.

Nordon mevali va sabzavot soklari antibiotiklardan eritromitsin va ampitsillinlar bilan birga tavsiya etilmaydi. Chunki ushbu ichimliklar ta'sirida ularning ionlanish darajalari va biomosl原因lari o'zgaradi, natijada terapevtik ta'sirlari kamayadi. Aksincha, salitsilatlar, barbituratlar, nitrofuranlar, atsetazolamid kabilarning effektlari ushbu soklar ta'sirida kuchayadi.

Choy va kofe bir qator biologik aktiv moddalardan iborat. Kofein bir kator preparatlarning (ergotamin) soʻrilishini, boshlangʻich taʼsirlarini oʻzgartiradi, gematoensefalik toʻsiqdan oʻtishini kuchaytiradi va parasetamol, aspirinlarning analgetik effektlarini tezlashtiradi, organizmdan filtratsiya yoʻli orqali buyrak kanalchalaridan chiqib ketuvchi preparatlarning (ampitsillin) organizmdan chiqishini tezlatadi. Tanin choy tarkibida etarli miqdorda boʻlib, atropin, kodein, morfin, papaverin va platifillin alkaloidlarining, aminazin va galloperidol neyroleptiklarning, N-2 antagonist simetidinning xamda ogʻiz orqali beriluvchi kontratseptiv dorilarning soʻrilish tezligi va darajasini kamaytiradi.

3.Dori va ovqat.

Dori moddalarining ovqatlar bilan munosabatida bir qator xolatlarni xisobga olish zarur:

- DM ovqatdan oldin tavsiya etilsa ularning oʻzaro taʼsirlashuvining oldi olinadi, ovqat DM soʻrilishiga taʼsir kilmaydi, shuningdek. xazm shiralarning DM ga nisbatan nojoʻya taʼsirlari kamaytiriladi.
- Ovqat oʻtning ajralishini kuchaytiradi, lipofil moddalarning esa soʻrilishi kuchayadi. SHuning uchun xam lipofil moddalarni ovqatdan soʻng berish kerak.
- Koʻp miqdorda goʻshtdan, oʻsimliklardan tayyorlangan ovqatlar, sut peshobning rN muxitini ishkoriy tomonga siljitadi va kuchsiz kislotalarning (salitsilatlar, barbituratlar) organizmdan chiqib ketishini taʼminlaydi.
- Nordon taʼmli maxsulotlar (sitrus mevalar, klyukva, olxuri) kuchsiz asosli dori moddalarining organizmdan chiqib ketishini ragʻbatlantirib, kuchsiz kislotalarning organizmdagi taʼsirlarini esa kuchaytiradi.

Bir kator ozuqa maxsulotlari dori moddalari bilan birga qabul qilinishi natijasida ularning farmakodinamikasining oʻzgarishiga olib keladi. Masalan, ayrim sabzavotlar (belokachannaya kapusta, listovoy salat, redka) progvatrin moddasini saqlab antiteroid taʼsir koʻrsatadi. Bu maxsulotlarni antiteroid moddalar bilan qoʻshib berilsa preparatlarning antiteroid xususiyati oshadi, va aksincha qalqonsimon bezi gormonal preparatlarining taʼsiri susayadi.

Kalina, chernoplodnaya ryabina, kulupnay, lavlagilar tarkibidagi aktiv moddalar periferik qon-tomirlarni kengaytirib arterial bosimni tushiradi. Demak, gipotenziv dorilarning effektini potensirolovchi xususiyatga ega. SHu sababli turli gipotenziv dorilar bilan birgalikda tavsiya etiladi. Bilvestia antikoagulyantlarning taʼsir mexanizmi vitamin K ga antagonistligi bilan tushuntiriladi. Demak, shpinat, choʻchqa jigari, pomidor, yashil noʻxat, karam (belokochannaya) lar vit. K ga boy boʻlib, antikoagulyantlar bilan birga berilsa ularning taʼsiri oshadi.

Xuddi shunday sulfanilamid preparatlarining taʼsir mexanizmi foli kislota sintezining blokadasi bilan bogliq. Tarkibida Foli kislota saqlovchi qoramol jigari, boby, achitqi, petrushka, shpinat, tomatlarni sulfanilamid preparatlari bilan birga tavsiya etish kerak.

Uglerod saqlovchi maxsulotlar (tuxum) sulfanilamidlar bilan birga berilganda metgemoglobin xosil boʻlishini ragʻbatlantiradi.

Vitamin V₆ ga boy goʻsht, baliq, sut, pishloq, soya, bugʻdoy uni, makkajoʻxori uni, yachmen, achitqilar taʼsirida levadopa (Nakom, Madopar, Sinemet) preparatlarining samaradorligi kamayadi. Vit 6 aminokislotalar almashinuvida faol ishtirok etadi va natijada levadopaning dofaminga aylanishi tezlashadi, dofamin esa gematoensefalik toʻsiqdan yomon oʻtadi. Tiramin va seratonina boy ozuqa maxsulotlari bilan katexolaminlar taʼsirining oshishi bilan bogʻliq dorilar birga berilganda (сырны синдром) monoaminooksidaza ingibitorlari (MAO), psixostimulyatorlar, qon-tomirlarni toraytiruvchilar bilan birga berilganda gipertonik kriz va shunga oʻxshash ogʻir xolatlar yuzaga chiqadi (bosh ogʻrigʻi, taxikardiya, ADning koʻtarilishi, kalla suyagi ichida qon quyulishi kabi), SHu sababli MAO ingibitorlari va psixostimulyatorlarni qabul qilganda pishloq, brinza, dudlangan seld, goʻshtli va baliqli konservalar, kofe, shokolad, pivo, vino, banan, ananas, limon, apelsin, mandarin, uzum, smorodinalar birga tavsiya etiladi. Nitrat va nitritlarga boy oziq moddalari bilan antigistamin preparatlarni, N 2 blokatorlarni (ranitidin, simetidin, famotidin),

qand miqdorini tushiruvchi- glibenklamid, gliklazid, organik nitratlar (nitroglitserin) birga tavsiya etish kanserogen aktivlikning kuchayishiga olib keladi.

Nazorat savollari.

1. Farmatsevtik yordam fanining vazifalariga nimalar kiradi
2. Farmatsevtik yordam fanining mazmuni, uning farmatsevtlar tayyorlashdagi ahamiyati qanday.
3. Asosiy kasalliklarning simptom va sindromlari haqida nimalar bilasiz.
4. Dorilarning soʻrilish jarayoniga oziq-ovqatlarining taʼsiri va uni xisobga olib bilish.
5. Dori vositalarining oziq-ovqatlar bilan munosabati haqida fikringiz.

2 MARUZA. ALLERGIYA SIMPTOMLARINI DAVOLASHDA RETSEPTSIZ BERILADIGAN DORI VOSITALARINI TANLASH.

1. Allergik kasalliklarida retseptsiz dorilarning oʻrni

2. allergik reaksiyalarning sabablari

Allergiya juda qadim zamonlardan buyon insoniyat turmush tarziga salbiy taʼsir etgan. Mil. avv. V asrdayoq Gippokrat oshkozon-ichak sistemasining buzilishi va toshma toshishiga olib keluvchi baʼzi-bir oziq-ovqat maxsulotlarini taʼriflab bergan. Rim shifokori Galen esa atirgul xididan kelib chiqqan tumovni kuzatib borgan. Oxirgi 10 yil ichida allergiya butun dunyo mediklari, biologlarining aktual muammosi boʻlib qoldi. Butun dunyo Sogʻliqni saqlash tashkilotining bergan maʼlumotlariga koʻra hozirgi paytga kelib allergik kasalliklar tarqalishi buyicha 3 oʻrinda, 2005 yilga kelib esa 1 oʻringa chiqishi aniqlangan.

Turli xil yoshdagi va turli xil kasb egalari orasida allergik kasalliklar keng tarqalayotganligi maʼlum boʻldi. Ayniqsa, bolalar orasida allergik kasalliklarning oʻsishi koʻp kuzatilmoqda. Bularning sababi boʻlib, irsiy naslga tortish, atrof- muxitning ifloslanishi, xar kungi turmush xayotda ishlatilayotgan turli xil ximiyaviy maxsulotlarning koʻpayishini koʻrsatish mumkin.

Koʻpgina xolatlarida terida paydo boʻlgan allergik formalarda, allergik rinit yoki konʼyuktivlarda bemor dorixonadan retseptsiz dori olib oʻzi davolanadi, allergiya xolati qaytarilsagina vrachga murojat qiladi.

Allergiya - organizmning biron-bir yot modda - allergenga boʻlgan sezuvchanligining ortishi.

«Allergiya» termini (lot. Allos-boshqa, yot; ergon- oʻzgacha taʼsir) avstriyalik pediater Pirke tomonidan 1906 yilda taklif etilgan.

Xozirgi paytga kelib quyidagilar aniklangan:

- spetsifik allergik (xaqiqiy allergik) reaksiyalar
- nospetsifik allergik (yolgʻon yoki soxta, psevdallergik) reaksiyalar

Spetsifik allergik reaksiyalar. Organizmga endi tushgan allergen maʼlum bir vaqtdan soʻng (birinchi davr, immunologik bosqich) yuqori sezuvchanlik- sensibilizatsiya (lot. Sensibilis-sezuvchan) ni rivojlantiradi. Organizmda sensibilizatsiyaning paydo boʻlishi natijasida allergenlarga nisbatan spetsifik antitelalar ishlab chiqarilishi boshlanadi. Sensibilizatsiyani yuzaga chiqargan allergenning organizmga qayta tushishi natijasida, uning sensibilizatsiya paytida xosil boʻlgan antitelalar bilan reaksiyaga kirishuvi kuzatiladi, natijada organizmda biologik aktiv moddalar - allergiya mediatorlari (gistamin, serotonin va b.lar) xosil boʻladi.

Allergiya mediatorlari taʼsirida maʼlum bir simptomlar yuzaga chiqadigan allergik reaksiyalar rivojlanadi.

Qachondir paydo bulgan sensibilizatsiya koʻp oylar va xattoki yillab saqlanishi mumkin.

Nospetsifik (psevdallergik) reaksiya. Allergen bilan birinchi aloqadayoq, sensibilizatsiyasiz yuzaga keladi.

Allergik reaksiyalarni yuzaga keltiruvchi moddalar- allergenlar deyiladi. Organizmga tashqi muxitdan kirgan allergenlar- ekzoallergenlar, organizmning o'zida yuzaga keladigan, lekin o'zgargan oqsil shaklida bo'lgan allergenlar- endoallergenlar yoki autoallergenlar deyiladi.

Nisbatan ko'p tarqalgan ekzogen allergenlar

Oziq-ovqat, sigir suti, tuxum, shokolad, asal, sitrus mevalar, dukkaklilar va boshqalar.

Maishiy- uy, mexmonxona, kutubxona, changi va uning ayrim komponentlari (mikroskopik xashorotlar- dermatofagoidlar, mikroorganizmlar va b.lar)

Kepaklar va kuchuk, mushuk, ot va boshqa xayvon junlari, patlar (yostiqlik patlari, baliqlarning quruq emi, uy qushlarining ekskrementi), suvaraklar, mog'or zamburug'ining sporalari (ayniqsa zaxonalarda).

Kontakt- Kir yuvish kukunlari, sintetik buyumlar, kosmetik maxsulotlar.

O'simlik changlari- daraxtlar, dala o'tlari, donli o'simliklar (makkajuxori, kungaboqar).

Ximiyaviy- kichik (platina, nikel, xrom, simob, dinitrokslorbenzol tuzlari va b.lar) va yuqori molekulyar moddalar (laklar, buyoqlar, polimerlar va boshqa tabiiy va sunniy ximiyaviy moddalar).

Insektid (xashorotlar)- asalari, qovoq ari, chivin va boshqalarning zaxarlari, allergen substansiyalari.

Dori moddalari- har qanday dori moddasi allergen bo'lishi mumkin.

Allergik reaksiyalar 2ta katta guruxga bo'linadi

1. Spetsifik allergik reaksiyalar. Organizmga endi tushgan allergen ma'lum bir vaqtdan so'ng organizmda yuqori sezuvchanlik sensibilizatsiyani rivojlantiradi. Natijada organizm unga tushgan antigenlarga nisbatan spetsifik antitelalar ishlab chiqaradi. Sensibilizatsiyani yuzaga chiqargan antigen organizmga qayta tushgandan so'ng, unga qarshi ishlab chiqarilgan antitelalar bilan reaksiyaga kirishadi. Natijada organizmda biologik aktiv moddalar – allergiya mediatorlari ajralib chiqib boshlaydi. Allergiya mediatorlari ta'sirida ma'lum simptomlardan iborat allergik reaksiyalar yuzaga chiqadi.
2. Nospetsifik allergik reaksiyalar. Bunda allergen bilan organizmni birinchi muloqotdayoq sensibilizatsiyasiz allergik reaksiya yuzaga chiqadi.

Allergik reaksiyalar kelib chiqishiga ko'ra 3 ta guruhga bo'linadi:

1. Dori organizmga tushishi bilan yoki 1 soat ichida tez yuzaga chiqadigan allergik reaksiyalar. Bularga: anafilaktik shok, bronxial astma, Kvinke shishi va boshqalar kiradi.
2. O'rtacha muddatda boshlanadigan va davom etadigan allergik reaksiyalar. Bularga: agronulatsitoz, trombositopeniya va boshqalar kiradi.
3. Uzoq muddat davom etadigan, qaytarilib turadigan allergik reaksiyalar. Bularga: allergik vaskulit, artritlar, limfadenitlar, gepatit, nefrit, miokardit va boshqalar kiradi.

Allergik reaksiyalar klinik shaklining ko'rinishlari

Bemor organizmda allergenning antitela bilan o'zaro ta'siri natijasida deyarli xamma organlarda allergik yallig'lanishlari kelib chiqishi mumkin.

Eng ko'p uchraydigan xolatlar bu tashqi to'qimalarni (teri, shilliq qavat) va nafas yo'llarini yallig'lanishidir.

Allergodermatozlar (terining allergik kasalliklari)- allergik xolatlarning eng ko'p tarqalgan turidir. Bolalarda uchraydigan teri allergik reaksiyalariga - atopik dermatit, kattalarda - toshmalar va Kvinkening anginevratik shishi.

(Kvinke shishi).

Atopik dermatit - Turli xil topik allergenlar bilan: ximiyaviy buyumlar, o'simlik changlari, oziq-ovqat allergenlar va b.larni o'zaro ta'sirlanishi natijasida teri sezuvchanligining ortishi. Qattik qichishish, qizarish va terining shishi bilan xarakterlanadi.

Mayda toshmalar- o'tkir allergik reaksiya, terida tez paydo bo'ladigan va yo'qoladigan toshmalar va qichishish bilan xarakterlanadi.

Kvinkening anginevratik shishi (gigantskaya krapivnitsa)- terining, teri osti xujayralarining va shilliq qavatlarning shishiga olib keladi. Ko'p xollarda labda, qovoqda, qo'l kaftining ichki qismida uchraydi. Shishning xalkum va nafas yo'llariga tarqalishi nafas qisilishiga olib keladi.

Allergik rinit - burun shilliq qavatining allergik reaksiyasi natijasida yuzaga keladigan klinik ko'rinishi. Burundan shilliq moddaning ajralishi bilan xarakterlanadi. Ko'p xolatda qichishish, aksa urish, burunning bitib qolishi bilan birga qayd etiladi.

Allergik kon'yuktivit- ko'z shilliq qavatining qizarishi va qichishishning birdan paydo bo'lishi bilan xarakterlanadigan allergiyaning klinik ko'rinishi.

Pollinoz- o'simlik changlari ta'siri natijasida kelib chiqadigan allergiya. Ko'pincha mavsumiy rinit, kon'yuktivit ko'rinishida bo'ladi. Ba'zi xolatlarda bronxospazm, bronxial astma va boshqa allergiya simptomlari bilan kuzatilishi mumkin.

Bronxial astma- surunkali retsivli kasallik, bronxlarning giperreaktivligi natijasida yuzaga keladigan nafas qisilishi xurujlari bilan xarakterlanadi.

Zardob kasalligi- bu sistemali allergik reaksiya bo'lib, organizmning turli xil organlari va sistemalarini begona zardob, uning fraksiyasining yuborilishi natijasida kelib chiqadigan patologik xolat. Ayrim dori moddalarini qonga yuborganda xam javob reaksiyasi sifatida yuzaga kelishi mumkin.

Anafilaktik shok- allergiyaning eng og'ir ko'rinishi bo'lib, butun organizmning allergenga nisbatan reaksiyasi bo'lib xisoblanadi. MNS ning avval qo'zg'alishi, so'ng esa tormozlanishi, bronxospazm va arterial bosimning keskin tushib ketishi bilan xarakterlanadi

Dori moddalarga nisbatan kuzatiladigan allergiya.

Ko'pchilik dori moddalarining o'zi antigen xisoblanmaydi, lekin ular organizmga tushgandan so'ng oqsillar bilan birikma xosil qilib, antigenga aylanib qoladi. Dori moddalari ichida eng ko'p allergik reaksiyalarni yuzaga chiqaradiganlarga antibiotiklarning penitsillin gruppasi, sulfanilamid, nosteroid yallig'lanishga qarshi preparatlar, tiazid diuretiklar, maxalliy anestetiklar, trankvilizatorlar, barbituratlar, rentgenokonstrast moddalar va yod preparatlari kiradi.

Dori moddalar allergiyasining kechishini oldindan aniqlab bo'lmaydi, u dori moddasining xossalari, shuningdek bemor organizmning xususiyatlari bilan aniqlanadi.

Dori moddalar allergiyasining klinik ko'rinishlari turlicha bo'lib, turli xil organ va to'qimalarga ham ta'sir qilishi mumkin.

Dori moddalar allergiyasi kelib chiqishiga quyidagilar sabab bo'ladi

- dori moddasining teri va (shilliq qavatning) zararlangan joyiga qo'yish
- prolongik tasirga ega preparatlarning ishlatilishi.
- dori moddasi tarkibida terpen saklovchi aromatik moddalarni qo'llash (lavanda, binafshagul, chinnigul va b.larning aromatik moddalari)
- bemorning fiziologik xususiyatlari- gormonal o'tish vaqti, xomiladorlik, klimaks.

Bolalarda uchraydigan allergik reaksiyalarning sabablari

1 yoshli bolalarda: oziq-ovqat sensibilizatsiyasi - allergodermatozlar, oshkozon-ichak tizimida buzilishlar.

2 yoshdan 3 yoshgacha: oziq-ovqat sensibilizatsiyasi, dori moddalar allergiyasi, aeroallergenlar va pollyuantlar (o'simlik changlari). Terining, nafas yo'llarining zararlanishi.

4 yoshdan 7 yoshgacha: aero allergenlar, pollyuantlar. Bu yoshda respirator allergik ko'rinishlar soni ortadi (uy changi, mozor zamburug'iga sensibilizatsiya ortadi) natijada pollinoz, allergik rinit, yillik, mavsumiy allergik kon'yuktivit va bronxial astmalar.

Katta yoshdagi bolalar: Katta yoshdagi bolalarda ingalatsion allergenlar- uy changi, mog'or zamburug'i, xayvon epidermisi, o'simlik changlariga sensibilizatsiya ortadi. Ko'pchilik bolalarda polivalent allergiyaning bronxial astmaning, teri zararlanishi va respirator traktning zararlanishi yuzaga kelishi kuzatiladi.

Allergik reaksiyaga sabab bo'luvchi faktorlar:

- allergik kasalliklarga irsiy moyillik
- go'daklik paytidagi allergenlar bilan kontaktida sensibilizatsiya yuzaga chiqishi (ona qornidagi xolatlar xam)
- tamaki tutunining ta'siri

- ishlab chiqarishdagi qoldik maxsulotlarni sensibilizatsiyaga ta'siri
- ratsionda shirinlikning ko'p ist'emol qilinishi allergik reaksiyalarning ko'payishiga olib keladi
- emotsional stress
- organizmda gormonal o'zgarishlar davri - jinsiy etilish davri, xomiladorlik, klimaks, xayz ko'rish davri
- quyosh radiatsiyasining ta'siri

Vrachga murojat qilish lozim bo'lgan «Xavfli xolatlar»

Xar qanday allergiya ko'rinishlari xam vrachning ko'rigini talab qiladi. Qaytariluvchi allergik reaksiyalar oldini olish uchun yordam beradi. Vrach konsultatsiyasini olgan bemor profilaktika choralarini ko'radi, allergiyaning qaytalanishida o'zini-o'zi davolashda ishtirok etadi.

Quyidagi xolatlarda vrachga qayta murojat qilish lozim:

- allergiyaning yangi xolatlari yuzaga chiqqanda (masalan, toshma) nafas olishning qiyinlashishi, nafas qisishi qayd etiladi.
- allergiyaning davolashdan oldin qo'llanilgan preparatlar bilan davolanmagan xolatlarda
- o'tkir yuzaga chiqqan allergik xolatlar uzoq muddat davomida saqlansa va vaqti-vaqti bilan qaytarilsa.

Tezlik bilan tashxis qo'yish va davolash kerak bo'lgan xolatlar:

- xayot faoliyatiga xavfli bo'lgan xolatlar-og'ir nafas olish, nafas olishning qiyinlashishi, nerv sistemasidagi buzilishlar, arterial bosimning keskin tushib ketishi.
- xalqum shishining belgilari - ovozning o'zgarishi, «vovillovchi» yo'tal, nafas olishning qiyinlashishi.
- allergik shishning yuz qismining yuqorisiga tarqalishi
- vaximaga tushish, qo'rquv, xolsizlik
- xarakatchanlikning ortib ketishi
- abdominal belgilar- ko'ngil aynishi, qayd qilish, qorin og'rig'i.

Pollinoz xolati kuzatilgan bemorlarga maslaxatlar:

- pollinoz kuchayishida boshqa allergenlarga xam sezuvchanlik ortib ketadi- uy changi, xayvonlar juni, medikamentlarga allergiyaning paydo bo'lish ehtimoli ortadi.
- uyida, ish joyida derazani iloji boricha ochmaslik, ayniqsa ertalab. Xavo tozalovchi moslamalardan foydalanish lozim
- tez-tez dush qabul qilish tavsiya etiladi
- mashinada yurganda oynasini qattiq yopish kerak
- pollinoz kasalligi bor bemorlarga fitopreparatlarni xususiyatlarini tuluq o'rganib tavsiya qilish lozim, chunki ularning maxalliy, kompress xolatlari allergiyaning kuchayishiga olib kelishi mumkin
- shuni esda tutish kerakki, xona o'simliklaridan (geran, primula) bog'larda, dalada o'sadigan gullar (siren, jasmin, atirgul, marvaridgul, binafsha va b.lar) kasallikni zo'raytirishi mumkin.

Ota-onalarga maslaxatlar

- yosh bolalarda teri va shilliq qavatlarning o'tkazuvchanligi yuqori bo'lganligi sababli ayniqsa ular yuqori ta'sirli allergenlardan uzoq tutilishi shart. Kattalarga qaraganda bolalarda turli xil ekzogen allergenlarga sensibilizatsiyani rivojlanishi osonroq kechadi.
- tabiiy oziqlantirish go'daklarda allergiya xolatlarining kamayishiga olib keladi (Ona ratsionida allergenlar mavjud bo'lmagan xolatlarda). Par yostiqlarni porolon yostiqlarga almashtirish, bola yonida uy xayvonlarini qoldirmaslik
- ota-onalari allergik reaksiyalariga ta'sirchan bo'lgan bolalarga allergiya xolatlarini oldini olish choralarini kurish muximdir.

Allergiyaga qarshi beriladigan preparatlar 2 guruhga bo'linadi:

1. Tez yuzaga chiqadigan allergik reaksiyalarni davolovchi preparatlar
Nafas yo'llarining o'tkir va surunkali kasalliklari tibbiyotning muxim muammolaridan biri bo'lib, ular o'zlarining keng tarqalganligi, kechimining og'irligi, tez-tez qaytalanib turishi va nojo'ya ta'sirlari bilan nafaqat tibbiyot xodimlarini, balki kishilik jamiyatini o'ziga jalb etadi. Tibbiy yordam so'rab murojaat etayotgan har 3 ta nafas yo'llari kasalliklarining 2 tasini yuqori nafas yo'llari kasalliklari tashkil etadi. Bularning aksariyat ko'pchiligida kasallikning sabablarini infeksiyaga bog'liq xolatlar tashkil etadi.

Nafas organlarining asosiy kasalliklarini bronxitlar, pnevmoniya, bronxopnevmoniya, bronxoektatik kasalliklar, bronxial astma, o'pka emfizemasi, infarkti, absessi va gangrenasi, plevrit, pnevmotoraks va b. tashkil etadi. SHu kasalliklarning eng ko'pini yuqori nafas yo'llarining o'tkir va surunkali kasalliklari tashkil etadi.

YUqorida keltirilgan nafas organlarining kasalliklarini kelib chiqishi va darajasiga qarab simptom va sindromlar u yoki bu darajada qayd etiladi.

Nafas yo'llari kasalliklarining asosiy simptom va sindromlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- turli xil darajadagi yo'tallar;
- balg'am ajralishi, tana xaroratining kutarilishi,
- nafas olish jarayonining buzilishi,
- kuchli xansirash, havo etishmasligi, tumov, yuqori nafas yo'lilari yallig'lanishi, terlash, og'riqlar, tomoq qirilishi, bug'ilish, sianoz va b.

Biz sanab o'tgan yuqori nafas yo'llari kasalliklarida qayd etiladigan simptom va sindromlarda farmatsevtik yordam talab etiladi. Buni shu soxaning mutaxassislari bilan birgalikda hal qilish mumkin. YUqoridagilarni inobatga olib, nafas organlari kasalliklarida eng ko'p qayd etiladigan yo'tal simptomi ustida to'xtab o'tamiz.

Yo'tal- bu hammaga ma'lum, lekin o'ta murakkab mexanizmga ega refleks bo'lib, nafas yo'llaridan normal havoni o'tishini yuzaga chiqarishga qaratilgan jarayondir. SHuning uchun ham yuqori nafas yo'llari kasalliklarida eng ko'p qayd etiladi. Lekin ko'pchilik bu xolatga yuzaki qarab, uni ma'lum darajada bilimga ega bo'lmagan odamlar, masalan, ota-onalar, qarindoshlar, tanishlar va o'z-o'ziga yordam ko'rsatish orqali davolash mumkin deb xisoblaydilar. Natijada yo'talga qarshi retseptsiz beriladigan dori-darmonlarni, tushunib-tushunmasdan ishlatadilar. Bunday holat mutlaqo noto'g'ri bo'lib, turli xil nojo'ya ta'sirlarni yuzaga chiqaradi. Bu narsa ayniqsa yosh bolalar amaliyotida yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi. CHunki yosh bola va gudaklarda nafaqat yo'talni mexanizmi, balki uning kelib chiqish sabablari ham boshqachadir. Ikkinchidan, voyaga etgan bemorlarga beriladigan yo'talga qarshi preparatlarni yosh bola va go'daklarga berish, ayniqsa kombinatsiyali preparatlarni berish, bemorni yo'talga qarshi davo berish o'rniga uni axvolini yomonlashtirishi mumkin.

Bunday xollarda yo'talga qarshi preparatlarni ratsional tanlash va davolash uchun quyidagi 2 ta asosiy xolatga e'tibor berish kerak:

1. yo'talni kelib chiqishi va yo'tal refleksini mexanizmiga,
2. yo'talga qarshi berilayotgan preparatlarni ta'sir mexanizmiga.

Yo'tal-simptomi

Yo'tal-reflektor nafas chiqarish bo'lib, nafas yo'liga shilliq, balg'am yoki biror-bir yot moddalar tushganda yuzaga chiquvchi organizmning himoya reaksiyasidir.

Qanday xollarda yo'talni xavfli simptomlari bilan qayd qilinadi:

1. Kundan-kunga kuchayuvchi va bir xaftadan ortiq davom etadigan yo'tallar,
2. Uzoq davom etuvchi va yuqori xarorat qayd etiluvchi yo'tallar,
3. Uta yuqori xarorat (38^0 dan yuqori) bilan kechuvchi yo'tallar,
4. Xansirash va nafas olinganda ko'krakda og'riq bilan kechuvchi yo'tallar,
5. Aloxida ko'kimtir balg'am ajralishi bilan kechuvchi yo'tallar,
6. Qon aralash balg'am ajralishi bilan kechuvchi yo'tallar,
7. Nafas siqishi xuruji bilan kechuvchi yo'tallar,
8. Terlash, ovoz o'zgarishi, xolsizlanish, kuchli yo'tal xuruji bilan kechuvchi yo'tal.

YUqorida qayd etib o'tganimizdek, yo'talni asosiy vazifasi nafas yo'llaridagi sekretlarni chiqarish bilan erkin nafas olishni engillatish va shu yo'l bilan bronxlardan ajralib chiqayotgan sekretlarni mukotsiliar yo'l-xarakat orqali tartibga solishdir yoki mukotsiliar klirensni ishga solishdir.

Yo'tal paydo bo'lishini asosiy sabablari:

1. Yuqori nafas yo'llaridagi infeksiya-yallig'lanish jarayoni bo'lib, unda yuqori nafas yo'llariga virusli infeksiya tushishi, angina, faringit, tonsillit va laringitlar sababchi bo'ladi.
2. Nafas yo'lini pastki qismidagi infeksiya-yallig'lanish jarayonlari bo'lib, unda laringotraxeit, bronxit, pnevmoniyalar katta rol o'ynaydi.
3. Yuqori nafas yo'lini shilliq qavatidagi allergik yallig'lanishlar.
4. Bronxospazmlar.
5. Nafas yo'lini yopishqoq bronxlarning sekretlari bilan tusilishi, unga yot moddalarning tushib qolishi.
6. jpk parenximalarining shishi va boshqa faktorlar sababchi bo'ladi.

Demak, mukotsiliar klirensni buzilishiga bronxlar shilliq qavatini giperplaziyasi, bronx yo'llarini shishi, ajralayotgan shilliqlarni oshib ketishi, uni yopishqoqligini oshishi, surfaktantlarni paydo bo'lishini susayishi, bronxospazmni yuzaga chiqishi, bronxlar diskineziyasi (bronxlar diametri 25 % dan ortiq kamaysa) va b. sababchi bo'ladi.

Bunday xollarda qiyinlik bilan o'tuvchi kuchli yo'tal yuzaga chiqadi. Ba'zan yo'tal qayd qilish, og'riq sindromi bilan, uyqu buzilishi va bemor ahvolini yomonlashishi bilan o'tadi. Bunday simptomlar qayd etilgan bemorlarga balg'amni yopishqoqligini susaytiruvchi, uni bronxlar orqali xarakatini kuchaytiruvchi va bronxlardagi xilpillovchi epiteliy aktivligini oshiruvchi preparatlar beriladi. Bir so'z bilan aytganda xarakatsiz yo'talni xarakatli nam yo'tal xolatiga o'tkazish kerak bo'ladi. Bunda yo'tal refleksini susaytirish aloxida ahamiyatga egadir.

Ta'sir mexanizmiga qarab yo'talga qarshi preparatlarni guruxlari:

1. Oddiy yo'talga qarshi preparatlar (MNSga ta'sir etuvchi va periferik ta'sirga ega preparatlar).
2. Bilvosita yo'talga qarshi effektga ega preparatlar (bronxlarni kengaytiruvchilar, yallig'lanishga qarshi preparatlar, allergiya va shishlarga qarshi preparatlar).
3. Kombinatsiyali preparatlar (2 va undan ortiq komponentli preparatlar bronxolitin, stoptussin, solutan, geksapnevmin va b).

SHu gurux preparatlariga qisqacha izox beriladi va o'tkir bronxit kasalligini taxlil qilib chiqiladi.

Nazorat savollari.

1. Yuqori nafas yo'llari kasalliklarida balg'am ko'chiruvchi dorilarning ta'siri qanday
2. Yo'talga qarshi va antibakterial vositalardan oqilona foydalanish deganda nimani tushunasiz.
3. Immunomodulyator dori vositalarini tanlash va almashtirish yo'l-yo'riqlari qanday olib boriladi.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manba'lari

Asosiy:

1. Фармацевтическая опека В.П.Зупанец , В.А,Черных, В.А.Усенко.— Х.:»золотые страницы», 2002.— 264 с.
2. Farmatsevtik yordam fanidan ma'ruzalar matni 2006 yil.
3. Maxsumov M.N., Malikov M.M. Farmakologiya. T. Ibn Sino nash. 2006 y.
4. Azizova S.S. Farmakologiya. T. Ibn Sino 2002 g.
5. Харкевич Д.А Фармакология . М. Медицина 2008 г.

Qo'shimcha:

6. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 29 b.
7. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 47 b.
8. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
10. Клинические рекомендации и фармакологический справочник под ред. И.Н. Денисова, Ю.Л. Шевченко, Ф.Г. Назирова. М.2005 г.

Internet va Ziyonet saytlari

11. www.ziynet.uz
12. www.Lex.uz.
13. www.uzpharm-control.uz
14. www.doridarmon.uz
15. www.uzpharmsanoat.uz

5-MA'RUZA

MAVZU: TOMOQ OG'RIQLARIDA FARM YORDAM. YALLIGLANISHGA QARSHI DORI VOSITALARINING FARMATSEVTIK YORDAMDAGI O'RNI

Reja:

1. Tomoq og'riqlarida dori vositalardan oqilona foydalanish.
2. Antiseptik dori vositalarini tanlash va almashtirish yo'l-yo'riqlari.
3. NYaQV lardan retseptsiz foydalanish
4. NYaQV larning salbiy ta'siri

1. Tomoq og'riqlarida dori vositalardan oqilona foydalanish.

Tomoq og'riqlari o'tkir respirator virusli kasalliklarning simptomi hisoblanadi.

Sabablari:

- angina (bodomchasimon bezlarning o'tkir yallig'lanishi)
- tonsillit (bodomchasimon bezlarning surunkali yallig'lanishi)
- laringit-ovoz bug'ilishi, quruq yo'tal, tomoq qirilishi, quruqlik bilan xarakterlanadi,
- faringit-yutqun shilliq qavati yallig'lanishi, yutishda og'riq kuzatiladi, ayniqsa bu so'lakni yutganda kuchliroq bo'ladi.

Kuyidagi simptomlar yo'q bo'lsagina retseptsiz dorilar bilan kasalga o'z-o'zini davolashga ruxsat etiladi, aks holda bemor shifokorga yuboriladi:

- nafas olishni qiyinlashuvi,
- so'lakni yuta olmaslik,
- bodomchasimon bezlarning kattalashuvi, krash va yaralanish borligi,
- tomoqni keskin qizarganligi,
- bosib ko'rilganda limfa tugunlari og'riqliligi,
- haroratni 38-38,5⁰ dan yuqoriligi,
- tomoq og'rig'ini terida toshmalar, peshob rangi o'zgarishi, bosh og'rig'i, qorinda og'riq bilan birga kuzatilishi.

Tomoq og'rig'ini simptomatik davolashda qo'llaniladigan dorilar:

Aktiv ingredient	Farmakologik xarakteristikasi
Kuchsiz antiseptiklar	
Dekametoksin	Antiseptik. Antimikrob ta'siri keng spektrda, fungitsid, bakteritsid ta'sir ko'rsatadi, bakteriyalarni antibiotiklarga sezgirligini oshiradi.
Ambazon	Maxalliy ishlatiladigan antiseptik vosita
Atsetilaminonitropropoksibenzen	Dezinfeksiyalovchi va kuchsiz maxalliy anesteziyalovchi ta'sirga ega. Yo'tal va qusish refleksini tormozlaydi, homiladorlikda tavsiya etilmaydi.
Amilmetakrezol	Antiseptik. Grammusbat va grammanfiy mikroorganizm-larga nisbatan bakteritsid ta'sir etadi.
Xlorgeksidin	Sirtga ishlatiladigan antiseptik, grammusbat va grammanfiy mikroorganizmlarga, trixomonadalar, gonokokklarga nisbatan bakteritsid ta'sir etadi. Yod preparatlari bilan birga berish mumkin emas.
Mentol	Maxalliy qitiqllovchi vosita, shilliq qavatlariga tomizilganda qon tomirlarni reflektor qisqartiradi, shish va og'riqni bartaraf etadi. Kuchsiz antiseptik va maxalliy og'riqsizlantiruvchi ta'sirga ega. Burunga tomizilganda kichik bolalarda

nafasni reflektor tuxtatib quyishi mumkin!

Maxalliy anestetiklar

Diklonin Ta'siri tez (4-6 min.) boshlanadigan maxalliy anestetik. Farmakologik xossalari novokainga yaqin. 3 yoshdan oshgan bolalar va kattalarga 1 ledensidan xar 2 soatda sekin shimish tavsiya etiladi.

Efir moylari

Evkalipt moyi YAllig'lanishga qarshi, antiseptik ta'sirga ega. Kuchsiz sedativ ta'sirni namoyon qiladi.

Arpabodiyon moyi YAllig'lanishga qarshi, kuchsiz antiseptik ta'sirga ega.

Qalampir yalpiz moyi Asosiy ta'siri tarkibidagi mentol bilan bog'liq. Kuchsiz dezodirlovchi ta'sirga ega.

Aerozol preparatlar

Kameton (xlorobutanolgidrat, mentol, kamfora, evkalipt va vazelin moyi) antiseptik, maxalliy og'riqsizlantiruvchi, yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega.

Kamfomen (furatsillin, mentol, kamfora, evkalipt, kastor, zaytun moyi) yallig'lanishga qarshi va antimikrob ta'sir ko'rsatadi.

Ingalipt (sulfanilamid, sulfatiazol, evkaliptqalampir yalpiz moyi) antibakterial, antiseptik, yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega.

Stopangin (arpabodiyon, qalampir yalpiz, evkalipt moyi) antiseptik, yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega. 4–6 soat interval bilan ishlatiladi. CHayish uchun eritmasi ham chiqariladi.

Kollustan (mentol, xlorgeksidin, amilein) — antiseptik, kuchsiz yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega.

Ledensilar

Strepsils (amilmetakrezol + dixlorbenzil spirti) keng spektrdagi gammanfiy va grammusbat mikroorganizmlarga nisbatan antiseptik ta'sir etadi, og'riqni kamaytiradi. Preparat 4 variantda chiqariladi: arpabodiyon va qalampir yalpiz moyi bilan, askorbin kislota bilan, asal va limon bilan, evkalipt moyi va mentol bilan. Bolalar va kattalarga 1 ledensidan har 2–3 soatda, kuniga 8 martagacha shimish tavsiya etiladi. 1 ledensida 2,6 g qand bor. «Strepsils plyus» tarkibida lidokain bor.

Koldreks Lari Plyus (diklonin) — 4 xil ta'mga ega ledensilar mavjud (olcha, limon, apelsin, aralash ta'mli). Tomoq og'rig'ini tez ta'sir etadi. 1 ledensidan har 2 soat oralab ichish lozim. Bolalarga 3 yoshdan so'ng beriladi.

Shimish uchun tabletkalar

Faringosept (ambazon) — maxalliy ishlatiluvchi antiseptik vosita. Tabletkadan so'ng 3 soat ovqat va suyuqliklar qabul qilmaslik kerak.

Septeфрил (dekametoksin) — sublingval ishlatiladigan tabletkalar, gipersalivatsiya chaqiradi. Tabletkadan so'ng 1-2 soat ovqat va suyuqliklar qabul qilmaslik kerak.

Neo-Angin (mentol, arpabodiyon va qalampir yalpiz moyi) — antiseptik, kuchsiz yallig'lanishga qarshi, dezodorlovchi ta'sirga ega. 2-3 soat oralab qabul qilinadi. 6 yoshdan kata bolalarga tavsiya etiladi.

Dr.Tays Angi-sept (mentol, qalampir yalpiz moyi) — antiseptik, kuchsiz yallig'lanishga qarshi, dezodorlovchi xususiyatga ega.

Pastilkalar

Septolete (xlorid benzalkoniy mentol, evkalipt moyi, qalampir yalpiz moyi) — antiseptik, kuchsiz yallig'lanishga qarshi, dezodorlovchi xususiyatga ega. *Candida albicans* ga nisbatan fungitsid ta'sir etadi.

2. Antiseptik dori vositalarini tanlash va almashtirish yo'l-yo'riqlari.

Tomoq og'rig'ida farmatsevtik yordam tamoyillari

- tomoq og'riqlarida bemorga ko'proq suyuqlik ichish tavsiya etiladi,
- tomoqni chayish har 2-3 soatda amalga oshiriladi,
- o'tkir, qaynoq va muzday ovqat eyish, alkohol qabul qilish, chekish tavsiya etilmaydi,
- shimiluvchi tabletkalarni ist'emol qilgach 1-2 soat ovqat va suyuqlik qabul qilmaslik kerak,
- qandli diabeti borlarga ledensi va pastilikalarni tayinlash tavsiya etilmaydi,
- aerosol dorilarni xidlash mumkin emas,
- aerosollarni 6-8 yoshdan kata bolalarga, ular nafasni boshqarishni o'rganishgandan so'ng tayinlash lozim,
- ledense va pastilikalarni chaynash yoki yutib yuborish tavsiya etilmaydi,
- tashqi ko'rinishi konditer maxsulotlariga o'xshashligi tufayli bolalar katta miqdorda qabul qilib, zaxarlanishi mumkin, buning oldini olish maksadida ledense va pastilikalarni bolalar ko'rmaydigan joyda saqlash tavsiya etiladi.

2. YALLIGLANISHGA QARSHI DORI VOSITALARINING FARMATSEVTIK YORDAMDAGI O'RNI

YAllig'lanish jarayoni 3 xil fazadagi reaksiyalar bilan yuzaga chiqadi:

- ekssudatsiya
- infiltratsiya
- proliferatsiya.

Bu jarayonlarning xar birida og'riq bilan bog'liq reaksiya va xarorat kutarilishi qayd etiladi.

Umuman har qanday yallig'lanish jarayonida 5 ta klassik simptomlar qayd etiladi:

- qizarish (rubor)
- shish (tumor)
- isitma kutarilishi (color)
- og'riq (dolor)
- yallig'langan a'zo yoki xujayra faoliyatini buzilishi (functia laesa)

YAllig'lanish jarayonini qaerda, qaysi organdaligi, uni yallig'lanish darajasiga qarab davolash 2 xil usulda bo'ladi:

- jarroxlik yo'li bilan (appenditsit, paraproktit)
- nosteroid yallig'lanishga qarshi preparatlar bilan davolash.

Biz YAQNPlarning farmakodinamikasi va ta'sir mexanizmi, farmakokinetikasi ustida tuxtab o'tamiz.

Ta'sir mexanizmi: NYAQVlar ta'siri SOG yoki prostoglandin-sintetazani ingibirlanishi orqali amalga oshadi. Tanada SOG-1 va SOG-2 mavjud bo'lib, birinchisi OIS shilliq qavatini ximoyalash, trombositlar faoliyatini va buyrakda qon aylanishini boshqarishda, 2-si esa yallig'lanishdagi prostoglandinlar sintezida qatnashadi. SHu sababli SOG-1 ni ingibirlanishi nojo'ya ta'sirlarni, SOG-2 ni ingibirlanishi esa yallig'lanishga qarshi ta'sirni yuzaga chiqaradi.

YAQNPlar yallig'lanishning ekssudatsiya fazasini susaytiradi. YAQNPlarni lizosom membranalarini stabilizatsiyalashi to'qimalar ichiga lizosoma fermentlarini kirishiga tusqinlik qiladi va to'qimalarni turli xil buzilishlardan saqlab qoladi. YAQNPlar oksidlovchi fosforillanish jarayoniga ta'sir etib, makroergik moddalarni, xususan ATFni ishlab chiqilishini tormozlaydi.

SHuningdek, YAQNPlar yallig'lanishni yuzaga chiqaruvchi mediatorlarni inaktivatsiya qilib, yallig'lanishni kuchayishini oldini oladi. YAllig'lanish mediatorlariga gistamin, prostoglandin, bradikinin, limfokinin va b. kiradi.

YAQNPlarning yallig'lanishga qarshi ta'sirida ularning kininlar metabolizmi va biologik effektlariga bo'lgan ta'sirlari eng asosiy rol o'ynaydi. M-n, bradikininlar, kallekreinlar o'tkir yallig'lanish bilan bog'liq reaksiyalarni yuzaga chiqishida o'ziga xos rol o'ynaydi.

YAQNPlar yallig'lanish maydonidagi mikrokapillyarlarni qon bilan ta'minlanishini normaga olib keladi va shu to'qimalarni eksudatlar bilan tuyinishiga, kapillyarlarni chuzilishiga tusqinlik qiladi.

SHu bilan birga kininlar yallig'lanish bilan bog'liq turli omillarni, qonni shaklli elementlarini chiqishini susaytiradi va yallig'lanishni boshqa fazalarini rivojlanishiga yo'l qo'ymaydi. M-n, infiltratsiya yoki proliferatsiya fazalarini.

YAQNPlar og'riq markazlariga ham kamroq bo'lsada ta'sir etadi. SHuning uchun ham valtaren, indometatsin, ibuprofenlarni yallig'langan to'qimalarga nisbatan og'riq qoldiruvchi ta'siri bo'yicha narkotik analgetiklardan qolishmaydi.

YAQNPlarni tana xaroratiga ta'siri ham prostoglandinlar orqali ruy beradi. Prostoglandin E1 gipotalamus xujayralarida s-AMFni miqdorini kupaytirib, to'qimalar ichiga Sa ionlarini kirishini kuchaytiradi. Natijada issiqlikka bog'liq moddalar ko'payadi, issiqlikni chiqib ketishi esa kamayadi, chunki periferiyadagi tomirlar torayadi va yurak-qon tomir markazi qo'zg'aladi.

YAQNPlar prostoglandin E1 sintezini vaqtincha tuxtatadi, natijada s-AMF miqdori kamayadi, Sa ionlarini to'qimalar ichiga kirishi kamayadi.

Prostoglandinlar normal xaroratga ta'sir etmaydi. Ba'zi YAQNPlar, m-n, aspirin antiagregatsion ta'sirga ega bo'lib, qon aylanishini normal xolatga keltiradi va yallig'lanishni bartaraf etadi.

Xuddi shunga uxshash YAQNPlarni ba'zilar desensibilizatsiya chaqiradi. Ularning kusiz bo'lsada immunodepressiv ta'sirga egaligi aniqlangan.

YAllig'lanishga qarshi ta'siri bo'yicha preparatlar quyidagicha joylashadi:

indometatsin-valtaren-piroksikam-naproksen-butadion-ibuprofen-analgin-amidopirin-aspirin.

Og'riq qoldiruvchi kuchi bo'yicha:

valtaren-indometatsin-analgin-amidopirin-piroksikam-naproksen-ibuprofen-butadion-aspirin-

Tana xaroratiga ta'siri bo'yicha esa:

valtaren-piroksikam-analgin-indometatsin-naproksen-amidopirin-ibuprofen-butadion-aspirin.

Tayinlanishi: revmatizm va revmatik artritlarda, bo'g'im, mushak va umurtqa pog'onasi revmatik bo'lmagan kasalliklari, tayanch-xarakat tizimi travmatik shikastlanishlari, yallig'lanish tabiatiga ega nevrologik kasalliklar (nevralgiyalar, radikulonevritlar), turli xil og'riqli sindromlar-bosh, tish, menstrual og'riqlar, isitma xolatlar, trombozlarni oldini olish maqsadida.

Man etiladigan holatlar: OIS eroziv-yarali kasalliklari, bakterial artritlar, xomiladorlik va emiziklik davri, 2 yoshgacha bo'lgan bolalarga, leykopeniyalar, jigar, yurak, buyrakning og'ir shikastlanishlari.

Nojo'ya ta'sirlari:

1. OIS shilliq qavatini qitqlanishi prostoglandinlarning OISni ximoyalovchi ta'siri susayishi bilan bog'liq. NYAQV ta'sirida me'da shirasi kislotaligi ortadi, xujayralar membranasi o'tkazuvchanligi ortadi, glikoproteidlar va bikarbonatlar sintezi kamayadi. Natijada dispeptik xolatlar, gastrit, yara xosil bo'lishi, perforatsiya va qon ketishlar kuzatiladi. Bu ta'sirni oldini olish uchun dorilar dozadini kamaytirish, parenteral va rektal yuborish usullariga o'tish, ichakda eriydigan dori shakllarini qabul qilish, SOG-2 ni tanlab ingibiraydigan preparatlar (Meloksikam, Nabumeton)ni ishlatish, parallel ravishda gastroprotektorlar berish lozim.

2. NYAQV qon yaratish tizimiga ta'sir etib, kamqonlik, trombositopeniya va leykopeniya chaqiradi. SHu sababli qon ketishga moyilligi bor bemorlarga nosteroidlarni berishda ehtiyot bo'lish lozim.

3. Allergik reaksiyalar-terida toshmalar, qichish, rinit, kon'yunktivit, Kvinke shishi ko'rinishida o'tishi mumkin, xattoki, bronxial astma rivojlanishigacha olib kelishi mumkin.

4. MNS tomonidan kuzatiladigan reaksiyalar: bosh og'rig'i, bosh aylanishi, uyquchanlik, depressiv xolatlar, tirishishlar va b. Bu nojo'ya ta'sirlar ko'proq Indometatsinga xos.

5. Buyrak faoliyati buzilishi-prostoglandinlar sintezi tormozlanishi va bevosita preparatlarni toksik ta'siri bilan bog'liq. Prostoglandinlarni kamayishi buyrak tomirlari torayishi, qon aylanishini yomonlashishi, suv va tuzlarni ushlanib qolishiga sabab bo'ladi. Buyraklarning shikastlanishi xattoki o'tkir buyrak etishmovchiligiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari buyrakda tosh xosil

bo‘lish xolatlari xam qayd etiladi. Nefrotoksik ta’sir 65 yoshdan kattalarda, buyrak patologiyasi bor odamlarda, diuretiklar birga qabul qilinganda, jigar faoliyati buzilgan odamlarda yanada ko‘proq namoyon bo‘ladi.

6. Mutagen va teratogen ta’sir-Aspirin va Butadion xromosoma abberatsiyalari chaqirishi, Amidopirin kanserogen ta’sir etishi aniqlangan.

7. Suv-tuz almashinuvini buzilishi.

8. Ko‘zda bo‘ladigan o‘zgarishlar: shox pardani xiralashishi, ko‘ruv maydoni o‘zgarishi, ko‘ruv nervi yallig‘lanishi, retinopatiyalar.

9. Jigar shikastlanishi-turli xil gepatitlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

10. Xomiladorlik davrining uzayishi va tug‘ruq faoliyati susayishi- miometriyni stimullovchi prostoglandinlar E_2 va F_2 sintezining tormozlanishi bilan bog‘liq.

Zamonaviy YAQNPlarni asosini karbon va enolin kislota unumlari tashkil etadi.

I. Karbon kislota unumlariga:

1. Salitsil kislota unumlari (atsetilsalitsil kislota, diflunizol, Bekartan va tosibenlar).
2. Sirka kislota unumlari (indometatsin, Sulindak, tolmetil, Ibufenak, Fenklorak, Sofenak, Pranoprofen va b).
3. Propion kislota unumlari (Ibuprofen, Naproksen, Ketoprofen, Pirprofen, Surgam, Fenoprofen va b).
4. Antranil kislota unumlari (flufenam, mefenam kislota, Valtaren, Aktal, Tolfenam kislota va b.)
5. Nikotin kislota unumlari (niflum kislota, Kloniksin va b).

II. Enolin kislota unumlariga

1. Pirazon unumlari (fenilbutazon, Oksifenilbutazon, Amidopirin, Butadion, Tomanol, Bumadizon va b).
2. Oksikam unumlari (Piroksikam, Izoksikam va Sudoksikamlar).

YAllig‘lanish bilan bog‘liq kasalliklarda qayd etiluvchi klinik simptomlarga-nevrit, pulpit, meningit, miozitet, artrit, plevrit va miokardit va b. kiradi.

NYAQVlarni retsepsiz ishlatish:

5-jadval. NYAQVlarni boshqa preparatlar bilan qo‘llanilishi

Preparat	NYAQV	TA’siri	Tavsiyalar
<i>Farmakokinetik ta’sirlashuv</i>			
Bilvosita antikoagulyantlar	<u>Fenilbutazon</u> Oksifenbutazon	Jigarda metabolizmni kuchayishi, antikoagulyant effektni kuchayishi	NYAQVlarni ishlatishdan iloji boricha qochish, yoki qattiq nazorat ostida qabul qilish
	<u>Aspirin,</u> boshqa preparatlar	Oqsillar bilan bog‘idan ajratish, antikoagulyant effektni kuchayishi	NYAQVlarni ishlatishdan iloji boricha qochish, yoki qattiq nazorat ostida qabul qilish
Peroral gipoglikemik vositalar (sulfonilmochevina)	<u>Fenilbutazon</u> Oksifenbutazon	Jigarda metabolizmni tormozlanishi gipoglikemik effektni	NYAQVlarni ishlatishdan iloji boricha qochish, voki qondagi

unumlari)		kuchayishi	qand miqdorini nazorat qilish
	<u>Aspirin</u> , boshqa preparatlar	Oqsillar bilan bogʻidan ajratish, gipoglikemik effektini kuchayishi	
Digoksin	Barchasi	Buyrak faoliyati buzilgan odamlarda Digoksin ekskretsiyasini tormozlanishi va zaxarlilik xususiyatlarini namoyon boʻlishi.	NYAQVlarni ishlatmaslik, kreatinin klirensi va qondagi digoksin miqdorini nazorat qilish
Antibiotikilar–aminoglikozidlar	Barchasi	Buyrak ekskretsiyasini tormozlanishi va qondagi miqdorini ortishi	Qondagi aminoglikozidlar miqdorini nazorat qilish
Metotreksat	Barchasi	Metotreksat buyrak ekskretsiyasini tormozlanishi va qondagi miqdorini ortishi, zaxarlilik xususiyatlarini namoyon boʻlishi	Birga ishlatish mumkin emas.
Litiy preparatlari	Barchasi	Buyrak ekskretsiyasini tormozlanishi va qondagi miqdorini ortishi, zaxarlilik xususiyatlarini namoyon boʻlishi	Qondagi litiy miqdorini qattiq nazorat qilish.
Fenitoin	<u>Fenilbutazon</u> Oksifenbutazon	Metabolizmni tormozlanishi va qondagi miqdorini ortishi, zaxarlilik xususiyatlarini namoyon boʻlishi	Qondagi litiy miqdorini qattiq nazorat qilish.
<i>Farmakodinamik ta'sirlashuv</i>			
Antigipertenziv preparatlar Beta-blokatorlar Diuretiklar APF ingibitorlari	Koʻproq – <u>indometatsin</u> , <u>fenilbutazon</u> Kamroq- <u>sulindak</u>	Buyraklarda prostoglandinlar sintezi tormozlanishi xisobiga gipotenziv ta'sirini sustlashuvi	Iloji boricha NYAQVlardan qochish, agar zarur boʻlsa sulindak ishlatish. ABni naorat qilish. Antterapiyani kuchaytirish talab etiladi.

Diuretiklar	Ko'proq – <u>indometatsin</u> , <u>fenilbutazon</u> Kamroq- <u>sulindak</u>	Diuretik va natriyuretik ta'sirni sustlashuvi, yurak etishmovchiligida bemor axvolini yomonlashuvi	YUEda NYAQVlarni ishlatmaslik.
Bilvosita antikoagulyantlar	Barchasi	OISdan qon ketish xavfini ortishi.	NYAQVlarni ishlatmaslik
Ko'p xavf tug'diradigan kombinatsiyalar			
Diuretiklar	Barchasi– (kamroq <u>sulindak</u>)	Buyrak etishmovchiligi xavfini ortishi	Mumkin emas
Triamteren	<u>Indometatsin</u>	Buyrak etishmovchiligi xavfini ortishi	Mumkin emas
Kaliy saqllovchi preparatlar	Barchasi	Giperkaliemiya xavfi yuqori	Mumkin emas.

Bunga qarama-qarshi xolda boshqa dorilar NYAQVlarni samarasini kamaytirishi mumkin:

-*alyuminiy saqllovchi antatsidlar (almagel, maaoloks va b.), gipoxolesterinemik vositalar (xolestiramin)* OISda nosteroidlarni so'rilishini susaytiradi. SHu sababli antatsidlar berilganda nosteroidlar dozasini oshirish talab etiladi, xolestiramin va nosteroidlarni qabul qilish oralig'i esa 4 soatdan kam bo'lmasligi kerak;

– *natriy bikarbonat* OISda NYAQVlar so'rilishini kuchaytiradi.
– *glyukokortikoidlar va boshqa yallig'lanishga qarshi vositalar* (oltin preparatlari, aminoxinolinlar) nosteroidlarni yallig'lanishga qarshi ta'sirini kuchaytiradi.
– *analgetik va sedativ vositalar* NYAQVlarni analgetik ta'sirini oshiradi.

Demak, nosteroid vositalarni bemorning axvoliga, undagi patologik xolatning kechimiga qarab tayinlash, o'rinli ishlatish, ular tufayli kelib chiqayotgan nojo'ya xolatlarni oldini olish provizorlar oldida turgan muxim masala. CHunki bu gurux preparatlarni axolii o'rtasida bilib-bilmay ishlatish xolatlari ko'p uchrab turadi. Bular orasida **fenatsetin, fenilbutazon va aminofenazon saqllovchi kombinirlangan preparatlar** nojo'ya ta'sirlari ko'pligi sababli ko'p mamlakatlarda amaliyotdan olib tashlangan.

Nazorat savollari.

1. Yosh bolalarda tomoq og'riqlarining sabablari nima?
2. Tomoq og'riqlarida retseptsiz dorilarning ta'siri qanday
3. Antiseptik vositalardan oqilona foydalanish deganda nimani tushunasiz.
4. Nosteroid dorilardan retseptsiz foydalanish
5. NYaQVvositalardan oqilona foydalanish deganda nimani tushunasiz.
6. NYaQVvositalarni salbiy ta'siri.

Asosiy va qo'simcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manba'lari

Asosiy:

1. Фармацевтическая опека В.П.Зупанец , В.А.Черных, В.А.Усенко.-Х.:»золотые страницы», 2002.— 264 с.
2. Farmatsevtik yordam fanidan ma’ruzalar matni 2006 yil.
3. Maxsumov M.N., Malikov M.M. Farmakologiya. T. Ibn Sino nash. 2006 y.
4. Azizova S.S. Farmakologiya. T. Ibn Sino 2002 g.
5. Харкевич Д.А Фармакология . М. Медицина 2008 г.

Qo‘shimcha:

6. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 29 b.
7. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 47 b.
8. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 485 b.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
10. Клинические рекомендации и фармакологический справочник под ред. И.Н. Денисова, Ю.Л. Шевченко, Ф.Г. Назирова. М.2005 г.

Internet va Ziyonet saytlari

11. www.ziyonet.uz
12. www.Lex.uz.
13. www.uzpharm-control.uz
14. www.doridarmon.uz
15. www.uzpharmsanoat.uz

6-MA'RUZA

MAVZU: NERV TIZIMI FAOLIYATI BUZILISHIDA FARMATSEV-TIK YORDAM TAMOIYILLARI (UYQUSIZLIK HOLAT-LARI, NEVROZLAR, STRESS HOLATLARI, DEPRESSIYALAR). TAYANCH- XARAKAT APPARATI PATOLOGIYASIDA (BO'G'IM VA MUSHAK OG'RIQLARI, OSTEOARTROZ, OTEOPOROZ) F.YO TAMOIYILLARI.

Reja:

1. Turli xil sababdan kelib chiqadigan bosh og'riqlarida retseptsiz beriladigan dori vositalarini bilish va amalda tatbiq etish.
2. Xar xil stres xolatlari va depressiyalarni bartaraf etuvchi dorilarni tavsiya qilishni bilish.
3. Yallig'lanish oqibatida kelib chiqadigan bo'g'im va mushak og'riqlarida qo'llaniladigan retseptsiz beriladigan dorilarni tayinlash.

1. Turli xil sababdan kelib chiqadigan bosh og'riqlarida retseptsiz beriladigan dori vositalarini bilish va amalda tatbiq etish.

Bosh og'rig'ining siptomatik davosi.

Biz kupincha bir masalaning axamiyatini bildirish uchun «bu mening bosh ogrigim» iborasini ishlatamiz. Insonning boshka bir eri ogrishi vujudining boshka bir qismi ogrishi mumkinligiga karamay, shu «bosh ogrigi » muxim, kechiktiribb unutib bulmaydigan ishning sinonimiga aylangan.

Bosh ogrigi be'morning shifokorga eng kup murojaat kiladigan sababidir. U xafagonlikda, depressiyalarda, gipertoniya kasalligida, arterial gipotoniya, buyrak va endokrin kasalliklarida, asab tizimi, LOR-organlari va kuz kasalliklarida, jami bulib 45dan ziyod kasalliklarda asosiy, ba'zan yagona shikoyat bulishi mumkin. Sunggi yillarda esa surunkali bosh ogriklari dolzarb masala bulib kolmokda. Epidemiologik tadqiqotlarga kura Evropada ayollarning 78%i, erkaklarning 64%i eng kamida yilda bir marta bosh ogrigini kechirishadi, 36% ayol va 19% erkaklarning esa surunkaliboshi ogriydi. Bu aziyatga fakatgina kattalar emas, balki yosh bolalar xam moildir – 7 yoshgacha 40% bola bir marta bulsa xam, 15 yoshga tulguncha 75% bolalarni bosh ogrigi bezovta kiladi. Ammo kup be'morlar shifokorga mkrojaat kilmasdan uzini-uzi davolash bilan shugullangani uchun bu rakamlar vaziyatning asl xolatini kursata olmaydi. 90%dan kam bulmagan axoli qismi xar zamonda bosh ogrigidan aziyat chekadi, bu axolining yarim retseptsiz sotiladigan ogrik koldiruvchi dorilardan oshirish darajada, kullanish shartlariga rioya kilmasdan foydalanadi, va bu dorilarning nojuya ta'sirlarining kelib chikishiga sabab buladi..

Bosh og'rig'i

Bosh og'rig'i – qoshdan yuqori, bo'yin – ensa sohalarigacha buladigan ogriqli yoki yokimsiz hissiyotdir.

Bosh ogrigi terida, teriosti yog katlamlarida, boshning yumshok tukimalaridagi kon tomirlarida, bosh kutisining suyak usti pardasida, bosh miya qobiklarida, bosh qutisi ichidagi qon tomirlaridab vena va vena sinuzlarida joylashgan og'riq retseptorlarining zardalanishidan kelib chikadi. Bosh kuti suyaklari va bosh miya tukimalarida ogrik retseptorlari yuk. Og'rik retseptorlari bor a'zolarinning cho'zilishi va ezilishi bosh og'rig'ini keltirib chiqaradi. Sabablarga va xos ko'rinishlariga ko'ra bosh og'rig'ining turli patogenetik tiplari mavjud. Bosh og'rig'ining patogenetik tipini aniqlash dori darmonli davolashda ahamiyatlidir.

Bosh og'rig'ining patogenetik tiplari

Bosh ogrigining kon tomirli tipi – ogrik sikuvchi bosimli bulib kungil aynashi, kuz oldini ng korongulashishi , kuz tinishi bilan davom etadi; ba'zan ogrik sanchikli, bosh bosimi ortishi , eziltsh xissi buladi. Tomirli ogrik yotganda, boshni egib ishlaganda zurayadi. Bu tip bosh ogrigi bosh miya kon tomirlarining tonusi buzilganda paydo buladi.

Mushakli zurikish bosh ogrigi- simpatik nerv sistemasining tonusi oshishi (xafakonlik, kuchli asab buzilishi, yukumli zaxarli kasalliklarda, garmonal buzilishlarda, gipertoniya kasalligi), bir soxadagi patologik sanchiklar (kuz, kulok, burun bushligi kasalliklari, buyin ostexondrosi) natijasida kaelib chikadigan bosh yumshok tukimalarining chuzilishi va ezilishidan kelib chikadi.

Boshning «xalkasimon» tortilib ogrishi, shovkinni, yoruglikni kutaraolmaslik asabiylilik bilan davom etadi.

Likvorodinamik tipli bosh ogrgi- orka miya suyukligi sekratsiyasining, okuvchanligining buzilishi natijasida kelib chikadi va bosh kutisining bosimini oshishiga (usimtalari miya obsessi jaroxat natijasida miyaning yalliglanishi kon aylanishining buzilishi natijasida miyaning shishishi) yoki uning pasayishiga (yalliglanish jaryonida yoki miya kobik jaroxati natijasida orka miya suyuligining ishlab chikarishining pasayishi) sabab buladi. Bu tip bosh ogrgining xususiyatlari: mijiglanib ogrishi, «ichkaridan tashkariga» bosim xissi, kuchanganda, yutalganda ogrikning kuchayishi, bosh xolatining uzgarishi ogrikning kuchayishidir. Bunda uchokli nevrologik simptomlar meningial sindromlar shuvirning «ongning» buzilishi xam kuzatilishi xam mumkin.

Nevrogogik tipdagi bosh ogriklar- patologik ogrik impulslari uchogi markaziy strukturalarida joylashgan. Bunda ogriklar xurujsimon, paroksizmal bulib zardalanganda ogrik xurujlar i yuzaga chikadigan, kushni soxalarga tarkaladigan trigger (boshlangich) soxalari buladi. Bumorlar bu ogriknlarni «uk otgandek», «tok urgandek», «chakmok urgandek» deb tasvirlashadi.

Golyusinator bosh ogriknlari (psixalgiya) - xar kanday yoshda kuzatiladi. Bu voxada patologik uchok markaziy sistema strukturasining ogrik retseptorlarida, ogrikni psixo-emotsional kabul kilish markaziy strukturalarida xosil buladi. Bemorlarda ogrikning anik fizik tasviri yuk bulib (xurujli sikuvchan), u tasvir metaforik xarakteri (masalan «ilon kemirgandek» va boshkalar). Psixogen bosh ogrigi ikki taraflamadir, xar kunlik, bir necha soat davom etuvchi, psixoemotsional zurikish natijasida paydo buladi (buni bemorlar rad etsa xam). Psixogen bosh ogriklik bemorlarning klinik tekshiruvlarida biron bir patologik uzgarish bulmaydi. Bir xil patogen bosh ogriklar xar xastaliklarda kuzatilishi mumkin va aksincha bir xil kasalliklarda xar xil bosh tipdagi bosh ogriklar uchrashi mumkin. Bosh ogrigi turli xil, xatto soglikga xayot uchun xavfli kasalliklarda uchrashi mumkinligini xisobga olib bosh ogriknlarni keltirib chikargan sabablarni va xavfli simptomlarning bor yukligini aniklash kerak.

Bosh ogrigining kup uchraydigan sabalari

- Emotsional zurikish, stress
- YUkumli kasalliklar ayniksa intoksikatsiya beradiganlari (gripp, ovqatdan zaxarlanishsh va boshkalar)
- Burun boshligining yalliglanishi (sinusid)
- Kuz xastaliklari- gloukoma *lisopiyaning* Yuqori darajalari
- Gipertonik kriz
- Bosh miya kasalliklari:
 - bosh miya usimtalari;
 - miya kobigining bosimini ortishi
 - yalliglanish (meningit, ensifalit araxnoidit);
 - bosh miya kon aylanishining buzilishi
- Sezgi nervlarning kasalliklari (nevroalgiyalar kupincha uch uch bashokli nerv)
- Garmonal buzilishlar (mentruatsiya oldi sindromi gipoglikomiya)
- Temir moddasining etishmovchiligi anemiyasi
- Migren, miya arteriyalari tonusining buzilishi natijachsida
- Psixogen bosh ogriknlari
- Bosimli bosh ogriklar (anik sababi yuk, bosh miya muskullari zurikishiga olib keladigan xolatlar mavjud
- Dorilarni notugri kullash

Afsuski bosh ogrgidan fakat kattalar emas balki yosh bolalar xam aziyat chekadilar. Ularning shikoyati turli xil bulgani sababli diagnostika kilish va da'volash kiyindir. Bolalar kurishining buzilishiga, kungil aynashi birdan paydo bulib utib ketadigan korin ogriknlariga, ammo kamdan kam bosh ogrigiga shikoyat kilishlari ota onalarini xam, shifokorlarni xam diagnos kuyishda zurlantiradi.

Bolalarda, barcha bosh ogriqi kurinishlari ichida kupincha ikki turi: migren va zurikish bosh ogriklari uchray turadi. Migrenda bosh ogriqi ikki soatdan , ikki kungacha davom etadi. Ogriq boshning bir tarafida xurujli, juda kuchli bulib bolani uzini normal tutishidan, yugurishi, sakrashi, kuvnashdan maxrum kiladi. Ba'zan kungil aynash kayd kilish korin ogriqi, yoruglikni , xidlarni kutarolmaslikka shikoyat kiladi. SHuningdek, bolalar kurishining buzilishi sababsiz kurkuv, ba'zan lyok kullarda sezishning buziltshiga shikoyat kiladilar.

Zurikish bosh ogriklari epizodik bulib, yarim soatdan bir xaftagacha davom etadi.

Bosh ogriqi ikki taraflama doimiy, ammo bolaning xarakatchanligiga ta'sir kilmaydi. Migrendagi kabi kungil aynash va boshkalar uchramaydi.

Maktab yoshidagi bolalarning bosh ogriqi asosiy sabablari

- Emotsional zurikish, stress
- Kiska, oz yoki kup uxlash
- Televizorni uzak kurish yoki kompyuterda uzak uynash
- Oilaviy stresslar
- Maktabdagi omadsizlik va stresslar (nazorat ishlaridan kurkish yoki yomon baxo olish va boshkalar)
- Ob-xavoning birdan uzgarishi
- Umidsizlanish, orzu va istaklarning ushalmasligi (ayniqsa kizlarda)
- Sport bilan intensiv shugullanish
- Uz vaktida ovqatlanmaslik (tushlik kilmaslik)
- Ba'zi ozik-ovqatlarni (syr, shokolad, sut va boshk.) kutarolmaslik.

Turli yoki gruppalari uchun ma'lum tip bosh ogriklari xarakterligini ta'kidlab utib, medikamentli va medikamentsiz davolanishning yullari xam turli ekanligini xisobga olamiz.

Turli yoki gruppalarida bosh ogriqlarining asosiy sabablari

Bolalar

- Turli yukumli kasalliklar (6 oygacha bulgan bolalar bosh ogriqi poydo bulishida meningit sabab bula oladi)
- Psixik buzilishlar (ruxiy)
- Migren
- Bosh-miya jaroxati

O'rta yoshdagilar

- Migren
- Ruxiy xastaliklar
- Arteril bosimning buzilishi (kon bosimining kutarilishi, tushushi)
- Umurtka pogonasining umurtka kismi kasalliklari
- Subaraxnoidal kon kuyilishi.
- Maxsus bulmagan bosh ogriklar (sinusit, uchboshokli nerv nevrolgiyasi, tish kariesi, chekish, aroqxurlik va boshkalar)
- Dori-darmon kabul kilinishi yoki man etilishi.

Keksa yoshdagilar

- Buyin kismi osteoxondrozi
- Bosh miya usimtalari
- Nevralgiyalar
- Glaukoma (kuz ichi bosimining ortishi)
- Subdural gemotoma
- Dori-darmon kabul kilish yoki man kilinishi

Dori-darmonlarning kabul kilinishi xam bosh ogriqiga sabab bulishi mumkinligini ta'kidlab utish kerak. Tugri diagnoz kuyish uchun kasallik tarixini sinchiklab urganish lozim. Bu tur bosh ogriqi profilaktikasi uchun dori larni tugri tanlash yoki man kilinayotganda «rikoshet sindromi»ni xisobga olib asta-sekin man kilish darkor (dori birdan man etilganda xolatning yomonlashishi).

Bosh ogirigini kuprok keltirib chikaradigan dori-darmonlar

- Sporinya alkaloidi (rikshet sindromi)
- Ogrik koldiruvchi va steroidsiz yalliglanishga karshi vositalar (ayniksa aspirin, indometotsin, kofein) – rekoshet sindromi
- Mikrobgga karshi vositalar
- N₂ – blokatorlari (ranitdin, simetidin)
- Nitratlar
- Gipotenziv vositalar (kalsiya antagonistlari, metildofa, rezerpin)
- Dipiridamol
- MAO ingibatorlari
- Nitrazepam
- Peroral kontratseptivlar
- Simptomimetiklar (rinitni davolashda kulaniladigan kon tukimalarni kiskartiruchi preparatlar)
- Teofillin

Bosh ogirigini chakiruvchi faktorlar

- Emotsional zurikish, stress
- Kayfiyatning birdan uzgarishi (xayajon, kurkuv)
- YUksak fizik-jismoniy charchash
- Xavoiz, issik, tutunli joyda kolish
- Migrenda – turli ozukalar (yongoklar, shokolad, сыр, dudlamalar, kofein va alkogol ichimliklar)

Bosh ogirigidagi «xavfli» simptomlar

- Bosh ogirigining bosh jaroxati bilan boglikligi (ayniksa xushdan ketish kuzatilgan bulsa)
- Bosh ogirigining birdan paydo bulishi va odatdagidan kuchlirok ogirishi
- Bosh ogirigi 2-3 kun davom etib kuchaysa
- Bosh ogirigi yuksak sistemali xastalikda paydo bulsa
- Bosh ogirigi buyin xarakatining kamayishi bilan kelsa
- Bosh ogrik bosimli, kungil aynash, kuz oldi xiralashishi, tinishi bilan davom etsa.
- Bosh ogirigining shovkinga, yoruglikka tokatsizlik bilan, asabiylik bilan davom etsa
- Ogrik gijimlovchi, «ichkaridan tashkariga» bosim xissi, kuchanganda, yutalganda, bosh xolati uzgarganda kuchaysa
- Bosh ogrigiga yurak soxasida ogrik kushilsa
- Ogrik kuz kiskarish, kurishning pasayishi bilan birga kelsa
- Bosh ogriklari sanchikli kurinishda bulsa
- Ogrik oyok-kulda xislarning yukolishi bilan davom etsa
- Bosh ogrik dori-darmon kabulidan yoki man etilgandan keyin paydo bulsa

Tez tashxis va da'vo talab kiluvchi xolatlar

- Surunkali bosh ogirigining birdan xuruji va xarakteri uzgardi yoki kuchaydi
- Bosh ogrigiga birdan nevrologik simptomlar kushildi (gapirish kiyinlashdi, xarakat susaydi va boshkalar) yoki shuun (ong) pasaydi.
- Be'morni baxolashishda – bu eng kuchli bosh ogrik, xaayoti davomida kechirgan (spontan subaraxnoidal kon kuyilishiga uxshash)

Dorixonaga kirgan xaridorda shu «xavfli» simptomlardan biri kuzatilsa bosh ogirigini koldiruvchi retseptsiz vositalardan birin kabul kilishi mumkin.

Bosh ogriklar tez-tez kaytalasa, dori-darmon kabul kilishdan oldin shifokor kuruvidan utish, anik tashxis kuyilishi uchun tulik tekshiruvdan utish kerak, chunki bu bosh ogrik lar tagida jiddiy xastaliklar etishi mumkin. Bemorga tugri tashxis kuymasdan, tugri davolash mumkin emas. Bosh ogirigi masalasi buyicha eng yaxshi mutaxassislar – shifokor-nevropatologlardir.

Bosh ogriqli bemorlarni simptomatik da'volash yunalishlari

1. Dori-darmon kullash-analgetik – antipiretiklar, migrenni davolash vositalari
2. Psixoterapiya, massaj, refleksoterapiyani uz ichiga olgan medikamentsiz da'volash yullari.

Bosh ogrigida kulllaniladigan dori-darmonlar va ularni tugri kullash

Bosh ogrigini da'volash uchun farm.sanoat analgetik-antipiretik gruppalariga oid, shuningdek tarkibida kodein yoki/va kofein bor kompleksli juda kup retseptsiz beriladigan vositalarni taklif kiladi.

Analgetik-antipiretiklar (atsetilsaetsil kislotasi, paratsetamol, metamizol) ogrik koldiruvchi xususiyatdan tashkari, yalliglanishni kamaytiradi va shu bilan birga ogrikn yanada kamaytiradi.

Kodein markaziy ta'sirli kuchli analgetikdir. Uni analgetik-antiiretiklar bilan birga berilganda farmokologik potentsiali kuchayib, ogrik koldiruvchi effekti ortadi.

Kofein bosh miyada xayajonlanish jarayonini yurgizadi, musbat reflekslarni kuchaytiradi, bosh miya kon tomirlari tonusini normallashtiradi. Kofein uzi bilan birga kabul kilinayotgan preparatlarning gematoensefal tusikdan utuvchanligini oshiradi degan fikr xam bor.

Analgetik-antipiretiklardan tashkari bosh ogrigini koldirish uchun sporynya alkaloidy bor – digidroergotamin xam ishlatiladi. U sikilgan kon tomirlarini kengaytirib, bosh miya kon aylanishini yaxshilaydi va sedativ ta'sir utkazadi.

Sunggi yillarda migrenni davolashda bosh miyadagi serotanin retseptorlariga ta'sir kursatadigan vositalar – sumatriptan guruxiga oid preparatlar xam kullanilmokda.

Sumatriptan 5NT1 – serotonin retseptorlarining selektiv maxsus agonistidir. U uyku arteriyalari sistemasidagi tomirlarni kiskartirib, bosh miya kon aylaishiga ta'sir utkazmaydi. SHu uyku arteriyalarning kengayishi migren xurujining kelib chikish sababi xisoblanadi.

Sumatriptan migren xurujining xar kanday boskichida ta'sir kilsada unii loji boricha xurujdan oldin iste'mol kilish kerak. Xuruj profilaktikasi uchun preparat kullanilmaydi.

SHuni esda tutish kerakki sumatriptan guruxi preparatlari fakat migren diagnozi kuyilganda, buning uchun shifokor kurigidan utib, kerakli tekshiruvlar utkazilgandan keyin kullaniladi.

Analgetik - antipiretiklar				
Xalkaro nomi	Savdo nomi	Kullanish mumkinligi		Maxsus xususiyatlari va nojuya ta'siri
		Xomiladorlarga	Bolalarga	
Paratsetamol	Aldolor, atsetaminofen, dolomol, ifimol, medipirin, panadol, paratsetamol, piranol, taylenol, effergal	Extiyotkorlik bilan	2 yoshdan keyin	Allergik reaksiyasi, dispepsiya bulishi mumkin. Jigari xastalarga extiyotlik bilan berilishi shart
Atsetilsaetsil kislotasi	Anopirin, asafen, asprokol, aspilayt, aspirin, atsilpirin, upsarin upsa	Mumkin emas	Tavsiya kilinmaydi	Allergik reaksiyasi, dispepsiya bulishi mumkin. Oshkozoni xastalarga berilmaydi
Analgetik – antipiretiklar. Kombinatsion dori vositalari				
Savdo nomi	Tarkibi	Kullanish mumkinligi		Maxsus xususiyatlari va nojuya ta'siri
		Xomiladorlarga	Bolalarga	
Askopar	Paratsetamol Atsetilsaetsil kislotasi, Kofein	Mumkin emas	12 yoshdan keyin	Allergik reaksiyasi, mumkin.

				Oshkozoni xastalarga berilmaydi
Askofen	Paratsetamol Atsetilselatsil kislotalasi, Kofein	Mumkin emas	12 yoshdan keyin	Allergik reaksiyasi, mumkin. Oshkozoni xastalarga berilmaydi
Aspalgin	Paratsetamol Atsetilselatsil kislotalasi, Kofein, kodein, fenobarbital			
Ataralgin	Paratsetamol, gvayfenezin, kofein	Mumkin emas	12 yoshdan keyin	Jigari xastalarga berilmaydi. Alkogol bilan aralashtirmaydi
Migrenol	Paratsetamol Kofein	Extiyotkorlik bilan	12 yoshdan keyin	Allergik reaksiyasi bulishi mumkin.
Novalgin	Paratsetamol propifenazon, Kofein	Mumkin emas	12 yoshdan keyin	Allergik reaksiyasi bulishi mumkin. Jigari xastalarga berilmaydi
Panadol ekstra	Paratsetamol, kofein	Ta'kiklanmagan	3 oydan sung (panadol bebi) 6 yoshdan sung (kattalar uchun)	Kamdan-kam xolatlarda allergik reaksiya
Solpadein	Paratsetamol, Kofein, kodein	Extiyotlik bilan	12 yoshdan keyin	Kamdan-kam xolatlarda allergik reaksiya. Jigari xastalarga berilmaydi. Uzoq kulanilganda urganish xosil bulishi mumkin
Sitramon	Paratsetamol Atsetilselatsil kislotalasi	Ta'kiklangan	12 yoshdan keyin	Allergik reaksiyasi, mumkin. Oshkozoni xastalarga berilmaydi
Sitropak-Darnitsa	Paratsetamol Atsetilselatsil kislotalasi, Kofein, Limon kislotalasi	Ta'kiklangan	12 yoshdan keyin	Allergik reaksiyasi, mumkin. Oshkozoni va jigari xastalarga berilmaydi
Migrenni davolash vositalari. 5NT1 – serotonin retseptorlarining selektiv agonistlari				
Xalkaro nomi	Savdo nomi	Kullanish mumkinligi		Maxsus xususiyatlari va nojuya ta'siri
		Xomiladorlarga	Bolalarga	

Sumatriptan	Imigran, antimigran	Extiyotkorlik bilan (agar onaning terapevtik kuchi bola sogligi uchun xavf tugdirsa)	12 yoshdan keyin	Bosh aylanishi, xolsizlik, uykuchanlik, kungil aynash, parasteziya. YUrak va jigar xastaliklari borlarga extiyotkorlik bilan
Zolmitriptan	Zomig	Extiyotkorlik bilan (agar onaning terapevtik kuchi bola sogligi uchun xavf tugdirsa)	12 yoshdan keyin	Bosh aylanishi, xolsizlik, uykuchanlik, kungil aynash, parasteziya YUrak va jigar xastaliklari borlarga extiyotkorlik bilan
Rizatriptan	Maksalt	Extiyotkorlik bilan (agar onaning terapevtik kuchi bola sogligi uchun xavf tugdirsa)	12 yoshdan keyin	YUrak va jigar xastaliklari borlarga extiyotkorlik bilan
Sporinya alkaloidi				
Digidroergotamin	DG-ergotamin, digidergot (burun bushlik spreyi)	Istaksiz tavsiya kilinmaydi	6 yoshdan sung	YUIKda, keksalikda ta'kiklangan. Kullanilganda kungil aynashi, kayt kilish, paresteziya. Kon tomirlarini kiskartiruvchilar bilan (a-adrenomimetik) kullanish Digidroergotamin kuchini kamaytiradi. Nitroglitserin, α -adrenoblokatorlar, β -adrenomimetiklarni bir vaktida kullaninilishi Digidroergotamin ta'sirini kuchaytiradi

Bosh ogriqining simptomatik davosida preparatlarni kullashning farmatsevtik xomiysi

- Bosh ogrigi jiddiy kasalliklarning simptomi bulishi mumkin, bu yuzdan xayotga va soglikga taxlika soluvchi xolatlarni bartaraf kilish uchun shifokorga murojaat kilish kerak;
- Analgetie preparatlarni ikki kundan ortik shifokor kurigisiz kullash mumkin emas;
- Analgetik preparatlarni bosh ogriganda bir xaftada 2 martadan ortik kullash mumkin emas – aks xolda ogrik xissining bosamogi pasayib, bosh ogrigining kuchi va takrorlanishi ortadi.
- Migrenda ogrik 12 soat ichida bosilmasa albatta shifokorga murojaat kilish zarur, aks xolda bosh miyada kon aylanishi buzilishi xavfi tugilishi mumkin
- Dori-darmonning eritiluvchi va aerosol kurinishidagi formalari terapevtik effektning tezrok kirishishini ta'minlaydi, oshkozon shillik pardasiga ta'sir kiluvchi aktiv moddalarning zararini kamaytiradi
- Analgetik-antipiretik guruxidagi kombinatsion-turkumli preparatlarni ichida kofein bulganligi sababli, kofe yoki choy bilan ichish tavsiya kilinmaydi, chunki kofein miqdori ortib ketishi kuzatiladi.
- Tarkibida paratsetamol bulgan preparatlarni jigar faoliyatining ogir buzilishi bor bemorlarga extiyotlik bilan tavsiya kilinadi
- Tarkibida atsetilsaetsil kislotasi bor preparatlarni ovqatdan keyin ichish kerak.
- Tarkibida atsetilsaetsil kislotasi bor preparatlarni alkohol bilan ichish mumkin emas (ulserogen ta'siri, oshkozondan kon ketish xavfi ortadi)
- Tarkibida atsetilsaetsil kislotasi bor preparatlarni uzok muddat kullanilganda, axlatni yashirin kon ketishga tekshirish tavsiya kilinadi
- Tarkibida atsetilsaetsil kislotasi bor preparatlarni xomiladorlik va laktatsiya vaktida ichish mumkin emas
- Sumatreptan guruxiga oid dori-darmonlarni fakat shifokor tarafidan migren diagnozi kuyilgandagina kullash mumkin
- Sumatreptan guruxiga oid dori-darmonlarni xomiladorlik va laktatsiya vaktida yoki bolalarga tavsiya kilinmaydi
- Sumatreptan guruxiga oid dori-darmonlarni yurak, kon tomi rva gipertoniya kasalligida kullanilmaydi
- Sumatreptan guruxiga oid dori-darmonlarni migren xuruji profilaktikasi uchun kullanilmaydi
- Sumatreptanni sporinya preparatlari bilan kullash mumkin emas – chunki vaz spzm (kon tomirlarning torayishi yuzaga kelishi mumkin)
- Tarkibida sporinya alkaloidi bulgan prepratarni (digidroergotamin) ichilganiga 24 soat bulgandan keyingina mumatreptan guruxi preparatlarini ichish mumkin
- Sumatreptan guruxi preparatlarining ichilganiga 6 soat va undan ziyoda utgandan keyingina sporinya alkaloidi (digidroergotamin) preparatlarini kullash mumkin
- Sumatreptan guruxi preparatlarini ichish oraligi 12 soatdan kam bulishi mumkin emas
- Bir doza Sumatreptan guruxi preparati yordam bermasa, keyingi dozani kullash 3 soatdan oldin bulmasligi kerak.

2. Xar xil stres xolatlari va depresiyalarni bartaraf etuvchi dorilarni tavsiya qilishni bilish.

Xayotning zamonga qarab shiddatli rivojlanishi, informatsion texnologiyalarning rivojlanishi tez-tez uchrab turadigan nomaqbul xayotiy sotsial situatsiyalar, inson salomatligiga va nerv sistemasiga juda qattiq ta'sir o'tkazadi.

Stress, nevroz-diagnozi juda tez-tez uchrab turadi. VOZ ko'rsatkichiga binoan, dunyo axolisining 10-35% stress bilan to'qnashadi.

Stress- ishlash va mehnat qilish qobiliyatining pasayishiga, yashash sifati yomonlashuviga, sotsial dezadaptatsiyaga olib keladi.

o'kituvchilar, vrachlar va boshqa xizmat ko'rsatish doirasida ishlovchilar yuqori nevrologik bosimda ishlashadi.

Stressning eng xarakterli jihati shundan iboratki:

Stressning- eng xarakterli jihati shundan iboratki, bu insonga shunday ta'sir qiladiki, sababsiz tinchligini yoqotadi, xayajonlanadi va qo'rquv xavotirli xolatga olib keladi. Yuqori emotsional – ko'zg'aluvchi qo'rquv-xavotirli xolatga tushgan bemorlar, dorixona xodimlari va provizorlarning aloxida e'tiboriga va yuqori saviyadagi muamolaga muxtojdir.

Provizor va dorixona xodimlarining bunday muammolari, qo'rquv-xavotirga uchragan bemorlarning umumiy xolatini va yashash ishtiyoqini yanada sifatli qilish mumkin.

Xotirjamlikni yoqotish, xayajonlash, qo'rquv-xavotirli xolat bu qandaydir yoqimsiz xolatni xis demakdir.

Qo'rquv –xavotirli xolatning uzok davomli saqlanishi-bu insonga o'zi yoktirgan kasbiga, atrofdagi odamlarga nisbatan befarq qilib qo'yadi. Qo'rquv –xavotirli xolatning belgilari shular jumlasidadir.

Bosh og'rig'i, yurakning tez-tez urishi, ishtaxaning pasayishi uykuning buzilishi, bular insonning yaxshi yashash sifatiga ta'sir o'tkazadi. Qo'rquv-xavotirli xolatni yaxshi oxirigacha davolanmasa, nevroz xastaligi yuzaga kelishi mumkin.

Qo'rquv-xavotirli xolatning eng ko'p tarqalgan sabablari

Eng ko'p uchraydigan sabablaridan biri bu oilaviy muammolar, ya'ni oila a'zolarining, yaqinlarining xat-salomatligi, oiladagi yoki ishxonadagi ko'nglisizliklar imtixonlar shular jumlasidandir.

Qo'rquv-xavotirli xolatni yuzaga keltiruvchi omillardan biri bu «Salomat» kasalliklaridir.

Bular jumlasiga:

1. Stenokardiya (YUrak-kon tomir kasalligi)
2. Tireotoksikoz (Qalqonsimon bezi kasalligi)
3. Gipoglikemiya (Qonda glyukoza miqdorini kamayishi)
4. Abstinensiya sindromi
5. Buyrak usti garmonlarining ko'p miqdorda ishlab chiqarilishi
6. Dori vositalarining nojo'ya ta'siri

Qo'rquv-xavotirli xolat-SHizofreniya va maniakal depressiv psixoz kasalligi simptomi bo'lishi mumkin.

Qo'rquv-xavotirli xolatning simptomlari

Qo'rquv-xavotirli xolat ya'ni murakkab xayotiy situatsiyalar yuzaga kelganda, bu xolatga jiddiy e'tibor berish kerak.

Bu qo'rquv-xavotirli xolatda quyidagi belgilar bo'lishi mumkin:

Belgilari:

1) Ko'krak qafasidagi og'riqlar, bu qo'llarga bo'yin soxasigacha tomondagi a'zolarga chap jagga og'riq berishi mumkin.

- 2) YUrakning tez-tez urishi Taxikardiya
- 3) Xavo etishmasligi nafas olish qiyinlashishi
- 4) Qon bosimining yuqori bo'lishi
- 5) Ko'ngil aynishi qusish ich buzilishi ozib ketish
- 6) Terlash isib ketish og'iz qurishi
- 7) Qandli diabet
- 8) Qaysidir dori vositasini kabul kilishni to'xtatganda
- 9) kayfiyati tushib qo'rquv-xavotirli vaziyatga tushganda

qo'rquv-xavotirli xolatga tushgan bemorlarni davolash doimiy qo'rquv xavotirli xolatga tushish, inson salomatligiga jiddiy tasir kiladi. Birinchi galda bemorlar situatsiyani va xavotirni ildizini topish kerak. Eng birinchi galda, situatsiyadan chikish uchun, chukur-xolatdan nafas olish kerak. O'z vaqtida, rejim bilan ovqatlanish uyqu to'lakonli tinch, 7-8 soat davom etishi kerak. Ko'pchilik xolatda retseptsiz beriladigan dorilar bilan sedativ ta'sirga ega bo'lgan dorilarni berish kifoya qiladi. Murakkab, qiyin vaziyatlarda vrachga murojaat qilish kerak.

Qo'rquv-xavotirli xolatda qo'llaniladigan dorivor preparatlar

Qoʻrquv –xavotirli xolatni davolashda dorivor oʻsimliklardan tayyorlanadigan preparatlar keng qoʻllaniladi. Bu preparatlarning nojoʻya taʼsiri kamroq. Xar bir oʻsimlikda biologik aktiv moddalar mavjuddir. SHuning uchun xar bir inson oʻzi uchun togʻri keladigan dorivor oʻsimligini topa bilishi kerak. Ular jumlasiga valeriana, pustirnyk va boshkalar kiradi.

Dorivor Valeriana

Valeriana- nastoykasi, ekstrakti miksturalari Markaziy Nerv sistemasini qoʻzgʻalishini kamaytiradi. SHuning uchun sedativ dori sifatida qabul qilinadi. Nerv qoʻzgʻalishida tinglantiruvchi dori sifatida ishlatiladi.

Pustirnyk

Pustirnyk preparatlari-nastoykalarekstraktlar, damlamalar yuqori qoʻzgʻaluvchanlik nevrozda kattalar va bolalarga tavsiya etiladi. Pustirnyk Markaziy Nerv sistemasini tinchlantiruvchi sifatida qon bosimini pasaytiradi, yurak kisqarishini sekinlashtiruvchi taʼsirga ega. Sedativ xolati, valeriana oʻsimligiga nisbatan 2-3 marta kuchli tasirga ega. Pustirnyk preparatlarning sedativ xususiyati, mushak tonuslarining qisqarishiga kamayishiga olib kelmaydi. YAni miorelaksatsiyaga olib kelmaydi.

Passiflora

Passiflora preparatlari tinglantiruvchi xususiyatga ega. Lekin tinglantiruvchi xususiyati bromidlarga nisbatan kuchliroq.

Passiflora preparatlari stenokardiya va ateroskleroz kassaligida qoʻllanilmaydi.

Pion

Pion oʻsimligining preparatlari M.N.S. (SNS) tinglantiruvchi sifatida qoʻrquv-xavotirli xolatda, stressga qarshi qoʻllaniladi. Nevrologik xarakterdagi uyqusizlikda klimakterik nevrozda qoʻllaniladi.

Yalpiz

YAlpiz oʻsimligi- oʻzida mentol saqlaydi, mentol-yurak qon tomirlarini va bosh miya tomirlarini kengaytirish xususiyatiga ega. Nevrozda uyqusizlikda oʻt xaydash xusuiyatiga va spazmolitik xisoblanadi. YAlpiz-volidolva Zelenina tomchilari tarkibiga kiradi.

Doʻlana

Doʻlana -preparatlari M.N.S. qoʻzgʻalishni kamaytiradi. YUrak va bosh miyada qon aylanishini yaxshilaydi. Taxikardiya va aritmiyaga qarshi qoʻllaniladi. YUqori qon bosimi kassaliklarida uyqusizlikda aterosklerozda va klimakterik oʻzgarishlarda ishlatiladi.

Oddiy xmel

Xmel-Neyrotropik xususiyatga ega.M.N.S. sistemasini tinchlantiruvchi sifatida ishlatiladi. Xmel yogʻi-Valokardin Krvaldin Valeson preparatlari tarkibiga kiradi.

Bromidlar

Brom tuzlari-Natriy Brom, Kaliy brom koʻpgina tinchlantiruvchi preparatlarning tarkibiga kiradi. Adonis-brom, Brom-kamfora Valokardin va boshkalar.

Poleopatik preparatlar

Oxirgi yillarda gomeopatik preparatlarda aloxida eʼtibor berilmokda. Retseptsiz beriladigan gomeopatik preparatlar «Snoverin» SHalun Nervogran stress uyqusizlik qoʻrquv-xavotirli xolatlarda ishlatiladi.

Anksiolitiklar

anksiolitiklar (diazepamnin trazepamtazepam)M.N.sistemasiga tinchlantiruvchi sifatida tasir qiladi. Uyqu keltiradi. Mebikar-preparaty retseptsiz beriladigan dori vositasidir. Proikvilizator xususiyatiga ega boʻlgan mebikor preparati nevroz. YUqori qoʻzgʻaluvchanlik qoʻrquv-xavotirli xolatlarda ishlatiladi.

3.Yalligʻlanish oqibatida kelib chiqadigan boʻgʻim va mushak ogʻriqlarida qoʻllaniladigan retseptsiz beriladigan dorilarni tayinlash.

Bugʻim va mushak ogʻriqlarida farmatsevtik yordamni tashkillashtirish.

Xozirgi vaqtda VOZ ma'lumotlariga kura axolining 30% da bug'im og'riqlari uchraydi, ularning 10 % i qisman, 5 % i esa tula nogiron bulib qolmoqda.

Sabablari:

-biriktiruvchi tuqimaning sistem kasalliklari-revmatizm, revmatoid artrit, sistem qizil volchanka, sklerodermiya;

- suyaklar va tog'aylarda modda almashinuvi buzilishi bilan bog'liq kasalliklar-artroz, podagra, osteoporoz;

- shikastlanishlar.

Biriktiruvchi tuqimaning sistem kasalliklari –biriktiruvchi tuqimaning sistem yallig'lanish kasalliklari bulib, a'zo va to'qimalarning shikastlanishi, siklik progressirlovchi kechimi bilan xarakterlanadi. *Revmatizm*-biriktiruvchi to'qimaning sistem toksik-immunologik yallig'lanish kasalligi bo'lib, A guruxiga kiruvchi v-gemolitik streptokokk infeksiyasi bor odamlarda kelib chiqadi. *Revmatoid artrit*-biriktiruvchi to'qimaning surunkali autoimmun yallig'lanish kasalligi bo'lib, bug'imlarni shikastlaydi. *Sistem qizil volchanka*-og'ir, surunkali o'tuvchi sistem autoimmun kasallik bo'lib, ichki a'zolarining kup shikastlanishi bilan kechadi.

Suyak va tog'ayda modda almashinuvi buzilishi bilan bog'liq kasalliklar:

- *osteoporoz*-suyak tuqimasi zichligining kamayishi, sinishlarga moyillikni ortishi bilan xarakterlanadi. Osteoporozlarning kelib chiqishiga erta menopauzalar, chekish, kofeinni ortiqcha ist'emol qilish, kortikosteroidlarni qabul qilish sabab bulishi mumkin.

- *podagra*-giperurikemiya (peshob kislotasini xujayradan tashqari suyuqliklarda ortishi), tuqimalarda peshob kislotasi kristallari tuplanishi bilan xarakterlanadi. Uning kelib chiqishiga gusht maxsulotlarini ortiqcha ist'emol qilish, yoshni erkaklarda 30, ayollarda 60 dan kattaligi, ayrim dorilarni (nikotin kislota, diuretiklar, siklosporin, aspirin va b. alkogol qabul qilish moyillik tug'dirishi mumkin. Erkaklar ayollarga qaraganda 5-7 marta ko'p og'riydi.

- *osteoartrozlar*-qul-oyoqlar va umurtqa pog'onasi bug'imlarining distrofik kasalliklari bulib, uning asosida bug'im tog'ayining sekin rivojlanuvchi degeneratsiyasi yotadi. Osteoartrozlarda kuproq chanoq-son va tizza bug'imlari shikastlanib, jismoniy zuriqish vaqtida kuchayadi. Osteoartroz rivojlanishiga yoshning utishi, semirish, bug'imga doimiy zuriqish tushishi, irsiy omillar, bug'im shikastlanishlari, chekish moyillik tug'diradi.

Bug'imdagi og'riqlarning xurujsimon xarakterda bulishi, shish, giperemiya, bugim soxasida xaroratni oshishi, diuretiklar qabul qilinganda og'riqlarni paydo bulishi, klimakterik yoshdagi ayollarda tez-tez suyak sinishlari kuzatilishi xavfli belgilar bulib, shifokorga murojaat qilishni taqozo etadi. Bundan tashqari suyak silida xam bug'im og'riqlari kuzatiladi.

Mushaklarda og'riq bulishining sabablari:

gripp va boshqa respirator infeksiyalar;

radikulit;

shikastlanishlar;

ortiqcha jismoniy zuriqish;

diuretiklar qabul qilish.

Bug'im va mushak og'riqlarida maxalliy va umumiy ta'sirga ega yallig'lanishga qarshi, og'riqsizlantiruvchi preparatlardan foydalaniladi.

Maxalliy ishlatiluvchi dori shakllarining klinik-farmatsevtik xarakteristikasi

Malxamlar

Afzalligi

Qullashni oddiyligi va xavfsizligi; xam maxalliy, xam rezorbtiv ta'siri uchun ishlatish imkoniyati borligi; sistem ta'sirini kuchsiz namoyon bulishi; malxam surtilgan joyda dorining yuqori

Kamchiliklari

Vazelin asosida tayyorlangan malxamlar ta'sir etuvchi moddani yomon ajratishi; kiyimga tushganda dog' xosil qilishi; gidrofob asosdagi malxamlar parnik effekti beradi, ya'ni issiqlikni

miqdorda tuplanishi; ta'sirini uzaytirish imkoniyati borligi; bir malxamda turli ta'sir mexanizmiga ega dorilarni bulishi.

ajralishini qiyinlashtiradi.

Gellar

Afzalliklari

Ta'sirini uzaytirilganligi; kechgga ishlatish imkoniyati borligi; teriga yumshatuvchi va namlantiruvchi ta'sir etishi; gellar malxamga qaraganda yaxshi surilib, ta'siri xam kuchliroq buladi. Kiyimda dog' qoldirmay, suv bilan oson yuvilib ketadi.

Kamchiliklari

Gel —turg'un bulmagan dori shakli bulib, saqlanganda erishi mumkin. Gellar sezilarli sistem ta'sirga ega bulib, ishlatilganda nojuya ta'sirlari yuzaga chiqadi.

Curtmalar

Afzalliklari

Tarkibidagi spirt xisobiga teri qon tomirlarini kengaytirib, qon aylanishini yaxshilaydi. Sistem ta'siri kam seziladi.

Kamchiliklari

Teriga qurituvchi ta'sir etib, uning kuchishiga olib keladi.

Maxalliy ishlatiluvchi nosteroidlarning xarakteristikasi

Faol ingredient	Preparat	Dori shakli	Xarakterli xususiyatlari
Fenilbutazon	Butadion	Maz	Ekzema bilan shikastlangan yoki yarali soxaga tushishi mumkin emas Surtilganda teri qizarishi, qichishi, teri qurib kuchishi mumkin. Dozasi ortib ketsa bosh og'riq, bosh aylanishi, qorinda noxush sezgi keltirib chiqarishi mumkin
Piroksikam	Xotemin Revmador, Felden, Finalgel, Erazon	Maz Gel	Nosteroidlarga sezgirlik yuqori bulganda berish man etiladi Surtilganda teri qizarishi, qichishi, teri qurib kuchishi mumkin Gel tula shimilmaganda teri rangi vaqtincha uzgarishi mumkin

Etofenamat	Termorevmon	Gel	Bolalar xomilador va emizikli ayollarga berish mumkin emas Ekzema bilan shikastlangan yoki yarali soxaga tushishi mumkin emas Surtilganda teri qizarishi, qichishi, teri qurib kuchishi mumkin
Ketoprofen	Ketoprofen, Profenid, Fastum-gel	Gel	Ekzema bilan shikastlangan yoki yarali soxaga tushishi mumkin emas Surtilganda teri qizarishi, qichishi, teri qurib kuchishi mumkin. Dozasi ortib ketsa bosh og‘riq, bosh aylanishi, qorinda noxush sezgi keltirib chiqarishi mumkin Kuniga 3-4 marta surtiladi
Ibuprofen	Ibuprofen, Dip-relif, Dolgit	Gel	Ekzema bilan shikastlangan yoki yarali soxaga tushishi mumkin emas Surtilganda teri qizarishi, qichishi, teri qurib kuchishi mumkin. Dozasi ortib ketsa bosh og‘riq, bosh aylanishi, qorinda noxush sezgi keltirib chiqarishi mumkin Kuniga 3-4 marta surtiladi
Diklofenak	Almiral, Veral, Voltaren, Diklak, Dikloran, Diklofenak, Naklofen, Olfen, Revmavek, Feloran	Gel	Ekzema bilan shikastlangan yoki yarali soxaga tushishi mumkin emas Surtilganda teri qizarishi, qichishi, teri qurib kuchishi mumkin. Fotosensibilizatsiya. kuzatilishi mumkin Nosteroidlarga sezgirlik yuqori bulganlarga berish mumkin emas Uzoq ishlatilganda (2 xaftadan ortiq) yoki terining katta soxasiga ishlatilganda sistem nojuya ta’sirlar kelib chiqishi mumkin. Bolalarga berish mumkin emas

			Kuniga 3-4 marta surtiladi
--	--	--	----------------------------

Niflum kislota	Nifluril	Gel	
Indometatsin	Indometatsin, Indometatsin-Vramed, Metindol	Maz	Ekzema bilan shikastlangan yoki yarali soxaga tushishi mumkin emas
	Indometatsin-Darnitsa	Gel	Surtilganda teri qizarishi, qichishi, teri qurib kuchishi mumkin. Nosteroidlarga sezgirlik yuqori bulganlarga berish mumkin emas Bolalarga berish mumkin emas Kuniga 2-4 marta surtiladi Dozasi ortib ketsa bosh ogʻriq, bosh aylanishi, qorinda noxush sezgi keltirib chiqarishi mumkin

Kompleks preparatlar

Diklofen-gel	Diklofenak Mentol	Gel	Ekzema bilan shikastlangan yoki yarali soxaga tushishi mumkin emas
Diklotsin-gel	Diklofenak lizin essinat	Gel	Surtilganda teri qizarishi, qichishi, teri qurib kuchishi mumkin. Nosteroidlarga sezgirlik yuqori bulganlarga berish mumkin emas Bolalarga berish mumkin emas Kuniga 2-4 marta surtiladi Dozasi ortib ketsa bosh ogʻriq, bosh aylanishi, qorinda noxush sezgi keltirib chiqarishi mumkin

Ben-Gey	Metilsalitsilat Mentol	maz	Ekzema bilan shikastlangan yoki yarali soxaga tushishi mumkin emas
Keer	Ekstrakt Boswellia serrata	Maz	
	Metilsalitsilat Mentol		Surtilganda teri qizarishi, qichishi, teri qurib
Bom-Benge	Metilsalitsilat Mentol	Maz	kuchishi, allergiyalar kuzatilishi mumkin.
			Nosteroidlarga sezgirlik yuqori bulganlarga berish mumkin emas
			Antikoagulyantlar ta'sirini kuchaytiradi
			Dozasi oshganda bosh og'rig'i, bosh aylanishi, quloqda shang'illash, ko'rishni buzilishi, epigastral soxada noxush sezgilar, kungil aynib, qusish, ich ketish, bolalarda- gipertermiya, giperglikemiya kuzatiladi.
			Xomilador ayollar va bolalarga tavsiya etilmaydi.

Maxalliy qitqlovchi malxamlarning farmakologik xususiyatlari

Maxalliy qitqlovchi malxamlar		
Preparat	Faol ingredient	Farmakologik effektlari
Apizartron	Metilsalitsilat	YAllig'lanishga qarshi, gipertermik, tomirlarni kengaytiruvchi, maxalliy qitqlovchi, chalg'ituvchi
Gevkamen	Mentol, kamfora, evkalipt moyi	YAllig'lanishga qarshi, tomirlarni kengaytiruvchi, maxalliy qitqlovchi, og'riq qoldiruvchi
Liniment «Alorom»	Romashka, kalendula ekstrakti, kastor, mentol, evkalipt moyi	YAllig'lanishga qarshi, tomirlarni kengaytiruvchi, maxalliy qitqlovchi, og'riq qoldiruvchi, trofik jarayonlarni yaxshilaydi
Finalgon	Nonivamid, nikoboksil	Tomirlarni kengaytiruvchi, chalg'ituvchi, maxalliy qizdiruvchi, tuqimalarda qon aylanishini yaxshilaydi.

Bug'im va mushak og'riqlarida farm yordam tamoyillari

Nosteroidlarni me'da-o'n ikki barmoq ichak yarasi, bronxial astma, qon ketishga moyilliklar, jigar va buyrak faoliyati buzilganlarga berish mumkin emas

Solpadein boshqa nosteroidlar-kofein va paratsetamol saqllovchi preparatlar bilan birga ishlatish mumkin emas

Solpadein 7 yoshgacha bolalar va xomilador ayollarga tayinlanmaydi

Nosteroid preparatlar digoksin va aminoglikozidlarning chiqib ketishini susaytirib, ularni yigʻilishi va zaxarlanishlarga olib keladi

Ketoprofen, naproksen, indometatsinlarni ishlatilganda bosh aylanishi, uyqusizlik, gallyusinatsiyalar keltirib chiqaradi

Ketorolak gipotenziv vositalarni samarasini kamaytiradi

Fenilbutazon qabul qilinganda osh tuzi cheklanishi, qon va peshob taxlili oʻtkazib borilishi lozim

Aspirin, metamizol, indometatsin, ibuprofen, naproksen, ketoprofenlarni xomilador ayollarga berish taqiqlanadi

Ketoprofen, butadion, tiaprofen kislota, fenilbutazonlarni antikoagulyantlar, sulfanilamidlar, peroral gipoglikemik vositalar bilan qushib ishlatilganda nojuya taʼsirlari ortib ketadi, shuning uchun ularni birga berishda ehtiyot bulish lozim.

Kompleks preparatlarni kofe va choy bilan birga qabul qilmaslik lozim. Barcha nosteroidlar bilan davolanayotganlarga alkogol qabul qilish man etiladi.

Nazorat savollari.

1. Boʻgʻim ogʻriqlarda dorilardan retseptsiz foydalanish
2. Maxalliy ogʻriqqa qarshi vositalardan oqilona foydalanish
3. Boʻgʻim ogʻriqlarda farm yordam tamoyillari
4. Bosh ogʻriqlarda dorilardan retseptsiz foydalanish
5. Ogʻriqqa qarshi vositalardan oqilona foydalanish deganda nimani tushunasiz.
6. Stresslar va ularda farm yordam.

Asosiy va qoʻsimcha oʻquv adabiyotlar hamda axborot manbaʼlari

Asosiy:

- 1.Фармацевтическая опека В.П.Зупанец , В.А.Черных, В.А.Усенко.—Х.:»золотые страницы», 2002.— 264 с.
- 2.Farmatsevtik yordam fanidan maʼruzalar matni 2006 yil.
- 3.Maxsumov M.N., Malikov M.M. Farmakologiya. T. Ibn Sino nash. 2006 y.
- 4.Azizova S.S. Farmakologiya. T. Ibn Sino 2002 g.
- 5.Харкевич Д.А Фармакология . М. Медицина 2008 г.

Qoʻshimcha:

- 6.Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “Oʻzbekiston” NMIU, 2017. – 29 b.
- 7.Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taʼminlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “Oʻzbekiston” NMIU, 2017. – 47 b.
- 8.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “Oʻzbekiston” NMIU, 2017. – 485 b.
9. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida” gi PF-4947-sonli Farmoni. Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2017 y., 6-son, 70-modda
10. Клинические рекомендации и фармакологический справочник под ред. И.Н. Денисова, Ю.Л. Шевченко, Ф.Г. Назирова. М.2005 г.

Internet va Ziyonet saytlari

11. www.ziyonet.uz
12. www.Lex.uz.
13. www.uzpharm-control.uz
14. www.doridarmon.uz
15. www.uzpharmsanoat.uz

7- MA'RUZA

MAVZU: OSHQOZON ICHAK TRAKTI(OIT) FAOLIYATI BUZILISHLARIDA SIMPTOMATIK DAVOLASH VA F.YO TAMOILLARI (QABZIYAT). OSHQOZON ICHAK TRAKTI(OIT) FAOLIYATI BUZILISHLARIDA SIMPTOMATIK DAVOLASH VA F.YO TAMOILLARI (DISBAKTERIOZ, DIAREYALAR, METEORIZM).

Reja:

1. OISning infeksiyon-yallig'lanish kasalliklarida retseptsiz beriladigan dorilarni tanlash.
2. Qabziyatni surgu dorilari bilan simptomatik davolash.
3. Disbakterioz, diareyalar, jigar va o't yo'llarining surunkali kasalliklarida retseptsiz ishlatiladigan dori vositalari va ulardan oqilona foydalanish.
4. O'tkir diareyada vrach aralashuvini talab qiladigan «xavfli» simptomlar
5. Peroral regidratantlarning solishtiruv xarakteristikasi.
6. Ichak disbakteriozini dorilar bilan davolash.

1.OISning infeksiyon-yallig'lanish kasalliklarida retseptsiz beriladigan dorilarni tanlash.

Ichki kasalliklar ichida eng ko'p tarqalgani OIS-si kasalliklaridir. OIS-si kasalliklari Respublikamizdagi umumiy kasallikning 10-15%-ni tashkil etadi. Keyingi yillarda OIS-kasalliklari yoshlar o'rtasida ko'payib bormoqda. Buning asosiy sabablari turmush tarzining, ekologiya va oziq-ovqatlar sifatining o'zgarib borishidir.

Meteorizm- xazm traktida (oshkazon va ichaklarda) gaz xosil bulishining ortib ketishi natijasida korinning shishishi, natijada korinda ogrik, kekirish, nafas tezlashishi kelib chikadi. Bundan tashkari meteorizm sabablari quyidagilar bulishi mumkin:

-ba'zi oziq- ovqatlarning xazm bulmasligi (sut maxsulotlari va ma'lum turdagi ovqatning uglevodlari, kuzikorin, soya, shirinliklar, dukkaklilar, yongoklar, karam, olxuri, ba'zi bir krupalar, meva sharbatlari va b.lar),

- uta kup ovqat eyish,

- odatiy bulmagan oziq- ovqatlar yoki uning uzgarishi (xizmat safarlari, ta'til vegetarianlik va b.lar)

- chekish,

- gastrit va peptik yaralar,

- ut toshi kasalligi,

- disbakterioz,

- anomal peristaltika (yugon ichak mushaklarining kiskarishi),

- xayzdan oldingi davr,

- jarroxlikdan keyingi davr.

Vrach aralashuvini talab qiladigan meteorizmning xavfli simptomlari:

- korindagi davomiy ogiklar,

- kungil aynishi va kusish,

- teri va kuz sklerasining sarik tusga kirishi,

- tana ogirligining keskin kamayib ketishi,

- dori preparatlarini kabul kilgandan sung korinning dam bulishi

Meteorizmni dorisiz oldini olish yullari

- meteorizmni vujudga keltiradigan oziq- ovqatlarni aniklab uni ovqat ratsionidan olib tashlash,
- korin damligi, ogrigi, gazlar tuplanishini keltirib chikaradigan shakar urnini bosuvchilari bulgan oziq- ovqatlarni kamaytirish,

- jismoniy xarakatni kupaytirish,

- sakich (jevatelnaya rezinka) lardan voz kechish,

- chekishdan voz kechish yoki uni kamaytirish,
- ovqatni kam kamdan kuniga 4- 5 maxal ist'emol kilish,
- atsidofil ozik ovqatlarni kabul kilish.

Meteorizmni dorilar bilan davolash.

Enterosorbentlar- ichakdagi turli xil toksik metabolitlarni samarali adsorbsiyalaydi. Enterosorbentlarni kabul kilgandan sung organizmning detoksikatsiyasi organ va tukimalarda biologik aktiv birikmalarni uzaro ta'sirini yaxshilab beradi, ayniksa usimlik birikmalarining organizm retseptorlari Bilan ta'sirini. Enterosorbentlar meteorizmni va boshka dispeptik buzilishlarni kamaytiradi. Kompleksli davolashda, ayniksa usimlik preparatlari bilan samarali ishlatish mumkin.

Meteorizmni simptomatik davolashda enterosgel, kaopektat, attapulgit, polifepan tavsiya etiladi.

Silikonlar- kremniy asosida olingan ximiyaviy inert bulgan yuzaki aktiv moddalar. Ta'sir mexanizmiga kura ular kupiklarni yuk kiluvchilardir: ichak yuzasida xosil bulayotgan gaz pufakchalarini kamaytiradi. Pufakchalar yoriladi va/ yoki rezorbsiyalanadi va tabiiy yul Bilan chikib ketadi. Silikonlar fakat gaz pufakchalari yuzasiga ta'sir kiladi va ichak devorlariga ta'sir kilmaydi, ichakda surilmaydi. Bu gurux preparatlari zaxarli ta'sirga deyarli ega emas. Ular xomilador va emizikli ayollar va bolalarga berilishi mumkin.

Xozirgi paytda bu gurux dori vositalaridan 2 tasi- dimetikon (seolat) va simetikon (disflatil, espumizan) kullaniladi.

Ferment preparatlari – meteorizmning simptomatik davolashida ferment preparatlarining berilishining maksadi- funksional etishmovchilikni davolash emas, balki juda kup ovqat ist'emol kilish natijasida oshkazon osti bezi zurikishining « funksional tinchlantirish» ni xosil kilishdir. Lipolitik va proteolitik fermentlarni me'yorida kullash maksadga muvofikdir. Bunday xolatlarda keng kullaniladigan preparatlardan « Festal» dir

Usimliklardan olingan gax xaydovchi vositalar: ukrop preparatlari (xidli ukrop mevalari, ukrop suvi) dorixona ukropi mevalari, tmin mevalari, moychechak gullari.

Silikonlarni takkoslovchi xarakteristika

Xalkaro nomi	Savdodagi nomi	Klinik- farmakologik xarakteristikasi
Dimetikon	Seolat (Egis, Vengriya)	Ximiyaviy inert moda, xazm kilish yulida absorbsiyalanmaydi, uzgarmagan xolatda najas orkali chikib ketadi. Kullash mumkin bulmagan xolatlar va nojuya ta'sirlari aniklanmagan. Preparat bir vaktning uzida antatsid, ayniksa alyuminiy gidroksid va magniy gidrokarbonat Bilan birga kabul kilinsa samaradorlik kamayadi.
Simetikon	Disfatil (Solco Basel AG, SHveysariya) Espumizan (Berlin-Chemie, Germaniya)	Ximiyaviy inert moda, xazm kilish yulida absorbsiyalanmaydi, uzgarmagan xolatda najas orkali chikib ketadi. Tarkibida shakar saklamaganligi sababli, kandli diabeti bor kasallarda kullash mumkin. Kullash mumkin bulmagan xolatlari- ichakdan utmagan xolatlarda, oshkazon- ichakning obstruktiv kasalliklarida.

	Nojuya ta'sirlari aniklanmagan.
--	---------------------------------

5) O'simliklardan olingan gaz haydovchi preparatlarining taqqoslash xarakteristikasi

Usimlik nomi	Preparatlar	Klinik- farmakologik xarakteristikasi
Ukrop mevalari	Nastoyka	Spazmalitik, yalliglanishga Karshi, ut xaydovchi va gaz xaydovchi ta'sirga ega, xazm bezlari sekretsiasini kuchaytiradi, ichakdagi yiringlash va achish jarayonlarini susaytiradi. Xomiladorlikda kullab bulmaydi. Preparatga bulga uta sezuvchanlik kuzatilishi mumkin.
Tmin mevalari	Nastoyka	Oshkazon ichak traktining tonus va motorikasini normallashtiradi, Spazmalitik, antiseptik, ut xaydovchi ta'sirga ega, xazm bezlarining sekretsiasini kuchaytiradi, ichakdagi yiringlash va achish jarayonlarini susaytiradi Preparatga uta sezuvchanlik kuzatilishi mumkin.
Dorixona ukropi mevalari	Nastoyka	Spazmalitik, yalliglanishga Karshi, gaz xaydovchi va antibakterial ta'sirga ega. Ichakning motorikasini boshkaradi. Preparatga bulgan uta sezuvchanlik kuzatilishi mumkin.
	«Planteks» (tez erib ketuvchi choy)	Tarkibida dorixona ukropi, glyukoza, galaktoza bor. Xazm kilishni yaxshilaydi, oshkozon shirasi ajralishini kuchaytiradi, ichak motorikasini aktivlashtiradi, gaz yigilishini oldini oladi, meteorizmdan kelib chikkan spazmlarni yukotadi. 1 yoshgacha bulgan bolalarga berilishi mumkin. Preparatga bulgan uta sezuvchanlik kuzatilishi mumkin.

6) Probiotiklar. Bu gurux preparatlari ichakdagi yiringni va gazlarni xosil kiluvchi mikroorganizmlarning xayotiy faoliyatini cheklaydi, bu esa meteorizmni vujudga kelishini oldini oladi, xazm jarayoni va oshkozondagi surilishni yaxshilaydi.

7) Domperidon. Dofaminning sintetik antagonisti, gemato- ensefalitik barerdan yomon utadi, shu sababli markaziy ta'sirga ega emas. Gastrokinetik va kusishga Karshi ta'sirga ega. Peroral kabul kilinganda oshkozon faoliyatini yaxshilab, lekin oshkozon sekretsiasiga ta'sir kilmaydi. Ukrainada domperidon asosida « Motilium» preparati yaratilgan.

Oshkozon- ichakda kon ketganda, 1 yoshgacha bulgan bolalarda ichak yulidan utmaslik xolatida, emizikli paytda berish tavsiya etilmaydi. Dozasi kupayganda uyku bosishi, bolalarda ayniksa orientatsiya buzilishi kuzatiladi.

Xozirgi paytda «Motilium» retseptura asosida beriladigan preparatlarga kiradi va shu sababli fakat vrach kursatmasi Bilan beriladi.

Meteorizmni simptomatik davolash uchun kullaniladigan preparatlarni ishlatishdagi farmatsevtik yordam.

- sorbentlar guruxiga kiruvchi preparatlarning adsorbentlik xususiyati bulgani uchun ular bir vaktning uzida berilayotgan peroral preparatlar ta'sirini susaytiradi,
- Adsorbentlar va boshka dori preparatlarni kabul kilayotganda orasida ma'lum vakt utishini ta'minlash tavsiya kilinadi,
- Adsorbentlarni uzak vakt kabul kilinsa organizmda vitaminlar, oksillar, yoglar kamayishi kuzatiladi,
- Urtacha ta'sirli adsorbentlarni (yoki katta dozalarda) kabul kilinsa korin dam bulishiga olib kelishi mumkin,
- Aktivlangan kumir najasni kora ranga kiritadi,
- Attapulgit tananing Yuqori xaroratida ruxsat etilmaydi,
- Attapulgit xomiladorlikning birinchi uch oyligida va emizikli paytda ruxsat etilmaydi,
- Tabletkalar xolidagi attapulgit bolalarga 6 yoshdan keyin, suspenziya xolidagisi 3 yoshdan keyin berilishi mumkin,
- Silikonlar (Simetikon, dimetikon) bir oz miqdordagi suyuqlik Bilan, ovqatdan sung va uyukdan oldin kabul kilish tavsiya etiladi,
- Domperidon fakatgina vrach kursatmasi Bilan beriladi!
- Usimliklardan olingan gaz xaydovchi preparatlar nastoyka va kaynatma xolida kabul kilinadi,
- Ukrop, dorixona ukropi va tmin mevalarining nastoykasi emizikli ayollarda sut ajralishini kuchaytiradi,
- Nastoyka va kaynatmalar muzlatgichda 3 kundan ortik saklanmasligi lozim,
- «Planteks» choyiga shakar kushib bulmaydi,
- Fermentli preparatlar ovqat paytida yoki ovqatdan keyin kabul kilinishi lozim,
- Fermentli preparatlari bulgan tabletkalarni chaynash man etiladi.

Qabziyat fiziologik normal xolatda qayd etiladigan xojatga borish jarayonining buzilishi bo'lib, unda xojatga borish vaqti cho'ziladi va ichakning normal funksiyasi buziladi.

Qabziyatni kelib chiqishi mumkin bo'lgan sabablar quyidagilardan iborat:

1. Yo'g'on ichak patologiyasini yuzaga chiqishi;
 2. Normal modda almashinuvini buzilishi;
 3. Ovqatlanish san'atini o'ziga xos xususiyatlari;
 4. Turli xil dorilarni keragidan ortiq qo'llash.
1. Yo'g'on ichak patologiyasiga:
 - kolitlar; ichak atoniyasi;
 - anus atrofidagi yorilishlar;
 - gemoroylar; ichak spazmi;
 - Kron kasalligi-yarali kolit;
 - yo'g'on ichak polipozlari va b. kiradi.
2. Normal modda almashinuvini buzilishiga:
 - organizmni susizlanishi;
 - qalqonsimon bezning gipofunksiyasi;
 - buyrak usti bezining gipofunksiyasi kiradi.
3. Ovqatlanish san'atining o'ziga xos xususiyatlariga:
 - ovqatlar tarkibida o'simlik kletchatkalarini etarli darajada bo'lmasligi (asqarov beshligi...),
 - ovqat ratsionini birdan o'zgarishi;
 - ovqat tarkibida ortiqcha yog'larni bo'lishi;
 - etarli miqdorda suyuqlikni iste'mol qilmaslik;
 - ovqat tarkibida ortiqcha temirni bo'lishi;
 - Folat kislotani etishmasligi (chaqaloqlar va xomilador ayollardagi turli xil o'ziga xos etishmovchiliklar...!) Vit. V₉-folat k-ta.
4. Qanday dorilarni keragidan ortiq va betartib ichilganda qabziyat yuzaga chiqadi:

alyumin saqllovchi antotsidlar;
antigistamin preparatlar;
antideprissantlar;
neyrotrop-neyroleptik va psixotrop preparatlar;
opiatlar-ko'pincha kofein saqllovchi preparatlar;
kalsiy kanalini blokatorlari;
temir preparatlari va kalsiy preparatlari.

Qabziyatni qanday xolatlarda kechishi xayot uchun xavflidir?

yuqori temperatura bilan kechishi ;
najasda qon yuqimini paydo bo'lishi;
qorinda kuchli og'riq bilan kechuvchi qabziyat;
qabziyatni qayt qilish bilan kechishi;
bemor massasini kamayib ketishi.

Bemor bilan suhbatda nimalarga ahamiyat berish kerak va buning uchun qanday savollar berish o'rinli bo'ladi?

a). Anchadan beri qabziyat bilan og'riysizmi ? (Bunda o'tkir yoki surinkali qabziyat borligi aniqlab olinadi. Surinkali qabziyat bo'lsa, unday bemorlarni vrachlarga murojat qilishlarini tushintirish kerak bo'ladi.)

b). Xojatga borganda najasni ajralib chiqishi og'riq bilan bo'ladimi? (Bunda bemorda gemoroy, proktalgiya va b. bor yoki yo'qligi aniqlab olinadi va shunga yarasha davolash muolajalari ishlab chiqiladi).

v). Sizning qorningizdagi og'riq spastik xarakterga egami? (Spastik og'riq spastik kolitda, divertikulyozda yo'g'on ichakni rakida va b. bo'ladi).

g). Professional ishlab chiqarish soxangiz nimalar bilan bog'liq? (Og'ir metallar bilan kontaktda bo'lish masalan: simob, qo'rg'oshin, margimush va b.). Bunda surinkali qabziyat yuzaga chiqishi mumkin.

d). Siz qanday surgi dorilarni qabul qilgansiz va qanday ta'sirlar yuzaga chiqqan? (YUqorida aytib o'tilgan dorilarga bog'liq qabziyatlar bo'ladi...!)

Ayniqsa xomilador ayollarda qayd etiladigan qabziyatni surgi dorilar bilan davolash yaxshilikka olib kelmaydi. Bunda ko'proq suyuqliklar ichish va o'simlik klechatkalaridan qabul qilish kerak bo'ladi. Bemorlarni yoshi ham aloxida ahamiyatga ega. CHunki qariyalarda gipodinamik qabziyat yuzaga chiqishi mumkin. Ularni taza-genital organlarining muskullari susaygan bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda va surunkali qabziyatni butun dunyo buyicha keng tarqalganligini hamda bu kasallikni davolashda o'ziga-o'zi yordam prinsiplarini tarqalganligini inobatga olib, uni aniqlashda va ratsional davo muolajalarini yuzaga chiqarish uchun nafaqat shifokorlar, balki provizorlar ham javobgarlikni his etgan holda ish tutishlari kerak. CHunki bu gurux kasallarni davolashda nafaqat retseptsiz beriladigan dorilarni o'rinli tanlash yoki ratsional qo'llash, balki ularni davo kursi ham katta ahamiyatga egadir.

Davo muolajalari:

1. Dietoterapiya (o'simlik klechatkalariga boy maxsulotlarni iste'mol qilish)
2. Gazi chiqarilgan ma'danli suvlar
3. Ichak motorikasini normallashtirishga moyil dori vositalari berish (spazmolitiklar, fitoterapiya, sabzi, limon o'ti, buymadaron, yalpiz, xmel, tog' rayxon, romashka, kalendula va b damlamasi).
4. Davo mashqlari (qorin va tazo-genital mushaklari tonusini oshiruvchi)
5. Fizioterapiya (diatermiya, elektrofarez, issiq qilish, vanna, parafin va b.).

Xazm a'zolari kasalliklari axoli urtasida turli xil yosh guruxlarida 18 % dan 37 % gacha uchraydi. OIS patologiyasining keng tarqalganligi kuplab omillar, noratsional ovqatlanish, ekologik buzilishlar, immun faollikni pastligi, infeksiyalarni tarqalgani bilan bog'liq. OIS patologiyasining asosiy sindromlari og'riq, kungil aynish, qabziyat, diareya, meteorizm va b. Og'riq sindromi va xavfli simptomlardan tashqari barcha xolatlarda OIS kasalliklarini retseptsiz dorilar

bilan simptomatik davolash mumkin. Qorin soxasida og'riq bulishi bemorning nafaqat sog'ligiga, balki xayotiga xam xavf soladi. Bunday paytlarda og'riq qoldiruvchilarni berish tavsiya etilmaydi, chunki kasallikka aniq tashxis quyish qiyinlashadi. Bundan tashqari albatta shifokorga murojaat qilish lozim bulgan xavfli simptomlarga quyidagilar kiradi:

isitma kutarilishi; axlatda qon bulishi; korinni o'ta dam bulishi; qusish; vaznni yuqotish; qabziyatni biror bir dorini qabul qilish bilan bog'liqligi.

Qabziyat (obstipatio) — ichak faoliyatining buzilishi bulib, defekatsiya aktlari urtasidagi interval 48 soatdan ortiq buladi. Ba'zi odamlarda 2g'3 kunda ichak bushalishi xam fiziologik norma bulib, qabziyat xisoblanmaydi va tana uchun xavfli emas. Qabziyati bor odamlarda ishtaxa yuqolib, kekirish, og'izda yoqimsiz ta'm, qorin soxasida og'irlik, dam kuzatiladi. Kupchilik kasallarda terida uzgarishlar, rangparlik, ersimon rangga kirishi, quruqlik, ortiqcha muguzlanish, dermatit kurinishlari kuzatiladi, tirnoqlar zaiflashib, soch tukiladi. Tanada intoksikatsiya tufayli xolsizlik, ish qobiliyati pasayishi, bosh og'rishi, uyqu buzilishi, xotirani susayishi aniqlanadi. Surunkali qabziyat ikkilamchi enterokolitlar, gemorroy, tug'ri ichakda yoriqlar xosil bulishiga olib keladi. Bunga kupincha disbakterioz, immun tizimi va modda almashinuvidagi buzilishlar qushiladi. Qonda va limfada turli xil toksinlar va kanserogen moddalar kupayadi.

Qabziyatning asosiy sabablari:

tug'ri ichak patologiyasi-kolitlar, ichak atoniyasi, spazmlari, megakalon, polipozlar;

modda almashinuvi buzilishlari-suvsizlanish, qalqonsimon va buyrak usti bezlari gipofunksiyasi;

ovqatlanish xarakteri-ratsionni keskin uzgartirish, ovqatda o'simlik klechatkasi etishmasligi, ratsionda yog'larni ortiqcha bulishi, ortiqcha temir qabul qilish, folat kislota etishmasligi;

defekatsiya aktining og'riqliligi-orqa chiqaruv soxasida yoriq bulishi, gemorroylar;

ayrim dori vositalarini qabul qilish-antatsidlar, antigistamin vositalar, xolinolitiklar, gipotenziv vositalar, kalsiy va temir saqlovchi vositalar, psixotropalar. Qabziyat kelib chiqishiga moyillik tug'diruvchi omillar:

biriktiruvchi tuqimaning tizimli kasalliklari (revmatizm, revmatoid artrit, sistem qizil volchanka, sklerodermiya va b.); ovqat ratsionida yog'larni va oqsillarni ortiqcha bulishi; kam xarakatlik; surgi vositalarini uzoq vaqt ishlatish; klizmadan ortiqcha foydalanish.

2.Qabziyatni surgi dorilari bilan simptomatik davolash.

Qabziyatlarni davolashga kirishishdan avval ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash lozim. Kupincha ubu sabablarni bartaraf etilishi ichakni normal yurishuviga olib keladi. Bemorga avval surgi vositalaridan va klizmadan minimal foydalangan xolda nomedikamentoz usullar taklif etiladi

Ichak faoliyatini me'yorlashtiruvchi medikamentsiz usullar

- klechatka va pektinga boy bulgan ovqat moddalarini (mevalardan olma, lavlagi, olcha, sabzavotlar karam va b. butqalar) qabul qilish;
- xayvon yog'larini ist'emol qilishni cheklash;
- bir kunda 8 stakandan kam bulmagan suyuqlik qabul qilish;
- zarur bulmasa temir va kalsiy saqlovchi preparatlarni qabul qilmaslik, vitamin-minerallar komplekslarini qabul qilish;
- jismoniy xarakatlarni ko'paytirish;
- orqa chiqaruv soxasi yoriqlari va gemorroylarni davolash;
- alkogol qabul qilishdan saqlanish

Ushbu tadbirlar yordam bermaganda medikamentoz usullarga o'tiladi.

To'g'ri ichak faoliyati buzilishi gipertonik (ichak silliq mushaklari tonusi oshishi) va atonik (ichak silliq mushaklari tonusi yuqolishi) tiplarda bulib, davolash tadbirlari xam farq qiladi.

Tug'ri ichak motor faoliyati buzilishlarini differensirlangan davolash

Davolash tadbirlari	Spastik qabziyatlar	Atonik qabziyatlar
Dieta	Ichni yurituvchi dieta, ovqatni iliqroq xolda qabul qilish	Menee madyanaya dieta, sabzavot va mevalar, ovqatlarni sovuq xolda

		qabul qilish
Mineral suvlar	1-1,5 stakan gazsiz suv kuniga 2-3 marta ovqatlanishdan 1 soat avval	1 stakan sovuq gazlangan suvni kuniga 2-4 maxal ovqatlanishdan 1-1,5 soat avval qabul qilish
Motor faoliyatni mutadillashtirish	Spazmolitiklar — galidor, drotaverin, papaverin, fenikaberan Xolinolitiklar — pirenzepin Dofaminolitiklar — sulpirid (dogmatil, eglonil) va metoklopramid (reglan, serukal) Kichik dozada nifedipin Fitoterapiya: lipa, moychechak, timoqgul, buymadaron gullari damlamasi, tog'rayxon, limono't, yalpiz o'tlari, fenxel, karam	Antixolinesterazlar — prozerin, galantamin Rezerpin, b- i v-adrenoblokatorlarning kichik dozalari Fitoterapiya: adaptogenlar — jenshenya, rodiola, limonnik, levezeya, eleuterokokk va b. damlamalari
Davolash fizikulturasi	Bushashtiruvchi mashqlar	Qorin va chanoq mushaklari uchun mashqlar
Fizioterapiya	Papaverin dibazol, drotaverin, magniy tuzlari bilan elektroforez; issiq muolajalar (diatermiya, parafin applikatsiyalari, issiq vanna va b.)	Elektroforez kalsiy tuzlari bilan, «Amplipuls» apparati yordamida ichakni elektrostimulyasiya qilish va b.

Korni dam bulgan disbakteriozli kasallarga kuprok ozik tolalari- non maxsulotlari, sabzavotli salatlar, grechkali butka, katik, xom sabzavot va sharbatlar, nordon mevalar, mineral suvlar berish tavsiya kilinadi.

O'tkir korinda dam bulishlarda dukkaklilar, karamlar, tarkibida glyukozasi kup bulgan maxsulotlar – asal, murabbo, shirinliklar, uzumlarni berish mann etiladi. Ovqat ratsionida kaynatilgan **Surgi vositalari**

Surgi vositalari ichak shilliq qavatlarini retseptorlarini mexanik yoki kimyoviy ta'sirlaydi. Ta'sir yunalishiga kura ular quyidagilarga ajratiladi:

- ichak xarakatini stimullovchi;
- axlatni yumshatuvchi;
- ichakdagi massaning xajmini oshiruvchi.

1. Suv absorbsiyasini tormozlab, ichak peristaltikasini kuchaytiruvchilar (kontakt surgilar)

Ichak xarakatini kuchaytiruvchi vositalar surgii preparatlari ichida eng katta gurux xisoblanadi. Bu preparatlarning asosini antraglikozidlar saqllovchi o'simliklar tashkil etadi.

1.1. Antraglikozidlar saqllovchi o'simliklar preparatlari, yug'on ichak shilliq qavati xemoretseptorlarini qitiqlab, peristaltikani kuchaytiradi. Ingichka ichak mushaklariga ta'sir etmagani sababli xazm qilish va so'rilish jarayonlarini o'zgartirmaydi. Bu gurux preparatlar 8-12 soat davomida ta'sir etadi.

1.2. Difenilmetan xosilalari bo'lgan preparatlar-tug'ri ichak shilliq qavati bilan bevosita ta'sirlashib, ichak devori retseptorlarini quzg'atadi, natijada shilliq ishlab chiqarilishi va peristaltika kuchayadi.

1.3. Sintetik preparatlar (natriy pikosulfat) tug'ri ichakda bakterial sulfatazalar ta'sirida faollashadi, bunda xosil bo'lgan modda ichak nerv oxirlarini quzg'atib, uning xarakatini kuchaytiradi. u preparatlar ko'krak yoshidagi bolalarda naf bermaydi.

1.4. Osmotik faol surgilar — tuz surgilari butun ichak buylab ta'sir etadi. Tuzlar tarkibida yomon suriluvchi anion va kationlar bulib, ichakdagi osmotik bosimni oshiradi. Osmotik bosim ichakda suvni qayta surilishiga monelik qiladi. Ichak taranglashib, uning xarakati reflektor ravishda kuchayadi, ingichka ichak shilliq qavatida xoletsistokinin ajralishi xam bunga yordam beradi. Tuzli surgilar uzoq vaqt ishlatilganda ichak shilliq qavatida atrofik va yallig'lanish jarayonlarini chaqiradi.

Laktuloza — sintetik disaxarid bulib, ingichka ichak disaxaridazasi tomonidan parchalanmaydi, soʻrilmaydi va tugʻri ichakda bakteriyalar yordamida kichik xalqali yogʻ kislotalar (sut, sirka, propion, va yogʻ kislotalar) xosil qiladi. Bu yugʻon ichakda rNni pasayishi va peristaltikani quzgʻalishiga olib keladi. Bundan tashqari yogʻ kislotalar osmotik bosimni xam oshiradi.

Forlaks — osmotik faol surgi vositasi boʻlib, butun ichak buylab taʻsir etadi. Ichakdagi massaning xajmini oshirib, uni yumshatadi. Kimyoviy tarkibiga koʻra forlaks makrogel 4000 bulib, molekulyar massasi kattaligi uchun ichakda surilmaydi va metabolizmga uchramaydi.

1.5. Kastor moyi ingichka ichak lipazasi yordamida ritsinol kislota va glitseringa ajraladi, bu esa ichak retseptorlarini quzgʻatib, peristaltikani oshiradi. SHuningdek, bu moddalar elektrolitlar va suvni surilishini kamaytiradi va ichakdagi massani xajmini oshiradi. Kastor moyining bir qismi glitserin xolida chiqarilib, axlatni yumshatadi. Ichni surilishi 5-6 soatdan sung kuzatiladi.

2. Ichakdagi massaning xajmini oshiruvchi vositalar—ular qatoriga oʻsimlik tolalari va gidrofil kalloid moddalar kiradi. Bu moddalar yuqori molekulali oʻsimlik polisaxaridlari saqlab, oshqozon-ichakda suv taʻsirida bukadi va xajmi ortadi, ichak shilliq qavati retseptorlarini qitiqlab, ichni suradi.

3. Ichak shilliq qavatini yogʻlovchi va axlat massalarini yumshatuvchi vositalar. Oʻsimlik yogʻlari axlat massalari yurishini engillashtiradi.

Vazelin moyi (suyuq parafin) — mineral moy bulib, ichakda surilmaydi va parchalanmaydi. U suyuqliklarni surilishini kamaytiradi, ingichka va yugʻon ichakdagi massani xarakatini jadallashtiradi. Uzoq ishlatilganda yogʻda eruvchi vitaminlarni uzlashtirilishini yomonlashtiradi. YUmshatuvchi surgi vositalari tez samara olish kerak bulganda, zaxarlanishlarda, jarroxlik muolajasidan keyin, ichakni diagnostik tekshiruvga tayyorlashda ishlatiladi.

Asosiy surgi vositalarining xarakteristikasi

Xalqaro nomi	Savdodagi nomi	Asosiy nojuya taʼsirlari	Ishlatishga kursatma
1. Suv absorbsiyasini tormozlab, ichak peristaltikasini kuchaytiruvchilar (kontakt surgilar)			
1.1. Antraglikozid saqllovchi preparatlar			
Sano (barglari)	Senade, senadeksin, glaksena, antrasennin, tisasen, quruq ekstrakt; nastoy 1:50-1:30	Uzoq ishlatilganda urganib qolish, yugʻon ichak shilliq va mushak qavatlari atrofiyasi bilan kechuvchi kolitlar, ichak atoniyasi, surunkali qabziyat, melanoz, gepatotoksiklik, sut, ter va peshobni buyalishi (nordon muxitda-sariq, ishqoriyda-qizil); gipokaliemiya	Surunkali atonik qabziyatlar, tugʻri ichakda yoriqlar va gemorroy bulganda defekatsiyani engillatish uchun, diagnostik va jarroxlik muolajalariga tayyorlashda.
Togʻ jumrut (ildizi)	Damlama 1:50, suyuq ekstrakt, quruq ekstrakt, ramnil, kofranil	Sanoga uxshash	Sanoga uxshash
Ravoch (ildizi, ildizpoyasi)	Ekstrakt	Sanoga uxshash	Sanoga uxshash
1.2. Difenilmetan unumlari preparatlari			
Bisakodil	Dulkolaks, laksbene, lelaks, laksakodil	Qorinda spastik xarakterdagi ogʻriq, ortiqcha ishlatilganda ich ketish, terida toshma. Uzoq ishlatilganda —prostatit	Turli xil qabziyatlar, meteorizm, diagnostik va jarroxlik muolajalariga tayyorlashda.

		Proktit va ichak tutilishida ishlatish mumkin emas.	
Izafenin	Laksil	Qorinda og‘riq, kungil aynish	Bisakodilga uxshash
Fenolftalein	Purgen	Zaxarliligi kuchli preparat. Gipokaliemiya, ichak kolikalari, taxikardiya, kollaps, nefro- i gepatotoksik ta’sir, osteomalyasiya, allergik reaksiyalar (anafilaktik shokkacha). Ichak tutilishi va buyrak kasalliklarida berish mumkin emas.	Bisakodilga uxshash
1.3. Sintetik preparatlar			
Natriya pikosulfat	Guttalaks, laksigal	YUqori dozalarda ishlatilganda dehidratatsiya, elektrolit balansi buzilishini chaqiradi. Ichak tutilishi, qorinda noaniq etiologiyadagi og‘riq bulganda berish mumkin emas.	Ovqatlanish xarakteri i rejimining keskin uzgarishi tufayli, og‘ir yurak-qon tomir kasalliklari tufayli kelib chiqqan qabziyatlar, jarroxlik muolajasi oldidan ichakni tozalash uchun, akusherlik va ginekologiya amaliyotida, gemorroyda defekatsiyani engillatish uchun
1.4. Osmotik surgi vositalari			
Magniy sulfat	Ingliz tuzi	Ortiqcha ishlatilganda MNS susayishi, sedativ, uxlatuvchi ta’sir, miokard qisqaruvchanligi va nerv-mushak utkazuvchanligini buzilishi, suvsizlanish. . Enterokolitlar va ut-tosh kasalligida man etiladi	Ovqat va b. zaxarlanishlarda, surunkali gepatit, xoletsistit, miya shishi, semirish, gijja xaydovchi preparatlar bilan davolanayotganda.
Natriy sulfat	Glauber tuzi	Gipokaliemiya Man etilishi magniy sulfatdek	Magniy sulfatga qarang
Karlovar tuzi	«Barbar tuzi»: natriy sulfat — 22 qism, natriy gidrokarbonat — 18 qism, natriy xlorid — 9 qism, kaliya sulfat — 1 qism	Dispeptik uzgarishlar, ichak kolikasi, poliuriya. Man etilishi magniy sulfatdek	Xoletsistit, giperatsid gastritlar bilan kushilib kelgan qabziyatlar
Laktuloza	Dufalak, normaze	Meteorizm..Tez-tez ishlatilganda suv –elektrolit buzilishini chaqiradi. Man etilishi ichak tutilishi, galaktozemiya	Surunkali qabziyat, gepatitlar, jigar etishmovchiligi, jigar sirrozi, ensefalopatiyalar, pecheni, giperazotemiya, salmonellez, disbakterioz
Makrogol 4000	Forlaks	Nojuya ta’sirlari aniqlanmagan	Qandli diabeti, gipertoniya-si, buyrak va jigar etishmovchiligi, yurak-qon tomir

			etishmovchiligi bor qariyalarda qabziyat bulganda.
1.5. Kastor moyi			
Kastor moyi	Kastor moyi	Qusish, qorinda spastik ogʻriqlar, bachadon qisqarishi, ingichka ichakda surilishni buzilishi, gipokaliemiya. Man etilishi: yogʻda eruvchi zaxarlar bilan zaxarlanish (kerosin, benzin, tetraxlormetan, benzol) erkak paporotnik ekstrakti bilan birga ishlatish mumkin emas	Epizodik qabziyatlar, bemorni rentgen tekshiruvga tayyorlash, tugʻruqni stimullashda
2. Ichakdagi massani hajmini oshiruvchilar			
Dengiz karami	Laminarid (yod va bromli tuzlar, alginat, mannit, laminarin, vitamin V1, V2, V12, S i D, mikroelementlar saqlaydi)	Uzoq qullanganda yodizm keltirib chiqaradi Glomerulonefrit, gemorragik diatez, qalqonsimon bez faoliyati buzilganda mumkin emas	Surunkali atonik qabziyatlar, ayniqsa aterosklerozi bor kasallarga buyuriladi
Podorojnik urugʻi	Mukofalk	Meteorizm Man etilishi ichak tutilishi, qandli diabet, 12 yoshgacha bolalarga	Xomiladorlarda qabziyat bulganda, tugʻri ichak yoriqlari, gemorroy, Kron kasalligi borlarga
3. Ichak shilliq qavatini yogʻlovchi, axlatni yumshatuvchilar			
YUrak ishemik kasalligi bulgan katta yoshli bemorlarda ogrik kukrakning chap kismi yoki orka kismida (reflekt stenokardiya) buladi. Kup bemorlarda kungil ayonishi va kayd kilish- ovqat bilan aralash, keyinrok esa ut suyuqligi bilan aralash keladi. Tana xaroratining kutarilishi- subfebrildan to baland xaroratgacha kuzatilishi mumkin. Utning ut yulidan utmasligi sababli kasallar 2-3 kundan sung o'tkir ut yuli ogrigi bilan birga terining va sklera shillik kavatining sargayishi kuzatiladi.

Sabablar.

Ut va ut yullari kasalliklari funksiyalari buzilishiga olib keluvchi omillar juda kup bulib, ularning eng kupi kuyidagilardir:

- Noratsional ovqatlanish (katta kaloriyalı ovqatlar va usimlik tolalarining etishmasligi), Ut pufagi innervatsiyasining buzilishi,

- Ut pufagi va ut yullari tugma nuksonlari (ut pufagi shaklining uzgarishi- yoysimon, aylangan, chuzilgan va b.lar)

- Semizlikdagi gipodinamiya,

- Infeksion kuzgatuvchilar (lyambliyalar) yoki gelmentlar (jigar suruvchisi)ning ta'siri natijasida yalliglanish jarayonlarini rivojlanishi,

- Ut suyukligi (staz) yurishining ximiyaviy tarkibi uzgarishi natijasida yoki dori vositalari (anabolik steroidlar, tiazid diuretiklar, estrogenlar, eritromitsin, linkomitsin, indometatsin va b.lar) ni kabul kilish,

- Ut toshi kasalligi. Ut pufagi bushligida toshlarning bulishi uning xarakatiga tusiklik kilib yalliglanish jarayonini keltirib chikaradi.

Klassifikatsiya.

Ut pufagi funksiyasining buzilishi xolatida o'tkir va surunkali xoletsistit turlari ajratiladi, buning sababi bulib ut toshi kasalligi (kalkulez xoletsistit) va toshsiz kasalliklari (nokalkulyoz xoletsistit) bulishi mumkin. Birinchi xolat ut chikarish yulining tusilib kolishi sababli ogirroq xolat bulib xisoblanadi.

O'tkir xoletsistitni 3 ta shakli bor:

- Kataral, kuchsiz klinik belgilar (2 kundan 7 kungacha)i bulib dori vositalari bioan davolansa tez utib ketadi,

- Flegmonoz, kasallik belgilari yakkolrok namayon buladi,

- Gangrenoz, jarroxlik yordamini talab kiladigan xolat.

Ut yullarining xarakati buzilsa diskeniziya deb nomlanib atonik (funksiyasining susayishi) va gipertonik (funksiyasining kuchayishi) turlari mavjud.

Vrach urdamini talab kiladigan xavfli belgilar.

- Terining sarikligi va kichishishi,

- ut pufagi va ut yullari buzilishini kursatadigan belgilarning 2-3 kun davomida avjud bulishi,

- Ung kovurgalar osti soxasida ogrik biln kechadigan jigarning o'tkir ogrigi,

- Jigardagi o'tkir ogrik butun korin soxasiga tarkalib, xolsizlik va charchoklin bilan birga kelsa.

2. Jigar va o't yo'llari kasalliklarida farm yordam.

Farmatsevtik yordam.

- Ut xaydovchi preparatlarni ovqatdan oldin yoki ovqat paytida oz miqdordagi suv bilan kabul kilish lozim,

- Diareyaga moyilligi, yugon ichak yalliglanishi bulgan xolatlari tarkibida ut komplekslari bulgan ut xaydovchi preparatlarni berish mumkin emas,

- Ut xosil bulishi va utni xaydashni yulga kuyuvchi preparatlarni berish parxez bilan birga bulishi kerak,

- Ut pufagi va ut yullari kasallangan bemorlar ovqatni tez- tez, kam- kamdan va bir xil vaktida kabul kilishlari lozim. Sifatli ovqat ratsionini kasallik boskichiga karab aniklanadi. Xurujlar orasida ozik tolalariga boy, yog, achchik, kovurilgan, alkogoldan xoli bulgan taomlar berilishi kerak. Xolelitiaz xolatida un maxsulotlari, krupa, gusht (chuchka, mol, kuy gushtlari), balik, tuxumlarni ist'emol kilishni kamaytirish kerak. Kasallikning zurayishida parxez ximiyaviy va mexanik kup tarkibli bulishi, usimlik kletchatkalaridan xoli bulishi kerak. YAlliglanishga karshi parxezda osh tuzini ist'emol kilishni kamaytirish va ozik oksillari bilan boy taomlarni ist'emol kilish lozim,

- Utning kupayib kolishini oldini olish maksadida ovqatni ist'emol kilingandan sung 30- 40 dakika gorizental xolatda yotish lozim,

- SHuni esda tutish joizki, ta'sir etuvchi moddasi sifatida artishok bulsa, uning engil diuretik ta'siri mavjud,

- Ba'zi kompleksli terapiyada beriladigan fermentli preparatlar tarkibidagi ut komponentlari xisobiga ut xaydovchilik ta'sirini namoyon kiladi,
- Ut pufagi va ut yullari kasalliklari bulgan kasallar ichaklarni tozalash (qabziyatni oldini olish uchun) zarur. Artishok preparatlarini kup kullash ichning ketishiga olib keladi,
- SHuni bilish kerakki, Magniy sulfat ut xaydovchi va surgi ta'sirga ega. Jigarining o'tkir ogrigining 1 chi kunlarida magniy sulfatni surgi sifatida berish mumkinmas,
- Ut pufagi va ut yullarining surunkali kasalliklarida ut surgi preparatlarni uzok muddat 10-20 kun kabul kilish kerak,
- Usimliklardan olingan ut xaydovchi preparatlarning noj'uya ta'sirlari kamdan kam kuzatilib, preparat tarkibidagi ba'zi moddalarga sezuvchanlik natijasida kelib chikadi. Terining kichishishi, kizarish, diareya kurinishidagi allergik xolatlar kuzatilishi mumkin
- Utning tuplanib yigilishiga olib keladigan preparatlarni buyrak, jigar, ut pufagi, ut va siydik yullari kasalliklarning xurujida kabul kilib bulmaydi,
- Ut pufagi va ut yullari kasalliklari bulgan kasallarga ogir jismoniy ishlar, tananing nokulay xolatidagi ishlar, kattik silkinishli uzok safarlarga chikish man etiladi. Sovuk olishdan saklanish lozim! Jigar funksiyasining buzilganligini tiklash uchun gepatoprotektorlar bilan birga V gurux vitaminlari, askorbin kislotasi, mikroelementlarni berish samarali ta'sir kursatadi. Mikroelementlari bulgan polivitaminli komplekslarni berish tavsiya etiladi.
- Gepatoprotektorlarni ovqatdan sung, chaynamasdan va oz miqdordagi gazlanmagan suv bilan kabul kilish lozim,
- Gepatoprotektorlarni kullash mumkin bulmagan xolatlari bu preparatning ayrim komponentlariga sezuvchanlikning ortib ketishi xolatidir,
- Ba'zi xollarda gepatoprotektorlarni kabul kilish natijasida ichning buzilishi, xazm yullarida noxushlik, kungil aynishi kabi belgilar kuzatilib ularning bulishi preparat kabul kilishni tuxtatishga majburlamaydi va preparatni ovqatdan sung minimal dozaga tushirish mumkin,
- Gepatoprotektorlar bilan davolash uzok vakt (1 oy va undan kup) davom etilganligi uchun uni kabul kilishda dozalarga kattik rioya kilish kerak,
- Xavfli xolatlar kuzatilganda (gepatotoksik preparatlar qabul kilinganda, ximiyaviy va radiatsion muxitlarda ishlash xolatlarda) gepatoprotektorlarni kasallik oldini olish maksadida kullash mumkin,
- SHuni esda tutish kerakki gepatoprotektorlar tarkibida artishok usimligining ta'sir kiluvchi moddasi diuretik va ich surgi ta'sirga ega,
- Ovqat ratsioni kup tarkibli bulishi, lekin ekstraktiv moddalari kam bulishi-(kaynatilgan gusht shurvasi, sous va b.lar) yogli maxsulotlari bulgan taomlar, achchik gazaklar, kovurilgan ovqatlar, shur va dudlangan maxsulotlardan xoli bulishi lozim. Ovqat rafionida usimlik kletchatkasi bulgan maxsulotlar (mevalar, sabzavotlar, non, un va b.lar) bulishi kerak,
- Kuniga 4- 5 marta ovqatlanish, lekin porsiyalar katta bulmasligi, kechki tushlik uxlashdan 3 soat oldin bulishi kerak,
- 1 kunda ichiladigan suyuqlik 1- 1,5 l (asosiyismi kunning birinchi yarmida) bulishi kerak,
- Jigari kasal bulgan bemorlarga ogir jismoniy xarakat va jismoniy mexnat kilish ruxsat etilmaydi,
- Alkogol ichimliklari ist'emol kilishdan voz kechin, dori preparatlari va toksik moddalar bilan ishlaganda extiyot choralarini kurish kerak.

3. Terining zamburugli kasalliklari turlari.

Rang-barang temiratki-qo'zg'atuvchisi terining muguz qavatida joylashib, ko'p terlaydigan va terining kimyoviy tarkibi o'zgarib turadigan kishilarda tez ko'payadi.

Ko'krak, orqa, bo'yin, kamdan-kam hollarda oyoq-qo'llarda, qorinda, boshning sochli qismida keskin chegaralangan va turli shakl va kattalikdagi jigarrang dog'lar yuzaga keladi.

Dog'lar rangi pushti-sariqdan to'q-qo'ng'irgacha, ko'pincha sutli kofe rangida bo'ladi.

Dog'lar yuzasi ko'zga sal ilg'aydigan kepaksimon tangachalar bilan qoplanadi

sub'ektiv sezgilar bo'lmaydi, axyonda badan sal qichishishi mumkin **Rang-barang temiratk**-qo'zg'atuvchisi terining muguz qavatida joylashib, ko'p terlaydigan va terining kimyoviy tarkibi o'zgarib turadigan kishilarda tez ko'payadi.

D a v o s i . Zararlangan teriga yashil sovun, Vilkinson mazi, 10% li salitsil spirti eritmasi, 10-20% li oltingugurt moyi, 10% li oltingugurt va 5% li salitsil moyi aralashmasi yoki lamizil, travogen, klotrimazol surtiladi.

bir hafta mobaynida 60% li giposulfit eritmasi va 6% li xlorid kislota eritmasini ketma-ket surtish yaxshi natija beradi (Demyanovich) metodi.

Eritrazma.

Kasallik kuzgatuvchisi psevdomikozlar qatoriga kiritiladi son sohasida, qo'ltiqda, ayollarda esa sut bezlari ostida qizil jigar-rang tusli dog'lar paydo bo'ladi dog'larning yuzi sal po'st tashlab turadi, badan bir oz qichiydi, ko'pincha sub'ektiv sezgilar bo'lmaydi, zararlangan joy qizarib shishib turadi va pufakchalar paydo bo'ladi.

D a v o s i . kepaksimon temiratkidagidek po'st tushiradigan va dezinfeksiyalovchi moddalar buyuriladi.

Cnov epidermofitiyasi

Sonning ichki yuzasida kattaligi tangadek keladigan pushti qizil rangli dog'lar paydo bo'ladi.

Dog'lar cheti teri satxidan bolishga o'xshab ko'tarilib turadi, ular yuzasida mayda-mayda pufakchalar, pustulalar bo'lib, markazida kepaksimon tangachalar ko'rinadi.

Dog'lar periferiyaga o'sa borib, o'rtasi oqara boshlaydi va halqasimon yoki marjon shaklini hosil qiladi.

Bemorni badan qichishishi va og'riq bezovta qiladi.

D a v o s i . Kasallik o'choqlariga 1-2% li yod nastoykasi, 3-5% li oltingugurt yoki qoramoy malhamini surtish tavsiya etiladi. 0,25% li kumush nitrat, 1-2% li rezorsin, 2% li borat kislota eritmasi tavsiya etiladi umumiy davo- 10% li kalsiy xlorid eritmasi

D a v o s i . Oyoq barmoqlari orasidagi burmalarga 2% li yod, nitrofungin eritmasi, salitsilbenzoat yoki 5% li oltingugurt, lamizil malhami surtiladi

kasallik o'tkir kechganda desensibilizatsiyalovchi umumiy davo buyuriladi: venaga 10% li kalsiy xlorid, 30% li giposulfat, 10% li kalsiy glyukonat eritmali yuboriladi

Antigistamin preparatlardan dimedrol, suprastin, tavegil, diazolin, diprazin va boshqalar, V va S guruh vitaminlari, nikotin kislotasi beriladi

antifungal dorilar - lamizil (250 mg dan kuniga 1 mahal, 14 kun davomida), itrakonozol (30 l mg dan kuniga 1 mahal, 15 kun davomida) tavsiya etiladi.

mahalliy davo - Kastellyani bo'yog'i, travokort, lamizil kremi tayinlanadi

ikkilamchi infeksiya bulganda antibiotiklar va sulfanilamid preparatlari tavsiya etiladi.

TERINING VIRUSLI KASALLIKLARI

Oddiy va urab oluvchi uchuq.**Oddiy uchuq**-teri qizarib, g'uj-g'uj mayda pufakchalar xosil bo'ladi. ular asosan giperemiyalanib turgan teri yuzasiga toshadi, ichida tiniq suyuqlik bo'ladi.

Pufakchalar ichidagi suyuqlik bora-bora loyqalanadi, tortishib og'riydi. Ular tezda yorilib, sarg'imtir yupqa qora qo'tir bilan qoplanadi. Oddiy uchuq asosan lab burchaklarida, lunj-da, burun qanotlarida, og'iz bo'shlig'i shilliq qavatida, ko'z qovoqlarida va jinsiy a'zolarida uchraydi.

Davosi-anilin bo'yoqlari, metilen ko'ki, brilliant yashili, Kastellyani bo'yog'i surtiladi.

Qora qo'tir bo'lgan joylar, yoriqlar, eroziyalarga 3-5% li oq simob malhami, sintomitsin emulssiyasi, 1-3% li oksolin, interferon, bonafton, gossipol, florenal malhamlari surtiladi.

Namlangan soxalarni quritish va dezinfeksiyalash uchun 1-4% li kumush nitrat, 1-2%li pioktanin eritmali ishlatiladi.

Og'iz bo'shlig'i yallig'langanda borat kislota, vodorod peroksid, kaliy permanganat, etokridin laktat, natriy bikarbonat eritmali bilan tez-tez chayqab turish buyuriladi.

Atsiklovirini tablet-ka (0,2 g.dan kuniga 5 maxal) yoki malham holida ko'llanadi .

O‘rab oluvchi yoki belbog‘simon uchuq

- filtrlanuvchi neyrotrop virus qo‘zg‘atadi.
- inkubatsion davri 7-8 kun.
- mustaqil yoki biron bir boshqa kasallik (o‘sma kasalliklari, zotiljam, plevrit, leykoz, limfogranulematoz va boshqalar) asorati sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

O‘rab oluvchi yoki belbog‘simon uchuq

- filtrlanuvchi neyrotrop virus qo‘zg‘atadi.
 - inkubatsion davri 7-8 kun.
 - mustaqil yoki biron bir boshqa kasallik (o‘sma kasalliklari, zotiljam, plevrit, leykoz, limfogranulematoz va boshqalar) asorati sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.
- Davosi-NYAKV, vitaminlar (V5,V6,S), autogemoterapiya, gammaglobulin, antibiotiklar (penitsillin, levomitsetin, ampitsillin) buyuriladi.

ultrabinafsha nurlar, bo‘yin simpatik tugunlari sohasiga diatermiya, novokainli elektroforez, 50% li interferon mazi bilan fonoferez qilinadi.

1-2 % li oksolin mazi, 5% li florenal, 20-25% li interferon, «lorinden S», «dermazolon» va spirtli anilin eritmalari ishlatiladi.

Atsikloveni tabletka yoki malham xolida qo‘llash mumkin

Seboreya

Seboreya asosida teridagi yog‘ bezlari sekretor funksiyasi-ning izdan chiqishi yotadi; bunda yog‘ ko‘p miqdorda xosil bo‘ladi va sifat o‘zgarishlariga uchraydi.

Klinikasi. Quruq va yog‘li seboreya farq qilinadi; ajralayotgan yog‘ning konsistensiyasiga qarab, yog‘li seboreya, suyuq va quyuq shakllarga bo‘linadi.

Quruq seboreyaning uzoq davom etishi natijasida ekzematoz o‘choqlar hosil bo‘lishi

YOg‘li seboreya esa xusnbuzar va sochning to‘kilishiga olib kelishi mumkin.

Yog‘li seboreya.

Seboreyaning bu shakli odam organizmida an-drogenlarning ko‘payib ketishi bilan bog‘liq, bunda teri yog‘lab qo‘yilgandek bo‘lib, yaltirab turadi, yog‘ bezlarining og‘zi yog‘ tiqinlari bilan to‘lib, moy surtib qo‘yilganni eslatadi. Sochlar moylangandek bir-biri bilan yopishib turadi, keyinchalik sochlar to‘kila boshlaydi, bu erkaklarda tepakal paydo bo‘lishiga va ayollarda sochning xiyla siyraklashib qolishiga olib keladi. Boshning sochli qismida kulrang-jigarrang tangachalar ko‘zga tashlanadi. Bunday terida seboreyali ekzema, ateroma, alopetsiya, xusnbuzarlar rivojlanishi mumkin. Teridagi biokimyoviy jarayonlarning buzilishi oqibatida uning rN mu‘iti o‘zgaradi va yiringli kasalliklar avj oladi.

Suyuq yog‘li seboreyada teridagi moy , muguz qavat tangachalari bilan aralash bo‘ladi.

Quruq seboreya.

Teridagi yog‘ bezlaridan yog kam ajralishi natijasida kelib chiqadi. Bunda teri qurib, po‘st tashlaydi, boshda mayda kepaksimon tangachalar (qazg‘oq) yig‘iladi. So-chlar xiralashib, mo‘rt, tez to‘kiladigan bo‘lib qoladi. Seboreyaning har ikki xilida ham bosh qichiydi.

Seboreyaning **aralash shakli** yog‘li va quruq seboreyaning qo‘shma belgilaridan iborat bo‘ladi; bunda yog‘li seboreya simptomlari ko‘pincha boshning sochli qismi va yuzda kuzatilsa, quruq seboreya ko‘krak va orqada ko‘riladi.

Davoni umumiy amaliyot shifokori dermatolog maslahatidan keyin olib boradi.

Birinchi galda seboreyaning avj olishiga ta’sir ko‘rsatadigan omillar va yo‘ldosh kasalliklarni bartaraf etish kerak.

Vitamin A,E,S va V guruhiga mansub (V1,V2,V6,V12) preparatlarni qo‘llash yaxshi natija beradi.

Bemorga gormonal preparatlar (pregnin, ti-reodin va boshqalar) tavsiya qilishda uning gormonal fonini inobatga olish zarur.

Trankvilizatorlar (seduksen, ele-nium) magniy sulfat in’eksiyasi buyuriladi.

Oddiy husnbuzar.

Yog‘ bezlari faoliyatining buzilishi tufayli teriga turli xil toshmalar toshadi.

Klinikasi. Toshmalar asosan yuz, ko‘krak va gardon terisiga toshadi. YOg‘ sekretining teri ichida turib qolishi piokokkli kasalliklarning rivojlanishi uchun qulay sharo-it tug‘diradi.

Dastlab tugunchalar, soʻngra pustulalar yuzaga keladi. Pustulalarning qoʻshilishi va terining chuqur qavat-lariga tarqalishi infiltrat va abscesslar paydo boʻlishi-ga olib keladi, ular teshilib yiring oqishi va chandiq xosil qilib bitishi mumkin.

Davosi-kasallik avj olgan davrida antibiotiklar (tetratsiklin, eritromitsin, sefamizin va boshqa-lar) qoʻllaniladi. Stafilokokkli anatoksin, antistafilokokkli gammaglobulin, autogemoterapiya buyuriladi.

Vitaminlar (V1,V6,V12,E,A,S) bilan davolash,

Parhezga rioya qilish, ichki aʼzolar kasalliklarini bartaraf etish maqsadga muvofiq.

Mahalliy davo sifatida kuriozin, salitsil kislotasi, re-zorsin, levomitsetindan iborat spirtli eritmalar, antibiotikli malhamlar, kriomassaj, elektrokoagulyasiya va boshqalardan keng foydalaniladi.

Husnbuzarning ogʻirroq shakllarini (absessli) davolashda antiandrogen taʼsir etuvchi skinoren, diana va aromatik retinoid - roakkutan preparatlari qoʻllaniladi.

Nazorat savollari.

- 1.Teri kasalliklarida davolashda retseptsiz beriladigan dori vositalarining oʻrni qanday.
- 2.Terining zamburugʻ kasalliklarida, moddalar almashinuvi buzilishidan kelib chiqadigan xusnbuzar, herpes viruslari keltirib chiqadigan uchuqlarni davolashda qanday dori vositalari qoʻllaniladi.
- 3.Oʻrab oluvchi yoki belbogʻsimon uchuq qanday kasallik.
4. Jigar va oʻt yoʻllarining surunkali kasalliklarida retseptsiz ishlatiladigan dori vositalaridan oqilona foydalanish deganda nimani tushunasiz.
5. Oʻt yoʻllari kasalliklarida farm yordam tamoyillari nimadan iborat.

Asosiy va qoʻsimcha oʻquv adabiyotlar hamda axborot manbaʼlari

Asosiy:

- 1.Фармацевтическая опека В.П.Зупанец , В.А,Черных, В.А.Усенко.— Х.:»золотые страницы», 2002.— 264 с.
- 2.Farmatsevtik yordam fanidan maʼruzalar matni 2006 yil.
- 3.Maxsumov M.N., Malikov M.M. Farmakologiya. T. Ibn Sino nash. 2006 y.
- 4.Azizova S.S. Farmakologiya. T. Ibn Sino 2002 g.
- 5.Харкевич Д.А Фармакология . М. Медицина 2008 г.

Qoʻshimcha:

- 7.Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "Oʻzbekiston" NMIU, 2017. – 29 b.
- 8.Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taʼminlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "Oʻzbekiston" NMIU, 2017. – 47 b.
- 9.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "Oʻzbekiston" NMIU, 2017. – 485 b.
10. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida" gi PF-4947-sonli Farmoni. Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2017 y., 6-son, 70-modda
11. Клинические рекомендации и фармакологический справочник под ред. И.Н. Денисова, Ю.Л. Шевченко, Ф.Г. Назирова. М.2005 г.

Internet va Ziyonet saytlari

- 12.www.ziyonet.uz
- 13.www.Lex.uz.
- 14.www.uzpharm-control.uz
- 15.www.doridarmon.uz
- 16.www.uzpharmsanoat.uz

9-MA'RUZA

MAVZU: **POLIGIPOVITAMINOZ, MIKROELEMENTLAR XOLATIDA F.YO TAMOYILLARI. DEZINFEKTSIALOVCHI DORI VOSITALAR HAMDA RETSEPTSIZ BERILADIGAN DORI VOSITALAR RO'YHATI VA ULARNI QO'LLASHDA FARMASEVTIK YORDAMNING AHAMIYATI.**

Reja:

1. Poligipovitaminov sabablari.
2. Yosh bolalarda gipovitaminovning asosiy sabablari.
3. Zamonaviy vitamin preparatlarining klasifikatsiyasi:.
4. Gipovitaminovni oldini olish to'g'risida nemedikamentoz anjumanlar.
5. Dezinfektsialovchi dori vositalar
6. retseptsiz beriladigan dori vositalar ro'yhati va ularni qo'llashda farmasevtik yordamning ahamiyati.

1. Poligipovitaminov sabablari.

Vitaminlar- odam organizmidagi almashinib bo'lmas oziq-ovqat elementlari xisoblanadi.

Vitaminlar-oziq-ovqatlarning almashinib bo'lmas faktorlari bo'lib, Ular o'sish, rivojlanish davrida va odam xayoti davomida juda zarur. Vitaminlarning asosiy vazifasi bu metabolizim jarayoni bo'lib, u o'z navbatida fermentlar bilan bog'liq(ferment molekulalarining komponentlari koferment strukturasi o'xshash.)Organizmda vitaminlarning yetarli darajada bo'lmasligi moddalar almashinuvi reaksiyalarini izdan chiqaradi va gipovitaminov (vitaminlarning yetishmasligi) yoki avitaminov (vitaminlarning yo'qligi) patologik xolatlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ukrainada oziq-ovqat tarkibidagi vitaminlarning oz miqdorda bo'lishi savol qilib qo'yilganda 80-90% kattalar va bolalarda vitamin C yetishmovchiligi yetarli darajada taminlanmagan, 40- 80% larda vitamin B1,B2,B6 va folat kislotasi, 40% dan ko'p davlatlarda B-karotin retinala tanqisligi gipo va avitaminovlarning rivojlanishining asosiy sababi bu oziq-ovqat bilan yetarli darajada vitaminlarning organizimga tushmasligi. Shunga ko'ra egzogen ko'rinishidagi vitamin tanqisligi xaqida fikir yuritilmoqda. Vitamin tanqisligi oziq-ovqat tarkibida yetarli darajada bo'lganda xam, ba'zi utilizatsiya jarayonining izdan chiqishi yoki vitaminiga muxtojlik muxtojlik darajasi yuqori bo'lganda xam kelib chiqishi mumkin. Bunday gipo- va avitaminovlar ikkilamchi yoki endogenli deb ataladi. Shuni aniq bilish kerakki, vitaminlar yetishmovchiligi xam umumiy bo'lishi mumkin. Qasidur bir vitaminning yetishmovchiligi xam juda axamiyatli. Shuning uchun vitaminlar yetishmovchiligi aniqlanishida poligipovitaminov termenini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Yosh bolalarda gipovitaminovning asosiy sabablari.

POLIGIPOVITAMINOZ SABABLARI.

1.EKZOGEN:

- Alimentar faktorlari: betartib ovqatlanish, rafinirlangan maxsulotlarni iste'mol qilish, iste'mol maxsulotlarini noto'g'ri saqlash va noto'g'ri tozalash;
- Ichak mikroflorasining tarkibini o'zgarishi, oshqozon ichak tizimi kasalligini keltirib chiqaruvchi ba'zi vitaminlar (B guruxidagi, vitamin K, biotin) dizbakterioz gelmintozlar va boshqalar.

2.ENDOGEN:

- JKTda vitaminlarning qisman buzilishi oshqozonda kislotasi xosil bo'lish fuksiyasini o'zgartiradi (B1,B5,C), Transport oqsillarining xosil bo'lishining izdan chiqishi (B12);
- Ichak kasalliklarida vitaminlarning so'rilishi va tashilishining izdan chiqishi, o't ajralishining izdan chiqishi ta'sirida yog'da eruvchan vitaminlarning so'rilishini izdan chiqishi;
- Ba'zi bir buyrak kasalliklari yoki ferment oqsillarining genetic o'zgarishi asoratidagi aktiv shakildagi vitaminlarning (kofermentli) izdan chiqishi;

- Tashqi muxit ta'sirida organizimdan vitaminlarning tezlik bilan chiqib ketishi, infeksiyon-toksik jarayon asoratida, va shunga o'xshashlar;
- Vitaminlarga yuqori fiziologik ehtiyoj (o'suvchi organism, xomiladorlik).
Gipovitaminozning kattalarda keng tarqalish sabablari:
- Antibakterial terapiya;
- Surunkali, jismoniy va psixosotsial zoriqish;
- Zararli odatlar (spirtli ichimliklarni surunkali istemol qilish, kofe, chekish, noto'g'ri ovqatlanish);
- Noto'g'ri parhez;
- Oshqozon ichak sistemasida surunkali kasalliklar;
- O'tkir va surunkali infeksiyon kasalliklar;
- Operatsiyadan kegingi davr;
- 60 yoshdan yuqori davr;
- Meva va sabzavotlarni mavsumiy yetishmasligi;
- Xomiladorlik va emiziklik davri.

Xomiladorlikdagi gipo vitaminoz.

Xomiladorlik davridagi gipovitaminozlar yetishmovchiligi faqat xomiladorlik davridagi kasalliklarni emas balki tug'ruq vaqtidagi asoratlarni, tug'ma paroklarning rivojlanishi, shunga ko'ra yosh bolalar kasalliklari birinchi o'rinda bo'lip xattoki nogironlik va o'limlarga ham sabab bo'lishi mumkin. Ba'zi bir ma'lumotlarga ko'ra xomiladorlik vaqtidagi gipovitaminozda genetik faktorlar va kimyoviy yo'ki infeksiyon aktiv teratogenlarni ham ta'siri bor. Rus olimlarining izlanishdagi ma'lumotlarga ko'ra 100% vitaminlar bilan taminlangan xomilador ayolning o'zi yo'q. Yoshdan, iqlimdan yashash joyidan kasal koridan qat'iy nazar 70-80% kuzatuvlarda 3 xil yo'ki undan ko'p vitaminlar yetishmovchiligi aniqlangan. Pitaniya instituti RAMN olimlari tomonidan o'tkazilgan izlanishlar shuni ko'rsattiki xomilador ayollarning eng kam taminlangan vitamin ko'rsatkichlari B(27,0-59,9%) va C(61%) guruhlarida vitaminlar ichida B guruhi xomilador ayol uchun birinchi o'rinda chunki, unda vitamin B₁₂ (folat kislata)si bor, shunga ko'ra uning metabolitlari nuklin kislota sintozida ishtirok etadi va miyyada qon aylanishini me'yorlashtiradi. Xomilada xavf paydo bo'ladi, qachonki bo'lajak ona xomiladorligini bilmay qolgan vaqtda, ya'ni xomiladorning erta oylarida nerv trupkalarining rivojlanishida potologik xolatlar kuzatiladi. MNSning rivojlanishining izdan chiqishi bittada vitamin yetishmovchiligi B(B₁,B₂,B₃,B₆,B₁₂, folat kislatalari) bilan bog'liq holda bo'ladi. Boshqa vitaminlarning yetishmovchiligi oqibatida gidrotefaliya, siydik yo'lining rivojlanishining buzulishi, yurak qon tomir sistemasi (vitamin A yetishmovchiligi oqibatida), xomilaning vaznining pastligi va rivojlanishning buzulishi (vitamin E yetishmovchiligi).

Rejalashtirilmagan xomiladorlik vaqtidagi gipovitaminoz faktorlari bularga:

- Rejadan tashqari xomiladorlik;
- Xayot tarsi (parhez, betartib ovqatlanish, chekish va boshqalar);
- Oral kontratseptik vositalarni noto'g'ri qo'llash;
- Xronik kasalliklar va uzoq vaqt dori vositlarini istimol qilish.

Xomiladorlik davrida bo'lajak ona organizmida fiziologik o'zgarishlar ro'y berib, moddalar almashinuvining o'zgarishi va vitaminlarga, minerallarga talab 185% ga ortadi. Boshqa tarafdin olganda organizmida ishtaxaning pasayishi, qusish, iste'mol qilinayotgan oziq-ovqatlarning o'zgarishi xam gipovitaminozga ya'ni vitaminlarning kamayib ketishiga sabab bo'ladi. Onaning noto'g'ri yoki kam ovqatlanishi natijasida xomilador va laktatsiy davridagi onada iste'mol faktorlari kamayib ketadi, natijada ona sutida xam vitaminlar va ularning tarkiblari kamayib ketadi. Shularning oqibatida yosh bolalarda gipotrafiya, anemiya, aqliy tarafdin orqada qolish kabilar ro'y berishi mumkin

Yosh bolalarda gipovitaminozning asosiy sabablari:

- Tug'ilgandan boshlab suniy ovqatlantirish;

- Bo'yining to'xtovsiz o'sishi;
- Keragidan ortiq bosim;
- Stress xolatlari;
- Balanslanmagan yoki bir xil ovqatlanish;
- Sezon davridagi mevalar va sabzavotlarning yetishmovchiligi.

VITAMINNING NOMI	BIOLOGIK AXAMIYATI	GIPOVITAMINOZ BELGILARI	SUTKALIK O'RTACHA DOZA
Vitamin A (retinol; karotinlar-provitamin)	Biologikaktivformalar-retinol, retinal, retinol kislota. O'sishni vakletkalarni infferirovka sinime'yorlashtiradi, biologik oksidlanish jarayonida ishti roketadi, antioksidant ta'sirini namoyon qiladi, spetsifik va nospetsifik sintezda ishti roketadi.	Qorong'ulikdako'raolmaslik, quruqlik sochda, terida, shilliq qavatlarda, bolalarni osishini sekinlashuvi, shomollashlarga sezuvchanlik	1-1,5 mg (3300-5000 ME) 3 yoshgacha bolaga 0.5-1 mg (1650-3300 ME) XOMILADOR VA EMIZILIKLARDA 2 mg (6000 ME)
Vitamin D (kalsiyferrollar)	1,25-digidroksikalsiyferrol korinishida 24-25 digidroksukalsiyferrollar kalsiy va fosfor almashinuvida ishti roketadi, ATF xolsil bolishida ishti roketadi.	Bolalardaxitni rivojlanishi, osteoporoz, kattalardakaries,	500 ME (1ME=0.025mg) xomilador va emizikli ayollarga 400-500 ME
Vitamin E (tokoferollar)	Kopchilik biologik effektlar antioksidant ta'sirini ko'rsatadi	Bepushtlik, majburiy abortlar, vaqtidan oldin tug'ildan bolalardage molitikanemiya, mushak distrofiyasi, rak, yurak qon tomir teri va boshqalarga saliklarni rivojlanishiga moyillik.	12-15ME, yangitug'ilgan chaqaloqlarga 5 ME
Vitamin K (naftoxinonlar)	Asosiy biologikaktiv forma-menoxinon	Qon ketishini kuchayishi, chaqaloqlarda gemoroylar	70-140 mkg.
Vitamin F	Lipoproteidlarning sintezining strukturasini transportida biologik prostaglandin.	Folikulyar xerotos.	**

3. Zamonaviy vitamin preparatlarining klasifikatsiyasi:.

Vitaminning nomi	Biologik ahamiyati	Gipavitaminoz belgilari	Sutkalik ortacha do'za
------------------	--------------------	-------------------------	------------------------

Vitamin B1 (tiyamin)	Tiyamin fosfat formasida (asosiysi kokarboksilazalar) uglivotlar, yoglar, aminokislotalar, nukleotidlar sintizida, stiroyitlar, yog'kislotalari, atiktilxolinlar va boshqalar oksidlanishida ishtirok etadi	Myakartning funksiyasining susayishida (aritmia) skeletlar va silig' mushaklar, preferik nerv sistemasining susayishida, qo'zg'aluvchanlikning oshishi, bosh og'ri, hotira va diqatning yo'qolishi	1,2-2,1mg Bolalarga 0,3 -1,5 mg
Vitamin B2 (riboflavin)	Flaviniviy ko'fermentlar korinishida. Neramediatirlarning inaktivatsiyasi ko'rinishida	Shiliq qavatlarda dermatitlarning hosil bo'lishi, kontuktivit, umumiy diqatning buzilishi, animiya, bosh og'rig'i	1,5-3 mg Bolalarga 0,4-1,8 mg
Vitamin B1 (pantotent kislatasi, kalitiiy pantotent)	Ko'nenzim A ko'rinishida sintes va katabo'lizim jarayonlarida qatnashadi, neramediatorlar, gema, atitilglukozaminlar sintezi va boshqalar. Tabiiy va yod narsalarning zararsizlantirishda ishtirok etadi	Nevrologik, gastroenterologik buzilish, terida o'zgarishlar, sochning to'kilishi va siraklashishi	10-12 mg Homlador va emiziklik ayolarga 15-20 mg
Vitamin B5 PP (nikatin kislatasi)	Ko'ferment ko'rinishida-NAD va NADF. Gipolipidemik tasir ko'rsatib barcha pog'onalarda oksidlanishda ishtirok etadi		15-20 mg Bolalarga 5-15 mg
Vitamin B6 (pidoksin)	Piriloksan kofermenti ko'rinishida, aminokislota va oksillarning meta bo'lizmida, neyromediatorlar hosil bo'lishida va inaktivatsiyasida, sfingolipitlar biosintezida glikogen almashinuvida qatnashadi	Ko'ngil aynishi, qusish, dermatid, nerv tizimining qo'zg'aluvchanligining oshishi, sudirgi, animiya.	1,5-3 mg Bolarga 0,4-2 mg

Zamonaviy vitamin priparatlarining klasifikatsiyasi:

- Monokomponentli (A,E, B5, C, B12 va b.)
- Polikomponentli
 - faqat yoglarda eruvchan vitaminlar
 - yog'da va suvda eruvchan vitaminlar (ko'pchilik priparatlarda)
- alohida vitaminlar yoki polivitamin tarkibli minerallar
- polivitamin tarkibli minerallar, aminokislotalar, (yoki boshqa metabolitlar).

Xozirgi kunda vitamin preparatlari xam o'z xususiyatga ega, ular xar xil guruh yoshidegilar yoki bir potalagik lasaliklarni davolashda, vitaminlar yetishmovchiligida ularning sifatiga va miqdoriga fiziologik organib qolish ro'y beradi.

Vitaminterapiyaga asosiy yo'nalish:

- gipo va avitaminozni oldini olish va davolash
- klinik ichki kasalliklar patogenetikasida va simptomatikasida terapiyani qo'lash (istisno tariqasida vitamin yetishmovchiliklarida).

Davo maqsadida monokomponentli preparatlar qo'llaniladi, ya'ni dozada kompleks vitaminlar, oldini olishni kuchaytiruvchilar qo'llaniladi, masalan: NETRON(Mili Healthcare Ltd), Neyrorubin (Mepha), Milgamma (Woerwag Pharma), Kardionat (Sperko Ukraina).

Ukraina bozorlarida tanitilgan, ko'pchilik vitamin preparatlari, gipovitaminozni oldini olish yoki davolashga mo'ljallangan.

Gipovitaminozni oldini olish to'g'risida nemedikamentoz anjumanlar.

- Sog'lom xayot tarzini ushlab turish, zararli odatlardan voz kechish, yetarli darajada fiziologik aktivlik;
- Iloji borich stress xolatlaridan uzoqlashish;
- Xar qanday ovqatlanish rasioni o'z tarkibiga o'simliklardan va xayvonlardan olingan maxsulotlar iste'mol qilish, meyorlashtirilgan va to'liq ratsionlashtirilgan iste'mol maxsulotlarini quydagi guruxlarga kiritish mumkin:
 - Sir va sut maxsulotlari,
 - Go'sht, kolbasa, baliq, tuxum;
 - Non, dukaklilar, xlopiya, makaron maxsulotlari, kartoshka;
 - Sabzavotlar (kamida olti xil);
 - Mevalar,
 - Yog'lar, o'simlik moylari, saryog'lar;
 - Ichimliklar(so'klar, kompotlar, mevali kisellar, morslar).
- Taomni tayorlash vaqtida taomlar tarkibidagi vitaminlarni saqlab qolish maqsadida, termik obrabotkani optimal vaqtga o'tkazish tavsiya qilinadi, xoxishga ko'ra sabzavotlarni xomligicha yoki dimlangan xolda iste'mol qilinadi.
- Kofe, shirinliklar, oshirma xamirli va konditer maxsulotlarini cheklash.

Ota-onalarga eslatma.

Barcha yoshdagi bolalarni kunlik dam olish va badan tarbiyasini to'g'ri rejalashtirib berish kerak. Ovqat ratsionidan iloji boricha rafinirlangan maxsulotlar, tez tayyor bo'ladigan yoki yarim tayyor taomlarni cheklash. Bola chanqog'ini chanqog'ini gazlangan ichimliklar bilan emas balki mineral suvlar, kompotlar, coklar nilan bosish kerak. Shirinliklar va konditor maxsulotlarini sotib olmaslikka xarakat qilin. Konfetlar va pirojniylar o'rniga pastila, zefir, galetniy picheniyla tavsiya qilinadi. Xar kuni bola ratsioniga mevalar qo'shing. Tvorg, kashalarni shirinligini oshirvomaslikka xarakat qilin, shaker o'rniga djemlar, vareniyalar, asal qo'llang.(istisno tariqasida allergic reaksiyalarda).

Nazorat savollari.

- | | |
|----|--|
| 1. | Poligipovitaminoz kelib chiqish sabablarini sanab o'ting. |
| 2. | Yosh bolalarda gipovitaminozning asosiy sabablari nimada. |
| 3. | Zamonaviy vitamin priparatlarining sinflanishi va qo'llanilishi. |
| 4. | Gipovitaminozni oldini olish chora tadbirlarini olib borish qanday amalga oshiriladi.. |

1.Dezinfektsialovchi dori vositalar

O'tkir respirator kasalliklar bilan kasallanish davrida quyidagi deinfeksiyalovchi vositalar ishlatiladi:

- 1.fizikaviy dezinfektsiyalovchilar (ultrabinafsha nurlar-bakteritsid lampalar, bakteritsid filtrlar, maskalar)
- 2.kimyoviy moddalar-aerozollar, eritmalar, sepiluvchi moddalar,
3. aralash

Antiseptika grek soʻzidan olingan boʻlib, anti-qarshi, septikas-chirish ma'nosini bildiradi, dezinfektsiya esa dez-yoʻq qilish, infetsere-yuqtirish degan soʻzlardan iborat.

Antiseptik va dezinfektsiyalovchi vositalar mikroblarga qarshi ta'sirga ega boʻlgan moddalar boʻlib, ular ta'sir etish kuchi va qoʻllanish usuli boʻyicha bir-biridan qisman farq qiladi. Ushbu ikki guruhga kiruvchi preparatlar kimyoterapevtik vositalarga qarshi oʻlaroq mikroorganizmlarning turiga qarab, tanlab ta'sir qilmasdan, umumiy antimikrob farmakologik ta'sir etadi.

Antiseptik moddalar deb tana yuzasidagi (teri, shilliq qavatlar), boʻshliqlardagi mikroorganizmlarni yoʻqotish uchun ishlatiladigan, dezinfektsiyalovchi vositalar deb esa, tashqi muhitdagi (kasalning kiyimi, buyumlari, xona va hakoza) mikroorganizmlarni oʻldirish maqsadida qoʻllaniladigan preparatlarga aytiladi.

Ularning mikroblarga qarshi ta'sir mexanizmi bakteriostatik va bakteriotsid xususiyatga ega. Bakteriostatik ta'sir mikroblarni oʻldirmasdan ularning koʻpayishini toʻxtatib qoʻyadi, bu xil ta'sir koʻproq antiseptik moddalarga xos. Bakteriotsid ta'sir esa mikroblarni halok etadi, bu asosan dezinfektsiyalovchi vositalarga taaluqli xususiyat.

Ushbu guruhga kiruvchi preparatlarning koʻpchiligi bir vaqtning oʻzida antiseptik hamda dezinfektsiyalovchi moddalar sifatida qoʻllanilishi mumkin. Chunki ular antiseptik modda sifatida kichik kontsentratsiyada, dezinfektsiyalovchi vosita sifatida katta kontsentratsiyalarda qoʻllaniladi.

Antiseptik va dezinfektsiyalovchi preparatlarning qoʻllanish tarixi XIX asrning 30-yillaridan boshlanadi. N. P. Nelyubin 1828 yili turli buyumlarni zararsizlantirish uchun ohakdan foydalanishni taklif etgan. Keyinroq esa Zemiulveis ohakni tibbiyot xizmatchilarining qoʻlini yuvish uchun taklif etdi. 60-yillarda J. Lister fenolni “zarasizlantiradigan” modda oʻrnida jarrohlik amaliyotiga kiritdi. Lister tomonidan joriy etilgan bu usul (antiseptika) jarrohlik amaliyotidan keyin hosil boʻladigan yiringli asoratlarning keskin kamayishiga sabab boʻladi. Uning taklifi tufayli yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olishda katta yutuqlarga erishildi. Listerning xizmati faqat jarrohlik amaliyotida emas, balki yuqumli kasalliklar bilan kurashish amaliyotida ham juda katta samaralar berdi. Bundan tashqari taklif etilgan usul mikroblarga qarshi ta'sirchan yangi kimyoviy moddalarni topish va amaliyotga joriy etishda ham katta ahamiyatga ega boʻldi. Shu tufayli qator kimyoterapevtik preparatlar kashf etildi. Bunda L. Paster, I. Mechnikov, R. Kox, P. Erlix kabi olimlarning xizmatlari alohida ahamiyatga sazovor.

Antiseptik preparatlarga qoʻyiladigan asosiy talablar: mikroblarga qarshi ta'siri yuqori boʻlishi kerak, toʻqimalarga mahalliy qitiqlovchi yoki kuydiruvchi ta'sir etmasligi shart. Hozirgi vaqtda antiseptik va dezinfektsiyalovchi preparatlar tibbiyot amaliyotida keng koʻlamda ishlatiladi. Antiseptiklar asosan eritma, surtma, liniment shaklida qoʻllaniladi.

Ushbu kimyoviy moddalar tuzilishi boʻyicha quyidagicha tasnif qilinadi:

A. Galogenlar-xloramin B, pantotsid, xlorgeksidin, yodoform, yodinol, yodopiron,

B. Oksidlovchilar-vodorod peroksid eritmasi, gidroperit, kaliy permanganat,

V. Kislota va ishqorlar- salitsil kislota, benzoy kislota, bor kislota, natriy tetraborat, piotsid, “Tratseptin” tabletkalari

G. Aldegidlar va spirtlar - formaldegid, lizoform, geksametilentet-ramin, siminal, etil spirti

D. Og'ir metall tuzlari-kumush tuzlari:kumush nitrat, protargol, kollargol, mis tuzlari: mis sulfat, rux tuzlari: rux sulfat, rux oksidi, qurg'oshin preparatlari: qurg'oshinli plastir,

E. Fenollar-karbol kislota, trikrezol, rezortsin, fenilsalitsilat, vagotil,

J. Bo'yoqlar-metilen ko'ki, brilliant yashili, etakridin laktat,

Z. Detergentlar-kationli sovunlar: serigel, demitsid, etoniy, dekametoksin, rokkal, domifen bromid, anionli sovunlar: kaliyli sovun, sovunli spirt.

I. qatronlar, neftni qayta ishlash mahsulotlari-qayin qatroni, ixtiol, vinilin, sitral, sigerol, tozalangan oltingugurt, sulsen,

Har xil tabiiy vositalar-lizotsim, umkalor, evkalimin, ASD-3 preparati, tomitsid, yapon soforasi tindirmasi, "Elekasol" yig'masi,

Y. Bit va qo'tir kanasiga qarshi vositalar-nittifor, pedilin, rid, antibit, itaks, benzilbenzoat, krotamiton.

Ushbu kimyoviy moddalarning antiseptik va dezinfektsiyalovchi ta'siri bakteriya proteidlarining koagulyatsiyalanishi, bakteriyalar pardasining buzilishi, ozod sulfidril guruhning bog'lab olinishi, bakteriya fermentlari bilan raqobatlashishi tufayli yuzaga chiqadi.

Kislotalardan borat kislota va uning natriyli tuzi qisman bakterio-fungistatik ta'sir ko'rsatadi, 2-4 % eritmasi og'iz bo'shlig'ini, ko'zni, ayrim hollarda qovuqni chayish, yuvish uchun ishlatiladi.

Benzoy kislota esa 0, 1 % eritma holida konservant sifatida ishlatiladi.

Salitsil kislota bakteriostatik, fungitsid (zamburug'larni o'ldirish) va keratolitik (teri to'qimasini emirish) xossalriga ega. Ko'pincha so'gal va qadoqlarni kuydirish maqsadida, kechikib bitadigan yaralarning chetiga surish uchun qo'llaniladi.

Ishqorlardan natriy va kaliy gidroksid kuydiruvchi ta'sir ko'rsatadi. So'gallarni yo'qotish uchun buyuriladi.

Spirtlardan tibbiyot amaliyotida asosan etil spirtining 96 % va 70 % ligi ishlatiladi. 96⁰ spirt jarrohlik asboblari (skalpel, qaychi, igna va shpritslarni) dezinfektsiya qilish uchun, 70⁰ li spirt antiseptik sifatida (qo'lni, operatsiya maydonini va boshqalar) qo'llaniladi.

Izopropil spirti etanolga nisbatan ikki barobar zaharli bo'lib, antibakterial ta'siri bo'yicha undan kuchli hisoblanadi. 68-72 % konsentratsiyasi teriga surtish uchun va ketgutni sterillash uchun ishlatiladi.

Aldegidlardan asosan formaldegid kuchli dezinfektsiyalovchi modda sifatida ma'lum. Uning 2-5 % eritmasi jarrohlik asboblari, qo'lqopni, 10 % eritmasi ekskretlarni (chiqindi), balg'amni dezinfektsiyalash maqsadida qo'llaniladi. Bundan tashqari 4 % eritmasi to'qima va a'zolarni konservatsiyalash uchun, gipergidrozda (ko'p terlash) buyuriladi.

Tibbiyot amaliyotida J. Lister tomonidan kiritilgan fenol kuchli bakteriotsid va fungitsid ta'sirga ega. Sporali bakteriyalar va viruslar fenol ta'siriga chidamli. U teri orqali va shilliq parda sathida yaxshi so'riladi, mahalliy og'riqsizlantiruvchi ta'sirga ega. To'qimalarga qitiqlovchi ta'sir ko'rsatadi, yuqori konsentratsiyada esa kuydiradi. Qonga so'rilgandan so'ng rezorbtiv ta'siri yuz berib, markaziy nerv tizimining qattiq qo'zg'alishi kuzatiladi, natijada titroq boshlanadi. Keyinchalik esa, falaj holati boshlanib, nafas to'xtashi tufayli o'limga olib keladi. Fenol bilan zaharlanishda darhol o'simlik moyi (paxta, zig'ir, kanakunjut moyi) bilan me'dani yuvish darkor.

Fenol teriga to'kilgan taqdirda uni spirt bilan yuvib tashlash zarur, so'ngra simptomatik davo qilinadi.

Hozirgi vaqtda fenol, to'qimani ta'sirlashi tufayli, antiseptik sifatida ishlatilmaydi. U asosan dezinfektsiyalovchi modda sifatida (1-3 % eritma) ishlatiladi.

Trikrezol fenolning orto, para, metametil unumining aralashmasidir. Fenolga nisbatan 3-10 marta kuchliroq. Zaharli ta'siri bo'yicha fenolga o'xshash. Shuning uchun ham trikrezol asosan dezinfektsiyalovchi modda sifatida qo'llaniladi.

Galogen va galogen saqlovchi moddalardan xlor va xloramin antiseptik va dezinfektsiyalovchi vositalar sifatida keng ishlatiladi. Xlor ko'pchilik grammusbat va grammanfiy mikroblarga bakteriotsid ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir xlorning juda kichik kontsentratsiyasida (0, 0002 %) kuzatiladi. Yuqoriroq kontsentratsiyasi kislotalariga chidamli mikroorganizmlarni, viruslarni va parazitlarni halok etadi. Xlorning ushbu bakteriotsid ta'siri organik aralashmalar ishtirokida ancha susayadi.

Xlorning antibakterial ta'siri gipoxlor kislotaning hosil bo'lishi bilan bog'liq bo'lsa kerak, chunki ishqoriy sharoitda uning dissotsiyanishi kuchayib, antiseptik ta'siri ancha kamayadi.

Xlor, xlorli ohak ichimlik suvini (0,25 % eritmasi) atrof-muhitni, chiqindilarni (balg'am, peshob, najasni) dezinfektsiyalash uchun, ba'zan quruq ohak holida ishlatiladi. Jangovar zaharlovchi moddalarni (iprit, lyuizit, boshqalar) degazatsiya qilishda ham samaralidir.

Xlor bilan zaharlanishda nafas yo'llari qattiq ta'sirlanib, o'pka shishi va metabolik atsidoz kuzatilishi mumkin. Bunda zudlik bilan kislorod berilishi, shok holatiga qarshi tadbirlar ko'rilishi shart.

Xloramin o'zidan asta-sekin xlori ajratadigan preparat hisoblanib, antiseptik va dezinfektsiyalovchi modda sifatida 0, 1-1-2 % li eritmalar holida qo'llaniladi.

Yod-uzoq vaqtdan beri keng ishlatib kelinayotgan antiseptik hisoblanadi. U ancha kuchli bakteriotsid, sporo, fungi, amyobatsid va qisman virusotsid ta'sir xususiyatiga ega. Yodni dezinfektsiyalovchi ta'siri xlorga nisbatan kamroq bo'lib, muhitning pH ga, haroratga va ta'sir etish vaqtiga bog'liq bo'ladi. Lekin xlorga o'xshab uning ta'sirini organik va qaytaruvchi moddalar kamaytiradi, alkogol esa kuchaytiradi.

Yodning kamchiliklaridan to'qimani bo'yashi, qitiqlashi, qisman achishtirishi, regeneratsiyani sekinlashtirish holatlarini aytib o'tish joiz. Ayrim hollarda allergik reaksiyalar (isitma, toshma toshishi) keltirib chiqaradi. Yod to'qimalardan va me'da-ichakdan yaxshi shimiladi hamda qalqonsimon bezning gormonlari sintezida qatnashadi. Tibbiyot amaliyotida esa antiseptik sifatida operatsiyadan oldin teriga surtish uchun, murtak bezi yallig'langanda (angina) yodning glitserin bilan aralashmasi, teri-zamburug' kasalliklarida, shikastlanishda va boshqa holatlarda buyuriladi. Bundan tashqari, yod rentgenokonstrast preparatlar tarkibiga kiradi va pielografiya (buyrakni tasvirlash), angiografiya (qon tomirlarini tasvirlash) maqsadida qo'llaniladi. Yodli preparatlar balg'am ko'chiruvchi sifatida va tireotoksikoz (Bazedov kasalligi), gipotireoz, amyobiazda (ichakning amyoba keltirib chiqaradigan kasalligi) tavsiya etiladi.

Oksidlovchilar. Vodorod peroksid va kaliy permanganat kuchli oksidlovchilar hisoblanib, to'qimalarga (organik moddalarga tekkanida) o'zidan kislorod molekulasini ajratadi. Ularning antiseptik xossasi ana shu kislorod ta'siriga bog'liq.

Vodorod peroksidning preparatlari (3 % eritma) to'qimaga tushganda gazsimon kislorod ajratadi. Shu sababli antiseptik ta'sir ko'rsatadi va to'qimani mexanik ravishda tozalanishiga yordam beradi.

Tibbiyot amaliyotida yiringli yaralarni, jarohatlarni davolashda va yallig'lanishda (stomatit, gingivit, pulpit, otit va hakozolarda) keng miqyosda ishlatiladi. Yiringlash, chirish bilan bog'liq bo'lgan noxush hidni yo'qotish maqsadida, yuvish va chayish uchun buyuriladi.

Kaliy permanganat organik moddalar (qand, ko'mir, tanin) bilan birikishi oqibatida portlashga olib keladi. Antiseptik preparat sifatida yallig'lanishning ko'p turlarida (stomatit, angina, sistit va hakozolarda) chayish va yuvish uchun 0,02-0,1 % eritmasi qo'llaniladi, 2-5 % eritmasi kuygan joyga suriladi. Buning natijasida surilgan joyda yupqa parda hosil bo'lib, mikroblar ko'payishidan va boshqa ta'sirlardan saqlaydi, kuyish sathidan suv chiqib ketishini kamaytiradi. Yoqimsiz hidni yo'qotish uchun ham ishlatish mumkin.

Bo'yoqlardan tibbiyot amaliyotida brilliant yashili va metilen ko'ki ishlatiladi. Ularning asosiy farmakologik ta'siri mikroblarga bo'lgan bakteriotsid ta'sirida ifodalanadi. Brilliant yashili antiseptik sifatida yodga yaqin bo'lib, to'qimaga qitqlovchi, kuydiruvchi ta'sir ko'rsatmaydi. Shuning uchun ham u yosh bolalarning teri yara kasalliklarida ko'p ishlatiladi.

Metilen ko'ki antiseptik modda sifatida brilliant yashilidan kuchsizroq. Bolalarda bo'ladigan stomatitda (og'iz shilliq pardasining yallig'lanishi) va terining yiringli kasalliklarida ishlatiladi. 1 % eritmasi xromosmon preparatining tarkibiga kiradi. Metgemoglobinni gemoglobinga tiklash maqsadida, amil nitrat, sulfanilamidlar va boshqa preparatlar bilan zaharlanishda buyuriladi.

Og'ir metall saqlagan birikmalardan simob, kumush, rux, vismut va mis preparatlari mikroorganizmlarga qarshi ta'sir ko'rsatgani uchun antiseptiklar sifatida ishlatilishi mumkin. Ular mikroob hujayralari tarkibidagi oqsil bilan birikib, albuminat hosil qiladi, oqsilni cho'ktiradi. Boshqacha aytganda ular bakteriotsid ta'sir ko'rsatadi. Lekin ularning bunday ta'siri shu bilan chegaralanmaydi. Simob va vismut preparatlari ayrim mikroorganizmlarga (spiroxetalarga) tanlab, kuchli ta'sir ko'rsatadi, kumush va rux, mis preparatlari esa har xil kokklarni halok etadi. Og'ir metall preparatlarining kichik kontsentratsiyasi ularni antiseptik vositalar sifatida qo'llashga imkon beradi. Ularning ta'sir etish mexanizmi boshqacharoq, asosan mikroblar fermenti tarkibidagi SH-guruhi bilan bog'lanib olib, modda almashinuvini buzadi, natijada mikroblarning rivojlanishi to'xtaydi. Boshqacha so'z bilan aytganda, bakteriostatik ta'sir namoyon bo'ladi. Ayrim preparatlarning (simob, vismut) kimyoterapevtik ta'siri ham shu asosda yuz beradi.

Suvda eriydigan simob preparatlaridan-sulema (simob dixlorid) kuchli antiseptik va dezinfektsiylovchi hisoblanadi. Simobni boshqa preparatlari ham (simob monoxlorid, surtmalari) antiseptik vosita sifatida dermatologiyada (teri kasalliklari), oftalmologiyada (ko'z kasalliklari) qo'llanilgan.

Kumush preparatlaridan-protargol burishtiruvchi, antiseptik va yallig'lanishga qarshi mahalliy ta'sirga ega. Yuqori nafas yo'llari (1-5 %), peshob chiqarish yo'llari, ko'z shilliq pardasi yallig'lanishida (1-3 %) keng ishlatiladi.

Rux va mis preparatlarining sulfatli tuzi, surtmasi burishtiruvchi va antiseptik vositalar sifatida, kon'yunktivitda va teri kasalliklarida buyuriladi.

Bundan tashqari, ularning 1-2 % eritmasi qustiruvchi preparatlar sifatida ichish uchun (1 osh qoshiqdan 3 martagacha) berilishi mumkin.

Antiseptik moddalar sifatida, yuqorida keltirilganlardan tashqari, bir qator vositalarni-detergentlar (sirt faol moddalar), oltingugurt preparatlari, yashil sovun, sovunli spirt va boshqalarni aytib o'tish o'rinlidir.

Preparatlari:

Bor kislota (Acidum boricum). Poroshok, 5 % surtma holida chiqariladi. Buyurilishi: 2-4 % suvdagi va spirtli eritmasi og'izni chayish uchun 1 choy qoshig'i 1 stakan suvga qo'shiladi. Spirtli eritmasi (0, 5-5 %) quloq tomchisi shaklida 3-5 tomchidan kuniga 2-3 marta tomiziladi. 5 % surtmasi teri qurib qolganida suriladi.

Salitsilat kislota (Acidum salicylicum). Orta-oksibenzoy kislota. Poroshok va pasta holida chiqariladi. Buyurilishi: 2-5 % sepish uchun aralashmalar tarkibida, 1-10 % surtma, pasta va spirtli eritma shaklida sirtga qo'llaniladi.

Etil spirti (Spiritus aethylicus). 90-96 % -dezinfektsiya, 70 %-antiseptik va 40 %-kompres uchun mo'ljallangan.

Formalin (Formalinum). 40 % -formaldegidning eritmasi. Flakonda 10 % eritma, 100 ml chiqariladi. Buyurilishi: antiseptik va terlashga qarshi 0, 5-1 %, a'zolar bo'shlig'ini yuvish uchun 1:2000; 1:3000 eritmasi, asboblarni dezinfektsiyalash uchun 0, 5 % eritmasi ishlatiladi.

Ferezol (Pheresolum). Tarkibida 60 % fenol va 40 % trikrezol bor. Shisha flakonda 10 ml dan chiqariladi. Buyurilishi: faqat sirtga qo'llash uchun. preparat faqat papilloma, so'gal, kondilomaga suriladi. Sog' to'qimaga ayniqsa, shilliq pardaga surish man etiladi.

Toza fenol (Phenolum purum). Poroshok, 3-5 % eritma holida dezinfektsiyalovchi sifatida ishlatiladi.

